


D.E. ESHIMOV, R.F. RO'ZIQULOV

# HAYVONLAR FIZIOLOGIYASI

FANIDAN AMALIY-LABORATORIYA  
MASHG'ULOTLARI



29.10.1977 9:16

Wetland bird survey  
at the mouth of the  
Kwai River, Kwai Tsing  
Country Park, New Territories,  
Hong Kong, 29 October 1977.  
by Alan C. H. Yip



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLYIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

D.E. ESHIMOV, R.F. RO'ZIQULOV

**«HAYVONLAR FIZIOLOGIYASI»  
FANIDAN AMALIY-LABORATORIYA  
MASHG'ULOTLARI**

---

---

*Veterinariya ta'lim yo'naliishlari  
talabalari uchun o'quv qo'llanma*

Ushbu o'quv qo'llanma «5440100—Veterinariya» yo'nalishida ta'ilim olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Oly va o'rta maxsus ta'ilim vazirligi tomonidan tasdiqlangan o'quv reja asosida yozildi.

O'quv qo'llanmani yozishda «Hayvonlar fiziologiyasi» fanning boshqcha fanlar bilan bog'siqligi va tajribalarning ahamiyati e'tiborga olindi. Shuningdek, keyingi yillarda talabalarning fanni o'rganish va o'zlashtirishda mustaqilligini oshirishga qaratilgan yangi o'qitish usullari bo'yicha qo'yilgan talablar imkonlari boricha hisobga olindi.

**Taqrizchilar:** N.SH. DAVLATOV — Samarcand qishloq xo'jalik instituti «Hayvonlar anatomiysi, fiziologiyasi, jarrohligi va farmakologiya» kafedrasining professori; Q.N. NORBOYEV — Samarcand qishloq xo'jalik instituti «Hayvonlar kasalliklari va parazitologiya» kafedrasining professori.

**Fiziologya umumbiologik fanlarning biri bo'lib, sog'lom organizmida va uning ayrim qismalarida: organlari, to'qima-lari, hujayralarida kechadigan hayotiy jarayonlarni, ularning zuminida yotadigan qonuniyatlarni tashqi muhit bilan bog'liq holida o'rganadigan fandir.**

«Hayvonlar fiziologyyasi» fani yuqori malakali veterinar vuchlar tayyorlashda katta ahamiyatga ega. Bugun qishloq xo'jalik hayvonlarini shaxsiy dehqon, fermer xo'jaliklarida boqib ko'paytirish yotgan bir davorda ujar organizmning hujayrulari, to'qimalari va organlari funksiyalaridagi tashqi muhit ta'srida bo'layotgan o'ngarishlarni o'rganish muhim ahamiyatga ega. Bunday holatlarda mutaxassislar oldiga qo'yilgan vazifalar hayvonlar sog'lomligi va muhsuldirilgini oshirishga qaratilgan bo'iishi lozim. Bunday mas'uliyatlari ishni nafaqat chuqur nazariy bilmlarga ega bo'lgan, balki amaliy bilimlarga, ko'nikmalarga ega bo'lgan mutaxassislariga bujura oladi. Shuning uchun ham o'quv qo'llanmaning asosida qismimi tajribalar o'tkazish usublari, olimadigan natijalar asosida tohil qilish va xulosalar egallagan. Qo'llanmada keltirilgan usublari nafisqat dars jarayonida, balki talabalar tomonidan ilmiy tadqiqotlari bajarishda ham qo'i keladi. Har bir amaliy-laboratoriya darsida darsning maqsadi, vazifalari, laboratoriya hayoni, tajribada qo'llaniladigan asbob-uskunalar, reaktivlar nomi hamda tajribani o'tkazish tartibi keltirilgan bo'lib, uni bajarish dars olib borayotgan o'qituvchi tomonidan nazorat qilinadi.

«Nazary bilimlar haqiqami bilishga, amaliy bilimlar esa, yaxshi ishlarni bajarishga qaratilgan». Abu Ali ibn Sino

## KIRISH



100% 362 122

Fiziologiya nihoyatda xilma-xil fanlar: anatomiya, gistoligiya, biokimyo, biofizika, patofiziologiya, immunologiya, genetika, zoogigiyena va boshqa fanlar bilan chambarchas bog'liq.

Hayvonlarni oziqrantirish, to'g'ri parvarish qilish, urchitish, kasalliklarning oldini olish va davolash uchun fiziologiyani bilish, o'rganish zarur. Chunki bu fan barcha biologik fanlar bilan chambarchas bog'liq holda fiziologik ko'rsatkichlarni bilish, istalgan fiziologik jarayonlarning asosini o'rganib, undan chorva mollari sog'lomligini ta'minlash va mahsulorligini osrirish uchun foydalanish zamini yaratadi. Demak, chorvachilik uchun yuqori malakali veterinariya mutaxassislarini taylorlashda fiziologiya fanning amaliy ahamiyati kattadir.

«Hayvonlar fiziologiyasi» fanni o'rganish uchun kunduzgi bo'lim «5440100-Veterinariya» ta'lim yo'nalishi talabalariga DTS va namunaviy o'quv rejalariда ajratilgan soatlar miqdori jami 210 soat bo'lib, shundan ma'ruza uchun 40 soat, analiy mashg'u-lotlar uchun 48 soat, laboratoriya darslari uchun 26 soat va mustaqil ta'lim uchun 96 soat dars ajratilgan.

Ko'rinish turibidiki, talabalar ma'ruzalarni tinglashi, amaliylaboratoriya darslariga qatnashishi hamda bu fan bo'yicha ajratilgan ayrim mavzularni mustaqil o'zlashtirishlari va referat ishlarni bajarishlari lozim.

Ana shundagina talabalar bu fanni yaxshи o'zlashtirib, joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarni muvaffaqiyati topshirishlari mumkin. Taqdim etilayotgan qo'llammani «5440100-Veterinariya» bakkalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan kunduzgi bo'lim talabalari bilan o'tkaziladigan amaliy-laboratoriya darslari uchun yozilgan.

Ushbu qo'llamma qishloq xo'jalik institutlarning «Veterinariya» fakultetlarida o'qitiladigan «Hayvonlar fiziologiyasi» fanning namunaviy o'quv dasturi va rejasiga muvofiq tuzilgan.

## AMALIY-LABORATORIYA DARSLARINI O'TKAZISH BO'YICHA UMUMIV KO'RSATMALAR

Amaliy-laboratoriya darslarini yuqori savyada, sifatlari o'tkazish uchun har tomonlama tayyorgarlik ko'rish katta ahamiyatga ega. Tayyorgarlik quyidagilarni o'z ichiga oladi:

— aseptika va antiseptika qoidalariга rioya qilish;

— laboratoriya hayvonlarni taylorlash;

— tajriba uchun kerakli jihozlarni, asbob-uskunalarini va erit-

molarini taylorlash;

— tajribalarni o'tkazish uchun har xil tajriba hamda tekshirish usullarini bilish.

Xavfsiz ish sharoitini ta'minlash maqsadida talabalar quyidagi talablarini bajarishi shart:

1. Darsga oq xalatda qatnashishi va ishlashi;  
2. Laboratoriya hayvonlarni to'g'ri, ishonchli ravishda hara-kutubizantirishi (maxsus jarrohlik stollariga bog'lash yoki narkoz berish yo'lli bilan);

3. Tajribani o'tkazish vaqtida ish joyini toza tutishi va shaxsiy eleyena qoidalariga rioya qilishi;

4. Tajriba tugaganidan so'ng ish joyini (stol, stanok va boshqalar) bilan dezinfeksiyalovchi kuchsiz eritmalar (xloramin va boshqalar) bilan intib tozalashi, idishlar va asbob-uskunalarini iliq suv bilan yuvib, toza suv bilan chayqab, quritishi, qo'llarini esa sovun bilan yuvishi;

5. Tajribalarni bajarishda qo'llaniladigan kimyoviy moddalarini kiyim-kechagiga, og'iz bo'shlig'iga va boshqa organlarga tushishiga yo'll qo'ymasligi;

6. Elektr asbob-uskunalarini qo'llash vaqtida xavfsizlik qoida-lari uchun qattiq rioya qilishi;

7. Yong'inga qarshi qoidalarni bilishi va unga qattiq rioya qilishi;

8. Texnika xavfsizligi bo'yicha ko'rsatma olishi va unga qattiq rioya qilishi.

Yuqorida ko'rsatilgan talablarining bajarilishi amaliy-laboratoriya darslari sifatlari va xavfsiz ish sharoitida o'tkazilishini ta'minlaydi.

## Darsni o'tkazish tartibi va uning ma'lumotlarini rasmiylashtirish

«Hayvonlar fiziologiyasi» fanidan amaliy-laboratoriya darslari 10–15 talabadan iborat guruhda o'tkaziladi. Har bir mavzu 2 akademik soat (90 daqiqa) yoki 80 daqiqaga mo'jallangan.

Darsni o'tkazish tartibi quyidagilardan iborat:

- darsni tashkilashtirish va talabalar davomatini tekshirish;
- o'qilgan ma'ruzalar va uy vazifalari bo'yicha talabalar bilimini nazorat qilish (10 daqiqa);
- o'tiladigan amaliy-laboratoriya darsining mazmunini tushuntirish (15 daqiqa);
- tajribalarni talabalardan mustaqil ravishda bajarishi (45–50 daqiqa);
- olingan natijalar bo'yicha xulosa chiqarish (5 daqiqa);
- tajriba bayonini qabul qilish, tekshirish va imzolash (5–10 daqiqagacha).

O'tkazilayotgan darsning ma'lumotnomalari tajriba bayoni holatida yozib rasmiylashtiriladi (ilova).

-yil \_\_\_\_\_ -kuni

## Hayvonlar fiziologiyasi fanidan o'tkaziladigan amaliy-laboratoriya darsining TAJRIBA BAYONI

- Darsning mavzusi.
- Darsning maqsadi.
- Tajribaning nomi.
- Tajriba uchun kerakli hayvonlar va jihozjar.
- Tajribani o'tkazish tartibi.
- Tajribaming natijasi va uning tahlili.
- Xulosa.

Talabaning imzosi:

O'qituvchining imzosi:

Tajriba bayonining 1, 2, 3, 4, 5-qismlari bo'yicha ma'lumotlarni talaba oldindan, darsga tayyorlarlik vaqtida daftarga yozishi kerak.

Tajriba bayonini jadvallar va rasmlar bilan to'dirilishi maqsadga muvofiq. Tajriba bayonida o'qituvchi imzosining bo'imasligi talaba tononidan vazifaning bajarilmaganligidan dalolat beradi.

Tuqdim ettilayotgan darsni o'tish tartibida ma'lum o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Ammo, darsni o'tish tartibini bilish talabalarga laboratoriya ishlarini – tajribalarni bajarishda vaqtini to'g'ri taqsimlashga yordam beradi.

**TAJRIBA O'TKAZILAYOTGANDA FOYDALANILADIGAN HAYVONLAR, QO'LLANILADIGAN ASBOB-USKUNALAR VA ERITMALAR**

### Tajriba hayvonlari

Tajribalarda qishloq xo'jalik va laboratoriya hayvonlaridan hydralaniladi. Qishloq xo'jalik hayvonlaridan (qoramol, qo'y, eho'chqa va otlar) «Hayvonlar fiziologiyasi» fanning hazm qilish, moddalar almashinuv, ko'payish va laktatsiya bo'limlarini o'nanihsda foydalaniadi.

Nerv sistemasi, ichki sekretsiya bezlarining fiziologiyasini o'rganishda laboratoriya hayvonlaridan (baqa, sichqon, kalamush, dengez cho'chqasi, quyon, it) foydalaniadi. Tajribalarda operatsiya qilligun va qilinmagan hayvonlardan foydalaniadi. O'tkir tajriba usullaridan viviseksiya usulini baqalar, itlar va boshqqa laboratoriya hayvonlarida o'tkaziladi. Tajribalarni fakultet yoki kafedra vivariyalarda saqlanadigan sog'gom hayvonlarda o'tkaziladi. Tajribalarni o'tkazishda xavfsizlikni ta'minlash maqsadida hayvonlar bog'lab qo'yildi. Hayvonlarni bog'lab qimirlatmay qo'yish (fiksatsiya) ikki sil usulda amalga oshiriladi:  
a) tik turgan holda;  
b) yiqitilgan yoki yotqizilgan holda.

Ikkala usul ham keng qo'llaniladi. Fiksatsiya asbob-anjomlari maxsus stollarga yoki yerga yiqitib fiksatsiyalanadi. Tik turgan holda stollar va maxsus fiksatsiya asbob-uskunulari ishlataladi. Stanoklar ham har bir turdag'i hayvonlar uchun alohida bo'lib, ularni fiksatsiya qilish xiliga mo'jallangan bo'ladi.

### Otar fiksatsiyasi

Otlarni maxsus stanoklarda tik turgan holda fiksatsiya qilinadi va maxsus stollarga yoki yerga yiqitib fiksatsiyalanadi. Tik turgan holda fiksatsiyalanganda hayvon kam harakat qilishi uchun oldingi

oyoqlaridan birortasini bukib yuqoriga ko'tarib ushlab turiladi yoki yuqorigi labiga burov solinadi (1-rasm). Agar ot asov bo'lsa, ikkinchi burovni qulog'iga qo'yish mumkin. Tekshirish oxirida burov qo'yilgan joylar yaxshilab 5–6 daqiqada davomida uqalanadi.




1-rasm. Otlar fiksatsiyasi.

#### Yirik shoxli hayvonlar fiksatsiyasi



Qoramollarni ko'pincha tik turgan holda maxsus stanoklarda fiksatsiyalanadi (2-rasm). Ikki shoxidan ushlab bo'ymini o'ng va chap tomonga biroz qiyshaytirib ushlash mumkin. Burniga burun omburi qo'yib qisiladi. Nasldor buqlalarga esa maxsus halqlar qo'yilgan bo'ladi. Yiqitish usullarini maxsus stollarda yoki yerda bajariladi.

#### Cho'chqalar fiksatsiyasi

Cho'chqalar ko'pincha tik turgan holda fiksatsiyalanadi. Cho'chqalar uchun ham alohida fiksatsiya stollarini va stanogi mavjud. Tik turgan holda fiksatsiyalashda maxsus uzun tayoqchali burovlari (ipli halqa) ustki jag'iga solinib, burab qisib ushlanadi (3-rasm). Kichik cho'chqalarni keyingi ikki oyog'idan ko'tarib, fiksatsiyalovchi kishi o'zining oyoqlari orasiga siqib ushlab turadi. Bunda fiksator bilan cho'chqa ikki qarama-qarshi tomonga qarab turadi.




3-rasm. Cho'chqalar fiksatsiyasi.



A – ipli bog'lam; B – burovli bog'lam; D – yuqori jag'ni qisqich bilan, E – bo'yindan qisqich bilan fiksatsiyalash.

## Laboratoriya hayvonlari fiksatsiyasi




4-rasm. Laboratoriya hayvonlari fiksatsiyasi:

A – quyon; B – dengiz cho'chqasi; D – it.

Baqalarni po'kak taxtachaga ignatugmalar yordamida birkiladi. Ichki organlarda o'tkaziladigan tajribalar davrida hayvon turi, katta-kichikligiga qarab turli jarrohlik stollaridan foydalaniladi (4-rasmlar). Qishloq xo'sjalik hayvonlarida va itlarning ichki a'zolarida o'tkaziladigan jarrohlikda aseptika va antisepтика qoidalariga rioya qilinishi lozim. Buning uchun jarrohlik asboblari qaynatiladi, sochiq, choyshab, rezina qo'lqop va boshqalar avtoklavda zararsizlantiriladi.

Tajriba o'tkazuvchi kishining qo'li sovun bilan yuvilib yog'sizlantiriladi, tirmoqlari olinadi, yod bilan ishlov beriladi va jarrohlik maydoni tayyorlanadi.



5-rasm. Mayda hayvonlar uchun fiksatsiya stollari:

A – Vinogradov stoli; B – Gaydovskiy va Rozenblyum stoli.

Hayvonlar tajribadan oldin och saqlanisi lozim. Tajribadan yot'ng' hayvonlarni oziqlantritish va saqlanishiga alohida e'tibor berilishi lozim, bu tajribaning muvaffaqiyatlari bo'lishini ta'minlaydi. Tijriba o'tkazishdan oldin hayvonlarda mahalliy va umumiyyetuvchanlik yo'qotiladi. Ba'zida har ikkalasi ham qo'llaniladi. Itlarni og'riqsizlantirish uchun kolipsol, ketamin va ketalardan, kavsh quytaruvchi hayvonlarni og'riqsizlantirish uchun alkogol, xloralgidrat, cho'chqalarga tiopental natriy, otlarga xloralgidrat ishlatiisa, mahalliy qismilarni novokain yordamida og'riqsizlantiriladi. Baqa va sifchqonlarga hushsizlantiruvchi moddalardan esir ishlataladi, buning uchun ularni maxsus shisha qalpoqlar tagiga joylashtirilib, uning ichiga esir bilan namlangan bir bo'lak paxta qo'yiladi.

### Ashob-uskunalar


To'qima va hujayralarni fiziologik qo'zg'atish uchun ularga turli yo'llar bilan ta'sir etiladi. To'qimani qo'zg'ata oladigan har bir in'shotchi **qitiqlagich** deb ataladi. Qitiqlagichlar ikki xil bo'ladi: inshqi va ichki.

*Tashqi qitiqlagichlarga* tevarak-muhitda uchraydigan turli-tuman omillar kiradi. Yorug'lik, tovush hamda kimyoiy va mexanik omillar shular jumlasidandir.

*Ichki qitiqlagichlarga* esa tana ichida mayjud bo'lgan kimyoiy va fizik omillar, chunonchi, qondagi karbonat angidrid, gormonlar, nerv impulslari va boshqalar kiradi.


To'qimalarning tabiiy qitiqlagichlar ta'sirida qo'zg'alishini o'rganish ancha murakkab, shuning uchun sun'iy qitiqlagichlar

ta'sirdan foydalaniladi. Bulardan eng qulayi elektr qitiqlagich hisoblanadi, chunki elektr kuchini, uning ta'sir etish vaqtini o'chash mumkin. BUNDAN TASHQARI, elektr tokidan foydalaniliganda u to'qimani shikastlamaydi. Laboratoriya sharoitida esa elektr tokini akkumulatorordan olinadi. Akkumulator ikki xil bo'ladi: kislotali va ishqorli.



*6-rasm. Qon oqishini to'xtatuvchi asboblar (A) va pinsetlar (B):*

4. 1, 2 – kesigan qon tomirlarini qisish uchun ishlataladigan peanlar;
- 3 – tishli Koxer qisqichi;
- 4 – uchi egilgan va 5 – to'g'ri uchli peanlar;
- 6 – Sapka qisqichi;
- B. 1 – to'g'ri ko'z pinseti; 2 – jarroqlik, 3 – anatomik,
- 4, 5 – qayrilgan ko'z pinsetlari; 6 – uzun tishli pinset.



*7-rasm. Laboratoriya hayvonlari uchun jarroqlik stolti:*


1 – shtativ; 2 – shtativ ustuni;

3 – harakattanuvchi sterjen;

4 – stol yuzasi; 5 – fiksatsiya tirqishi;


6 – qisqichi; 7 – bosh ushlagich;

8 – durni fiksatsiya qiluvchi moslama.



*9-rasm. Ip bilan bog'lash uchun qo'llaniladigan asboblar:*

- 1 – uchi bukilgen katta, 2 – o'tkazish uchun qo'llaniladigan to'g'ri katta, 3, 4 – oshqozon va ichakka fistula qo'yishda ishlataladigan, 5, 6 – to'qimalardan tomir va nervlarni ajratishda qo'llaniladigan kalta va uzun ligaklar;
- 7, 8 – Deshan ligakari (chuquur joylashgan tomir va nervlarni ajratishda qo'llaniladi).




*10-rasm. Turli shakldagi suyak ombirlari:*

1, 2 – urli kattalidagi lissen ombirlari;

3 – to'g'ri uchli, 5 – uchi oshqozon Lyuer ombirlari;


6 – umurraq o'siqlarini kesishda qo'llaniladigan ombir.




*11-rasm. Trepalar:*

1, 2, 3 – kichkina hayvonlar uchun kichkina trepal;

4 – katta trepan.




*12-rasm.* Uchi o'tkir (1) va bukilgan raspatolar (2).




*13-rasm.* Jarrohlilik vaqtida asbolarini olish va uzatish uchun qo'llaniladigan korsanglar:

1 – to'g'ri uchli; 2 – egri uchli.



*14-rasm.* Qisqichlar:


1 – to'g'ri; 2 – bukilgan.



*15-rasm.* Difenbax qisqichlari:


1 – kichik to'g'ri; 2 – katta;

3 – uchi bukilgan.




*16-rasm.* Surunkali tajibalarda itni bog'lab qo'yiladigan stanok.

1 – dokani kesish uchun; 2 – bosh miyaning qattiq pardasini kesish uchun; 3 – ko'krak va qorin bo'shilig'i pardalarini kesish uchun qo'llaniladigan uzun; 4, 5 – yarim bukilgan kichik va katta; 6, 8 – kichkina to'g'ri; 7 – katta to'g'ri qaychilar.



*18-rasm.* Pnevograf:

1 – ko'rsatkich; 2 – uch tarafflama o'tkazgich; 3 – Mareya kapsulasi; 4 – yelkami uzaytiruvchi va qisqartiruvchi vint.



*17-rasm.* Goryainov ruminografi:

1 – kengayadigan temir plastinka; 2 – soat mexanizmli barabani; 3 – temir tigak; 4 – uzaytigich; 5 – asos; 6 – bosimni ko'rsavuchi moslama.


zaryadlash lozim (bunda zaryadlash ishi akkumulatordag'i elektrolit qaynagungacha davom ettililadi).

3. Akkumulatorni bir yerdan ikkinchi yerga niroyatda ehtiyojlik bilan ko'chirish kerak. Aks holda uning plastinkasidagi faol qavat tushib ketishi mumkin.

4. Agar akkumulator uzoq vaqt ishlatalimsa, undagi elektrolitni olib o'rniga distillangan suvdan to'ldirib quyish lozim.

5. Akkumulator uchun elektrolit sifatida ishlataladigan sulfat kislotasi toza bo'lib, tarkibida xlor va temir bo'lmasligi va uning solishtirma og'irligi 1,14 dan 1,4 gacha bo'lishi kerak. Agar akkumulator uzoq turib qolsa, undagi suv bug'lamb, kislotaning konsentratsiyasi oshib ketadi, bu vaqtida kislotaga distillangan suv qo'shish kerak.

**Induksion g'altak**, asosan, to'qimalarni induksion tok bilan ta'sirlash uchun qo'llaniladi (20-rasm). Bu g'altak ikki o'ramdan tuzilgan: birinchi o'ram qo'zg'almas kichkina g'altak bo'lib, diametri 1 mm ga yaqin simdan (sim 200 marta o'raltagan), ikkinchi o'ram qo'zg'aluvchan katta g'altak bo'lib, diametri 0,2 mm li simdan yasalgan (sim 2500—5000 marta o'raltagan).



20-rasm. Induksion g'altak:  
1—birlamchi g'altak; 2—ikkilamchi g'altak; 3—uzgich; 4—birlamchi induksion g'altakning yuqori va 5—pastki klemmasi; 6—ikkilamchi g'altak klemmasi; 7—shkala.

Agar akkumulatordan kalit orqali birinchi o'rama tok o'tkazilsa, kalitni ulash vaqtida ikkinchi o'rama induksion tok hosil bo'ladi. Bu tok bilan ikkinchi g'altakka elektrotdan ulab to'qimalmarni qitiqlab qo'zg'attiladi. Agar induksion tokni deyarli uzoq vaqt olish kerak bo'lsa, akkumulator bilan birinchi g'altak o'rta-sidagi elektromagnit uzgichidan soydalaniadi; bu vaqtida ikkinchi g'altakda tetanik induksion tok hosil bo'ladi.


Ikkinci g'altakda hosil bo'ladiyan induksion tok kuchini o'zgartirib turish mumkin; bunda ikkinchi g'altakni birinchi g'altakka yaqinlashtirilsa, undagi induksion tok kuchayadi, assincha

bilinchi g'altakdan ikkinchi g'altakni uzoqlashtirilsa, undagi tok kuchi pasayadi.

Kalitni ulash va uzish vaqtida hosil bo'ladiyan induksion tok bilir xil. Ammo uning amplitudasi (voltajji) va davom etish vaqtini xil. Kalitni ulash vaqtida hosil bo'lgan induksion tokning amplitudasi kichkina va o'tish vaqtini uzoq bo'ladi, kalitni uzish vaqtida esa buning aksi ko'rildi. Induksion tokning davom etishi g'altakdan 54 sm uzoqda tursa, kalitni uzish vaqtida hosil bo'lgan induksion tok 0,25 sigma (soniyaning mingdan bir bo'lagi), ikkinchi g'altak birinchi g'altakdan 30 sm uzoqda tursa 0,65 sigma davom etadi. Kalitni ulash vaqtida hosil bo'ladiyan induksion tok kalitni uzish vaqtida hosil bo'ladiyan induksion tokka qaraganda uzoq davom etadi.

**Elektrodlar** elektr toki bilan to'qimalarni qitiqlash uchun ishlataladi. Buning uchun elektrodlarni tekshiriladigan to'qimaga qo'yib, unumi ikkinchi induksion g'altakka ularanadi. Elektrodlar bir necha kili bo'ladi: masalan, ko'chma va statcionar elektrodlar. Ko'chma elektrodg'a misol qilib Sheyx elektrodini, statcionar elektrodlarni yurik, nerv, muskulurni qitiqlash uchun ishlataladigan elektrodlarni oshib mumkin. Elektrodlarni, odatda, platina va kumushdan yasaladi.

**Kimograf**, asosan, baraban va soat mexanizmidan iborat, baraban qo'zg'almas o'qqa o'mashgan (21-rasm). Bu o'qning ikki uchi alohida rezbalni vintga o'rnatilgan bo'ladi. Soat mexanizmida




21-rasm. Kimograf:

1—barabon; 2—disk; 3—shatavat va unga o'rnatilgan 4—soat mexanizmi; 5—assevok; 6—uzat kich; 8—flyuger; 9—yuqori va 10—pastki vint.

metall o'q bor, bu o'qqa metall g'altak o'rnatilgan. G'altak esa, baraban plastinkasiga tegib turadi. Bundan tashqari, soat mexanizmida kalit bilan tugmacha bo'lib, bular yordamida soat mexanizmidagi prujina buraladi va bo'shatiladi. Prujina bo'shagan vaqtida soat mexanizmidan chiqqan metall o'q aylana bosholaydi. Bu o'q aylanishi natijasida metall g'altak harakatga keladi, g'altak esa barabanni harakatga keltiradi. Barabanga turli harakatlar, ya'mi baqa yuragining qisqarishi, nafas harakati, muskullar qisqarishi va qon bosimi kabilar yoziladi. Barabanni ishlatishdan awal unga toza oq qog'oz o'rav, uni is lampa bilan islanadi. Keyin kimografga o'ralib, yuqorida qayd etilgan harakatlar yoziladi.

Baraban harakatini tezlashtirish va sekimlashtirish mumkin. Buning uchun metall o'qdagi g'altakni markazdan uzoqlashtirilsa, baraban sekin aylanadi, aksinchalik, uni markazga yaqinlashtirilsa, u tez aylanadi. Yana soat mexanizmidan chiqqan parrakni katta yoki kichiklashtirib ham baraban harakatini o'zgartirish mumkin. Mareya kapsulasi 3–6 sm kattalikdagi dumaloq va biroz rezina parda bilan o'rangan (22-rasm). Bu rezina pardada tugmacha bo'lib, tugmacha ustida yozadigan peroli pishang bor. Bundan tashqari, metall qukichadan naycha chiqqan bo'lib, unga rezina nay ulanadi. Mareya kapsulasidagi rezbalni vint yordamida kapsula shtatiiga o'rnatiladi. Mareya kapsulasi yordamida ham har xil harakatlarni islangan barabanga yozish mumkin.

**Vaqt belgilovchi asbob** sim o'rangan elektromagnit g'altakdan tuzilgan bo'lib, bu g'altak ustida yozadigan prujinali pero bor. G'altakdagi simdan tok o'tkazilgandan so'ng uning o'qi magnetlaniib, prujinali peroni o'ziga tortadi, tok uzilganida u yana asl qiladi.



22-rasm. Mareya kapsulasi:

1 – mahkamlash muftasi; 2 – manometr orqali tutashuvchi naycha;

3 – metall plastinka; 4 – yozuvchi pero; 5 – uzakkich holatini o'zgartiruvchi moslama.

Hayvonlarda tajriba o'tkazish yoki to'qimani kesish uchun turli asboblar ishlataladi. Tajriba vaqtida qo'llanadigan har bir asbob o'rnida ishlatalishi lozim, massalan, kichkina qaychi bilan w'g'on ipni, terini, muskulini kesish yaramaydi, bu qaychi bilan qidir ingichka ipni, qon tomir devorlarini va miya pardalarinigina hollish lozim. Yuqorida nomlari keltirilgan asboblarni faqat zarur bo'lgan qilibudagina qo'llash kerak. Ishlatishdan awal asboblar sterillangan bo'llishi lozim.

### Tajribani o'tkazishda foydalananiladigan eritmalar

Organizmdan ajratib olingan ba'zi bir organlarning yashash qobiliyatini saqlash uchun tarkibi qon tarkibiga yaqin bo'lgan tuzilmalar foydalaniadi, masalan, fiziologik, Ringer, Ringer-Lokk va Tirode eritmalar shular jumlasidadir. Bu eritmalar uning tarkibiga qarab bir-biridan farq qiladi. Masalan, fiziologik eritma hayvon to'qimalari hayotining davomiyligini ta'minovchi emal sodda eritma bo'lib, u osh tuzining suvdagi eritmasi hisoblanadi, uning konsentratsiyasi qon plazmasidagi umumiy tuzlarning konsentratsiyasiga teng. Shuning uchun ham qon plazmasi va fizilogik eritmaning osmotik bosimi bir xil – izotonikdir. Issiq qonli hayvonlar uchun 0,85–0,99 % li, sovuq qonilar uchun 0,60–0,65 % li osh tuzining eritmasi fizilogik eritma bo'lib xizmat qiladi.

Lokk eritmasi Ringer eritmasidan 1 g uzum qandini saqlashi bilan farq qiladi. Glukoza qo'shilgan Ringer eritmasi Ringer-Lokk eritmasi deyiladi.

Ringer-Lokk eritmasi tarkibi qon plazmasi tarkibiga yaqin bo'lib, u bir qancha tuzlardan iborat. Bu eritma tarkibidagi turli

ionlar hujayra ishidagi jarayonlarga ta'sir etganligi sababli, bu ionlar nisbatining o'zgarishi hujayraviy jarayonlarni buzadi.

Issiq qonli hayvonlarda Tirole eritmasidan foydalanilib, uning tarkbi 1000 g distillangan suv, 8 g NaCl, 0,2 g KCl, 0,2 g CaCl<sub>2</sub>, 0,1 g MgCl<sub>2</sub>, 0,05 g NaH<sub>2</sub>HO<sub>4</sub>, 1,0 g NaHCO<sub>3</sub>, 1 g glukozadan iborat. Bu eritmalarni tayyorlash uchun ishlataladigan tuzlar kemyoviy toza bo'lishi kerak. Fiziologik tajibalari o'tkazilganda ishlataladigan eritmalarning kinyoviy tarkbi quyidagi jadvalda keltirilgan (1-jadval).

#### I-jadval

**Turli eritmalarning kinyoviy tarkibi**  
(1,0 l distillangan suvga g hisobida)

| Kinyoviy mod-      | Fiziologik eritma                 | Ringer eritmasi                   | Ringer-Lokk eritmasi              | Tirode eritmasi                   |
|--------------------|-----------------------------------|-----------------------------------|-----------------------------------|-----------------------------------|
| dalar-             | sovug<br>qonli<br>hayvon<br>uchun | issiq<br>qonli<br>hayvon<br>uchun | sovug<br>qonli<br>hayvon<br>uchun | issiq<br>qonli<br>hayvon<br>uchun |
| ning<br>nomi       | sovug<br>qonli<br>hayvon<br>uchun | issiq<br>qonli<br>hayvon<br>uchun | sovug<br>qonli<br>hayvon<br>uchun | issiq<br>qonli<br>hayvon<br>uchun |
| NaCl               | 6,0–7,0                           | 8,0–9,0                           | 6,0–7,0                           | 8,0–9,0                           |
|                    |                                   |                                   |                                   | 8,0                               |
| KCl                | —                                 | —                                 | 0,075–0,3                         | 0,075                             |
| CaCl <sub>2</sub>  | —                                 | —                                 | 0,1–0,25                          | 0,1–0,25                          |
| NaHCO <sub>3</sub> | —                                 | —                                 | 0,1–0,2                           | 0,1–0,2                           |
| MgCl <sub>2</sub>  | —                                 | —                                 | —                                 | —                                 |
| NaHPO <sub>4</sub> | —                                 | —                                 | —                                 | —                                 |
| Glukoza            | —                                 | —                                 | —                                 | 0,5                               |
|                    |                                   |                                   |                                   | 1,0                               |
|                    |                                   |                                   |                                   | 1,0                               |

**Darsning maqsadi:** fiziologiyada tajribaning ahamiyatini o'rganish; jadal va surunkali tajribalarning kamchiqlikleri hamda ustunlik tomonlarini bilish; hayvonlarni harakatsizlantirish hamda uluda tajibalarni o'tkazish qoidalarini o'rganish.

**Dars uchun kerakli hayvonlar va jihozlar:** qishloq xo'jalik va laboratoriya hayvonlari hamda tajibalar uchun kerakli barcha usbob-uskunalar, reaktivlar.

Fiziologiya eksperimental fan bo'lib, fiziologik jarayonlarni o'rganishda turli xildagi tekshirish usullaridan foydalanadi. I.P. Pavlov qo'llanilayotgan usul tajriba mohiyatini hal qiladi deb ko'rutgan edi.

Qishloq xo'jalik hayvonlarining fiziologik faoliyatlarini o'rganishda Rossiya olimlardidan N.F. Popov, A.D. Sineshev, A.A. Kudryavsev, A.V. Kvasnitskiy, D.Y. Krinitzin, P.F. Soldatenkov, P.I. Jerebsov, A.A. Aliyev va boshqalar tajriba usullaridan foydalanishga kutta hissa qo'shganlar.

Fiziologik tajibalarni o'tkazishda turli-tuman laboratoriya hayvonlari va moslamalaridan foydalanish bilan binga, ba'zan juda murakkab fizikaviy, elektrotexnikaviy va boshqa fanlarning yutuqlaridan keng ko'lama foydalaniadi. Tajriba o'tkazish uslubi yildan yilga yangilanib, fiziologik jarayonlarni chuquq o'rganishga sharoit yaratib bermoqda.

Qishloq xo'jalik va laboratoriya hayvonlarida olib boriladigan tekshirishlarda, tajriba paytlarida ular tishlashi, tirmab olishi, suzishi, tepishi va hokazo shikastlarga sabab bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Hayvonlar ham erkatalishni juda yoqtirishadi, shu sababli slab-siypalab, yumshoq, yoqimli muomala qilish kerakligini unutmang.

Hech qachon shovqin-suronli sharoitda tekshirish o'tkazmaslik kerak. Tekshirish paytida hech qanday stress omillar, ya'ni ta'sirlar bo'lmasligini ta'minlash kerak. Fiksatsiya stoli, stanoklari, qisqichlar va hokazolarning toza-ozodligi ko'zdan kechirilgan hamda ish tartibi o'rgанилган bo'lishi shart.

Hayvonlar ustida tajriba o'tkazish uchun, awvalo, ularni harakatsizlantirish lozim. Buning uchun quyidagi usullar keng qo'llaniladi:

1. Hayvonlarni bog'lab qo'yish usuli ko'proq laboratoriya hayvonlarini harakatsizlantirish uchun qo'llaniladi. Buning uchun

hayvonlar maxsus stollarga yotqizilib, ularning oyoqlari iplar bilan mahkam bog'lanadi va stol atrofiga tortib bog'lab qo'yiladi.

2. Hayvonlarga narkoz berish (uxlatish) usuli. Hayvonlarga narkoz ikki yo'l bilan beriladi:

a) ingalatsiya, ya'ni hidatish yo'l bilan;

b) inyeksiya, ya'ni teri ostiga, muskul orasiga va vena qon tomiri ichiga o'riqsizlantiruvchi moddalar(kolipsol, ketamin, ketalar, efir, xloroform, morfin, uretan va boshqalar)ni yuborish yo'l bilan.

3. Nerv sistemasini shikastlash usuli ko'pincha baqalarni harakatsizlantirish uchun qo'llaniladi. Buning uchun baqanining harakatsiz holga keladi.

Fiziologiya eksperimental fan bo'lganligi uchun uning asosiy va bosh usulli eksperiment, ya'ni **tajriba** hisoblanadi. Fiziolog organizmida kechadigan hayotiy jarayonlarning u yoki bu tomonlari to'g'risida tushuncha hosil qilish uchun dastavval hayvonlarda kuzatishlar olib boradi. Ammo u kuzatishlar bilan kifoyalanib qolmay, ataylab tanlab olingen hayvonlarda tajribalar o'tkazadi. Ana shu tajribalarda hayvonlarni kuzatish bilan bir qatorda eng zamonaviy asbob-uskunalaridan foydalanib, hayotiy jarayonlarning tegishli tomonlarini chuquarroq o'rganishga harakat qiladi. Tajribalar paytida olingen ma'lumotlar asosida tegishli ravigsha o'rganilayotgan fiziologik faoliyat to'g'risida xulosa chiqarib, yakun yasaydi.

Fiziologik tajriba usullari ikki xil bo'llib, ularga o'tkir va surunkali (xronik) tajriba usullari kiradi.

**O'tkir tajriba usullari** quyidagilar kiradi:

a) viviseksiya usuli – hayvoni tiriklayin jarrohlilik yo'l bilan yorib, muayyan organ faoliyati o'rganiladi;

b) eksterpatsiya usuli – muayyan organning organizm uchun ahamiyatini bilish maqsadida o'sha organ kesib olib tashlanadi. So'ngra organizmida kuzatiladigan o'zgarishlar qayd qilinadi, o'rganiladi. Bu usul ko'proq ichki sekretsiya (endokrin) bezlar faoliyatini o'rganishda qo'l keladi;

d) transplantatsiya usuli – muayyan to'qima yoki organ organizmning bir joyidan ikkinchi joyiga ko'chirib o'tkaziladi va organizmda ro'y beradigan o'zgarishlar o'rganiladi. Bu usul ham, ayniqsa, ichki sekretsiya bezlari faoliyatini o'rganishda qo'l keladi;

Transplantatsiya usulining auto-, gomo- va geterotransplantatsiya turlari bor. Autotransplantatsiya deb, bir individ organizmidagi

biot organ yoki to'qimani kesib olib, shu individning boshqa joyiga ko'chirib o'tkazishga aytiladi. Gomotransplantatsiya shunday unulki, bunda bir turdag'i hayvondan shu turdag'i boshqa hayvonga to'qima yoki organ ko'chirib o'tkaziladi. Bir turdag'i hayvondan olingen organ yoki to'qimani boshqa turdag'i hayvonga ko'chirib o'tkazishga geterotransplantatsiya deyiladi;

c) denervatsiya usulida muayyan organ faoliyatida nerv sistemasining ahamiyatini bishish uchun unga kelayotgan nerv tolassi kesiladi va u uzilganda qolaversa, uzilgan nerv tolassining organ o'garishlar o'rganiladi;

f) ligaturalar solish usuli – muayyan organ qon tomirlarini kuzatiladigan o'garishlarni o'rganish;

g) tomirlar anastomozi – ikki tomirni bir-biriga ulash;

h) organlarni izolatsiya qilish usuli – muayyan organ (yurak)ni unadan ajratib olish va tegishli sharoitda saqlab, uning ishini kuzatish.


**Surunkali usullar** quyidagilardan iborat:

a) fistula (naycha) o'matish usuli ko'pchilik ichki organlar (me'da, ichak, me'da osti bezi va boshqalar) faoliyatini o'rganisida qo'llaniladi. Bu usulning ikki xili farq qilinadi. Birinchi usulda organlar (me'da, ichak, qovuq, o't pufagi va boshqalar) devori leshilib, devoridan metall yoki plastmassa naycha (23-rasm) o'tkaziladi. O'matilgan naychaning ikkinchi uchi teri yuzasiga chiqarilib, muhkamlab qo'yiladi. Ikkinchisi esa turli bezlar yo'lini teri yuzasiga chiqarib tikishdir;

b) angiostomiya usuli – qon tomirlar devoriga naycha o'matish. Bu usul tufragli organizmning ancha ichkarisidagi qon tomirlardan qon olish imkoniyati tug'iladi, shunga ko'ra bu usul moddalar ilmashinuvini o'rganishda qo'l keladi;

d) surunkali ta'sirlantirish usu-

li, ayniqsa, nerv sistemasi faoliyatlari o'rganish uchun qulay. Bu usulda, masalan, miyaning turli qismalariga elektrodlar o'matilib, miya to'qimasiga ta'sirot beriladi va tegishli qismlar faoliyatini o'rganiladi;



23-rasm. Naycha.

e) radioaktiv izotoplar usuli moddalar almashinuvini o'rganishda qo'llanildi. Masalan, organizmda biror moddaning almamoda qo'shilib, hayvonga beriladi. So'ngra tegishli usullar yordamida organizm to'qimalaridan radioaktiv modda izlab topiladi. Shu tariqa almashinishi o'ganilayotgan moddaning organizmdagi taqdiri haqida fikr yuritildi;

f) shartli reflekslar usuli bosh miya yarimsharlar faoliyatini o'rganishda qo'llanildi;

g) radiotelemetrik usul – radiotelemetrik moslamalar yordamida organizmda kechayotgan jarayonlar to'g'risida uzoq masofadan turib axborot olish.

O'tkir tajriba usullaridan ko'pincha o'tkir jarrohliklar davrida foydalanimilib, buning uchun hayvoni harakatlamaydigan qilib bog'lanadi,unga narkoz beriladi. Bu usuldan hayvonlarni tiriklayin yo'rib ko'rishda foydalanimilib, oqibatda organizmmning bir butunligi buziladi va undagi hayotiy ko'rsakchilar o'zgaradi. Tajriba davrida jarrohlik o'tkazilgan hayvondagi ayrim organlar yoki organizmdan ajratib olingan organ faoliyati juda qisqa vaqt davomida o'ganilib, tajriba hayvoni ko'p o'may o'ladi. Bu usullardan foydalanimiganda faqat ayrim organ funksiyalarining u yoki bu tomonlari o'ganiladi, xulos.

Ma'lumki, organizmdagi barcha organlar faoliyati, funksiyalari bir-biri bilan chambarchas bog'iq, ularda kechadigan jarayonlar bir-biri va tashqi muhit ta'sirida uzuksiz ravishda o'zgarib, o'zaro moslashib turadi. Demak, o'tkir usullar fiziologiyada ayrim organlar faoliyatini o'ganishda muhim ahamiyatga ega bo'lsa-da, sog'lon organizmdagi turli jarayonlarni odatdag'i me'yoriy sharoitda, istalgan vaqtida tekshirishlar olib borish uchun uncha mos kelmaydi. Lekin, bundan o'tkir usullardan foydalanimining zaruriyati yo'q degan xulosa chiqarmaslik kerak. Chunki fiziologiya fami ko'pchilik ma'lumotlarni o'tkir tajriba usuli yordamida to'pladi, bu usul hozir ham katta ahamiyatga ega. Biroq organizm sog'lon bo'lib, tabiiy sharoitda odatdagidek yashab turganda unda sodir bo'layotgan nuqtayi nazardan surunkali (xronik) usullar benihoya katta ahamiyatga egadir. Masalan, surunkali usullardan maychalar o'matish usuli qo'llanilganda aseptika va antisceptika qoidalariga riyoq qilinib, hayvonda tajriba o'tkazilib, tegishli organga naycha qo'yilib,

duwolanadi, jarohat tuzatiladi. Hayvon to'liq tuzalgandan keyin (engishli kuzatish va tekshirishlar olib boriladi. Shunday qilib, bu uul yordamida tajriba o'tkaziganida tajriba hayvoni organizmda kechayotgan jarayonlar sog'lon hayvon organizmda kechayotgan odindagi jarayondan farq qilmaydi, ya'ni u sog'lon bo'ladi. Bu organlarning o'zaro bog'liqligi, faoliyatining neyrohumoral yo'i bilin boshqarilishi, organizmmning tashqi muhit bilan aloqadorligi o'ndagidek bo'ladi. O'tkir usullar alohnida olingan ayrim organlar holtiyatini o'ganishda qo'l keladigan analitik usuldir. Surunkali usullar esa organlar faoliyatini yaxlit organizmmning ajralmas qismi shifida o'ganishda qo'l keladigan sintetik usuldir.

Fiziologik jarayonlarni o'ganishda bu usullardan tashqari fizika, kimyo, biokimyo, biofizika, biotexnologiya va boshqa fanlarning usullaridan ham juda keng ko'lamda foydalanimiladi.

Hozirgi vaqtida shunday mukammal asbolar ixтиro qilinganki, bularning yordamida organizmda niyoyatda qisqa vaqt ichida o'tib keladigan jarayonlarning nozik tomonlarini ham qayd qilish mumkin.



## Nazorat savolları

1. «Hayvonlar fiziologiyasi» fanning maqsadi va vazifalarini aytинг.
2. Tajribalarni o'tkazishda qanday hayvonlardan foydalanimiladi?
3. Tajribalarni o'tkazishda qanday asbob-uskunalaridan foydalanimiladi?
4. Tajriba o'tkazish uchun hayvonlar qanday usullar bilan harakatsizlan-tiriladi?
5. O'tkir va surunkali tajriba usullarining mohiyatini tushuntiring.

Yunasidan teshiladi. Teshiladigan joyning juni qirqilib, terisini spirt va effr bilan artladi. Qon olish uchun ishlatalidigan ignalar (24-rasm) esa suvgaga solib qaynatiladi.

### I bob. QON FIZIOLOGIVASI

Qon, limfa va to'qima oraliq suyuqligi organizmning ichki muhitini tashkil etadi.

Qon — qizil rangli, sho'rtak ta'mli, suyuq, biriktiluvchi to'qidir. Qonning organizmdagi ahamiyati uning bajaradigan quydagi vazifalari bilan belgilanadi:


1. Transport vazifasi.
2. Termoregulatsiyada ishtirok etadi.
3. Gomeostazni bir xil saqlab turishda katta ahamiyatga ega.
4. Himoya vazifasi.
5. Korrelatsiya vazifasi.

Qon hayotiy muhim ahamiyatga ega bo'lib, u to'qima va organlarga oziga mahsulotlarini olib borib, ulardan moddalar almashinuvining oxirgi mahsulotlarini olib ketadi. Qon kislorod va karbonat angidrid gazini tashib nafas jarayonida ishtirok etadi. Turli organlarga gormonlarni tashib, organizmning hayotiy jarayonlarini boshqarishda qatnashadi. Organizmni himoya qilishda qonning ahamiyati katta bo'lib, bu jarayonni leykotsitlar va immun tachchalar bajaradi.

Yuqorida keltirilgan vazifalarni bajarish uchun qonda ma'lum bir turg'unlik holati bo'ishi lozim. Qon tarkibining nisbatan o'zgarmasligi (gomeostaz) organizmning boshqaruvchi mexanizmlari orqali amalga oshiriladi.

Talaba amaliy-laboratoriya ishini bajarishida qon tarkibi, plazma va qon shaklli elementlarining funksional ahamiyati, ivuvchanligi hamda qon guruhlari bilan tanishib chiqishi lozim (I-rangli rasm). Hayvonlarning sog'iomligi va mahsulordigini ta'minlashda mutaxassis uchun sog'iom qon tarkibini bilish muhim ahamiyatga ega.

**Qon olish.** Hayvonlardan tekshirish uchun kam va katta miqdorda qon olinadi. Kam miqdordagi qonni hayvonlarning quloq venasidan olsa bo'jadi. Buning uchun vena qon tomiri qulqoqning ichki yoki tashqi



24-rasm. Qon olish uchun ignalar:  
A, B, D, E — hayvonlarning qulqoq suprasi va odamlarning barmoq uchhidan qon olish uchun; F, G, H — venadan qon olish uchun; 1 — Frank Ignasining sanchiladigan lezyiyasi; 2 — boschchasi; 3 — harakatlanuvchi gayka; 4 — tepki.

Katta miqdordagi qonni kavsh qaytaruvchi hayvonlarda va otlarda bo'yinturuq venasidan, tozalikka riyoa qilingan holatda olimadi. Igna sunchiladigan joyning juni qirqliladi va 5% li yod eritmasi bilan dezinfeksiya qilinadi. So'ingra chap qo'lining katta barmog'i bilan bo'yinturuq venasini igna sanchiladigan joydan pastrog'idan bosiladi, natijada qon tomiri qon bilan to'lib, kengayib, ko'zga yaxshi ko'rindi. Igna 40—45° burchak ostida sanchiladi va qon tomiriga kirsa, qon bosim bilan oqib chiqadi (25-rasm). Cho'chqalarda qon qulqoqning katta tomirlaridan yoki dumining yumshoq tovonidan, itlarning son arteriyasidan olimadi.

Surunkali tajibalarni o'tkazishda qonni bir necha marta olib tekshiriladigan bo'isa, Y.S. Londonning angistomiya usulidan va A.A. Aliyevning qon tomirlariga kateter o'rnatish usulidan foydalaniлади.

4-jadval



25-rasm. Otlarning chap (A) va o'ng (B) tomonidagi bo'yinturuq venasidan qon olish.

2-jadval

### Hayvonlar qonining miqdori (tana vazniga nisbatan % hisobida)

| T/r | Hayvonlar | Globulinlar |       |       |  |
|-----|-----------|-------------|-------|-------|--|
|     |           | alfa        | betta | gamma |  |
| 1.  | Ot        | 16,0        | 23,0  | 21,0  |  |
| 2.  | Qoramol.  | 17,0        | 13,0  | 30,0  |  |
| 3.  | Qo'y      | 18,0        | 9,0   | 31,0  |  |
| 4.  | Cho'chqa  | 17,0        | 18,0  | 20    |  |
| 5.  | It        | 13,0        | 22,0  | 12,0  |  |
| 6.  | Quyon     | 10,0        | 10,0  | 20,0  |  |
| 7.  | Tovuq     | 18,0        | 12,0  | 36,0  |  |

5-jadval

### Hayvonlar qon zardobidagi kimyoiy elementlar miqdori (mg % hisobida)

| T/r | Hayvon turi | Kimyoiy element |      |      |     |                 |                  |
|-----|-------------|-----------------|------|------|-----|-----------------|------------------|
|     |             | Na              | K    | Ca   | Mg  | P <sub>um</sub> | P <sub>org</sub> |
| 1.  | Ot          | 320,0           | 18,0 | 12,0 | 2,5 | 12,5            | 4,8              |
| 2.  | Qoramol     | 33,0            | 19,0 | 11,0 | 3,5 | 11,0            | 5,0              |
| 3.  | Qo'y        | 325,0           | 19,0 | 11,5 | 2,5 | 11,5            | 6,0              |
| 4.  | Cho'chqa    | 335,0           | 20,0 | 12,0 | 3,0 | 10,0            | 5,0              |
| 5.  | Tovuq       | 375,0           | 0,22 | 20,0 | 2,3 | 33,0            | 4,2              |

3-jadval


### Hayvonlar qon zardobida oqsillar miqdori (gramm % hisobida)

| T/r | Hayvon turi | Ummumiy oqsil miqdori | Albuminlar | Globulinlar |
|-----|-------------|-----------------------|------------|-------------|
| 1.  | Ot          | 7,3                   | 2,7        | 4,6         |
| 2.  | Qoramol     | 7,4                   | 3,3        | 4,1         |
| 3.  | Qo'y        | 6,8                   | 2,7        | 4,1         |
| 4.  | Cho'chqa    | 8,0                   | 3,5        | 4,5         |
| 5.  | Quyon       | 6,2                   | 4,4        | 1,8         |
| 6.  | Tovuq       | 4,1                   | 1,2        | 2,9         |

### 2-dars. QON PLAZMASI VA QON ZARDOBINI AJRATIB OLISH

**Darsning maqsadi:** qon plazmasi, qon zardobi ajratib olish, ularni bir-biridan farqini va ahamiyatini o'rganish.

**Dars uchun kerakli bo'ladigan hayvonlar, jihozlar va reaktivlar:** qishloq xo'jalik va laboratoriya hayvonlari, qon olish uchun igna, shisha munchoqlar, jetut, paxta yoki tamponlar, spirt, efir, 5 % li yod eritmasi, 1 % li heparin eritmasi, 5 % li limon kislotasining natriy tuzi eritmasi va boshqalar.



26-rasm. Qonning asosiy tarkibiy qismi

1 — qon; 2 — plazma; 3 — qon zardobi; 4 — qonning shaklli elementari; 5 — eritroosit; 6 — leykotsit; 7 — tromboцит; 8 — fibrinogen; 9 — qon laxtasi.


Qonning ivib qolgan qismida shaklli elementlar va cho'kmaga tushgan oqsil — fibrinogen bo'ladı.

Qon laxtasi asta-sekin zinchashib, tarkibidan qon zardobi — sariq, tiniq suyuqlik ajraladi. Qon zardobidan qon plazmasi tarkibida fibrin saqlamasligi bilan farq qiladi. Agar, mexaniaktiv yo'l bilan qondan fibrinogenni ajartib olansa, bunday qon ivish xususiyatiga ega bo'lmaydi. Bu qon fibrinogendan tashqari qonning barcha tarkibiy qismlarini saqlaydi va fibrinsizlantirilgan qon deyiladi.

### Qon plazmasi va zardobini ajartib olish

*Tajriba o'tkazish uchun tayyorgartlik:* katta hayvonlar uchun mo'ljallangan stanokka ot yoki yirik shoxli hayvon fiksatsiyalarini. Qon olish uchun igna, 10—20 ml li shisha silindrilar, shattivga joylashtirilgan kimyoiy va sentrifuga uchun mo'ljallangan probirkalar, 50—100 ml li kolbalar, shisha munchoqlar va antikoagulantlar kerak bo'лади.

*Ishni bajarish taribi:* Antikoagulant va shisha munchoqlar solingan idishga hayvonlarning bo'yinturug venasidan 10 ml qon olinadi. Qon solingan idish og'zini tiqin bilan berkitib, aralashdiriladi. Qon solingan idismi termostatga qo'yib (ot qonini 1 soatga, qoramollar qonini 24—48 soatga), keyin sentrifugada daqiqasiga 3000 marta aylanish tezligida 20—30 daqiqa aylantiriladi. Qon elementlarga ajralganiga ishonch hosil qilinadi.



27-rasm. Gematokrit.

Qon plasma va uning tarkibini tashkili etuvchi shaklli elementlar — eritrotsitlar, leykotsitlar va trombocitlardan iborat (26-rasm). Qon plazmasini ajratib olish uchun qonga antikoagulantlar (geparin, 5 % li limon kislotasining natriy tuzi eritmasi) qo'shib ivishdan saqlanadi. Bunday qon probirkada bir qancha vaqt saqlansa yoki sentrifuga qilinganida so'ng probirkaning yuqori qismida plazma va cho'kmaga tushgan shaklli elementlarga ajraladi. Agar, olingan qonga antikoagulantlar qo'shib stabilastirilmasa qon ivib qoladi, ya'ni qon laxtasi hosil bo'лади. Qonning ivib qolgan qismida shaklli elementlar va cho'kmaga tushgan oqsil — fibrinogen bo'лади.

Qon laxtasi asta-sekin zinchashib, tarkibidan qon zardobi — sariq, tiniq suyuqlik ajraladi. Qon zardobidan qon plazmasi tarkibida fibrin saqlamasligi bilan farq qiladi. Agar, mexaniaktiv yo'l bilan qondan fibrinogenni ajartib olansa, bunday qon ivish xususiyatiga ega bo'lmaydi. Bu qon fibrinogendan tashqari qonning barcha tarkibiy qismlarini saqlaydi va fibrinsizlantirilgan qon deyiladi.

3. Shisha idish ichiga 10—12 dona munchoqlar, uning ustiga 20—30 ml yangi qon solinadi va 10—15 daqiqa davomida qo'yl yordamida silkib aralashdiriladi. Cho'kmaga tushayotgan fibrin tohalari munchoqlarga o'ralib qoladi. Shisha idishdagi barcha urashmani (munchoq va qonni) ikki qavatlidagi doka yordamida urashdiriladi. Hosil bo'lgan filtrat, ya'ni fibrinsizlantirilgan qon qon zardobi va shaklli elementlarga ajraladi. Qon zardobini ajratib olishda fibrinsizlantirilgan qondan foydalaniлади. Munchoqlarga o'ralib, yopishib qolgan fibrin ipchalarini iliq suv bilan yuvib, shaklli elementlardan ajratiladi. U oq taramli tuzilishga ega bo'лади.

Qonning shaklli elementlari 35—40, plazmasi esa 60—65 % ni tushkil etadi. Bu nisbat haywoning turi, yoshi, funktsional holati va ba'zi bir kasalliliklarga bog'liq ravishda o'zgaradi. Bu nisbatni o'rganish uchun gemitokrit asbobidan (27-rasm) foydalaniлади. Gemitokrit asbobi kapillar naychalarning tor tomonini qaramaganishi joylashtirilib, asbobning asosiga mahkamlanganidan so'ng,

1. Probirka yoki silindrga antikoagulantsiz 10 ml qon olinib, bir necha soatga 38°C li termostatga joylashtiriladi. Bu vaqtida qon laxtasi hosil bo'lib, qotishi natijasida qon zardobi (otlarda 1—3 soatda to'liq qon laxtasi ajraladi, qoramollarda 12—18 soatda qon laxtasi hosil bo'lsa-da, zardobning siqib chiqarilishiga ancha ko'p vaqt kerak bo'лади) ajraladi. To'liq retraksiya oqibatida hosil bo'lgan qon zardobini probirkadan quyib yoki pipetka yordamida so'rib olimadi va plazma bilan solishtiriladi. Qon zardobi sariq — nomon rangiga ega bo'lib, plazmaga nisbatan timiqroqdir.

2. Qon zardobini boshqo usulda ajratib olsa ham bo'лади. Fibrinsizlantirilgan qonni sentrifuga probirkasiga quyib daqiqa 3000 marta aylanish tezligida 10—15 daqiqa davomida sentrifuga qilinadi. Qonning shaklli elementlari cho'kib, ustki qismida esa qon zardobi qoladi. Ba'zan qonni fibrinsizlantirish jarayonida oritrotsitlarning urilishi va parchalanishi natijasida qon zardobi qizil nungga ega bo'лади.

3. Shisha idish ichiga 10—12 dona munchoqlar, uning ustiga 20—30 ml yangi qon solinadi va 10—15 daqiqa davomida qo'yl yordamida silkib aralashdiriladi. Cho'kmaga tushayotgan fibrin tohalari munchoqlarga o'ralib qoladi. Shisha idishdagi barcha urashmani (munchoq va qonni) ikki qavatlidagi doka yordamida urashdiriladi. Hosil bo'lgan filtrat, ya'ni fibrinsizlantirilgan qon qon zardobi va shaklli elementlarga ajraladi. Qon zardobini ajratib olishda fibrinsizlantirilgan qondan foydalaniлади. Munchoqlarga o'ralib, yopishib qolgan fibrin ipchalarini iliq suv bilan yuvib, shaklli elementlardan ajratiladi. U oq taramli tuzilishga ega bo'лади.

Qonning shaklli elementlari 35—40, plazmasi esa 60—65 % ni tushkil etadi. Bu nisbat haywoning turi, yoshi, funktsional holati va ba'zi bir kasalliliklarga bog'liq ravishda o'zgaradi. Bu nisbatni o'rganish uchun gemitokrit asbobidan (27-rasm) foydalaniлади. Gemitokrit asbobi kapillar naychalarning tor tomonini qaramaganishi joylashtirilib, asbobning asosiga mahkamlanganidan so'ng,

qopqog'i yopilgan holda daqiqasiga 3000 marta aylanish tezligidagi 30 daqiqa aylantirilgach, qonning shaklli elementlari periferiyada plazmasi esa markazda joylashganligi kuzatiladi. Kapillarlar ko'rsatkichiga qarab plazma va shaklli elementlar nisbati aniqlanadi.



### NAZORAT SAVOLLARI

- Qon zardobi nima va u qanday ajratib olinadi?
- Qon plazmasi nima va u qanday ajratib olinadi?
- Qon zardobi bilan plazma o'rasisidagi farqni tushuntiring.
- Fibrinsizlantirilgan qon nima va fibrin qanday ajratib olinadi?
- Plazma va shaklli elementlar nisbati qanday aniqlanadi?

### 3-dars. QONNING SHAKLLI ELEMENTLARINI SANASH USLUBI

**Darsning maqsadi:** qonning shaklli elementlari: eritrotsitlar, leykotsitlar, trombotsitlar haqida tushunchaga ega bo'lish va ularni sanash texnikasini o'rganish.

**Dars uchun kerakli hayvonlar, jihozlar va reaktivlar:** qishloq xo'jalik va laboratoriya hayvonlari hamda ularning qoni, qaychi, qon olish uchun igma, qoplovchi shishalar, mikroskop, paxta, melanjerlar (araslashtirgichlar), Goryayev sanoq kamerasi, spirit, efir, yod eritmasi, 3 % li osh tuzi eritmasi, 3 % li sirkakislotasining metilen ko'ki aralashdirilgan eritmasi.

Organizmning barcha to'qima va hujayralari qon, limfa va to'qima oraliq stuuyuqliklarining muhitidagina me'yorda yashay oladi.


O'racha olganda qonning 60 % ga yaqin qismini plasma, 40 % ga yaqin qismini esa shaklli elementlar tashkil qiladi.

Qonning shaklli elementlari, ya'nii hujayralari uch xil bo'ladilar:

- Eritrotsitlar — qizil qon hujayralari.
- Leykotsitlar — qon hujayralari.
- Trombotsitlar — qon plastinkalari.

Bu hujayralarning har qaysisi o'ziga xos tuzilgan bo'lib, qator xususiyatlarga ega va ularning organizmda bajaradigan vazifalari ham turilcha. Ularning har birining hayvon qonidagi miqdori nisbatan doimiydir. Lekin ularning midori hayvonning yoshi, jinsi, fiziologik holati, atrof-muhit harorati va boshqa omillar ta'sida

o'garishi mumkin. Shuning uchun qonning shaklli elementlarini munash va ularning qondagi miqdorini aniqlash katta amaliy hamiyatga ega. Qonning shaklli elementlari Goryayev sanoq to'rida nimaladi (28-rasm).



28-rasm. Goryayev sanoq to'rinining ustidan (**A**) va yonidan (**B**) ko'rinishi:  
**F** — eritrotsitlar va **G** — leykotsitlar uchun aralashdirgich;

**D** — katta va kichik katakchalar chizilgan Goryayev sanoq to'rinining bir qismi: **1** — kichik katakcha; **2** — katta katakcha; **E** — Goryayev sanoq to'ridagi katta katakchalarda eritrotsitlarni sanash tartibi. «+» sanaladigan va «->» sanalmaydigan katakchalardagi eritrotsitlar.

Goryayev sanoq to'rinining yuzasi 9 mm, kamerasining hajmi 0,9 mm. Goryayev sanoq to'rida 225 ta katta katakcha (har qaysisida 15 tadan katta katakcha bo'ladigan 15 qator) bor, shu katakchalarning 25 tasi 16 tadan kichik katakchalarga, 100 tasi to'g'ri to'rburchaklarga bo'lingan va 100 tasi ochiq qoldirilgan. To'rinining anchakatta katakchallari to'rttadan bo'lib joylashgan, bu sanashni ancha osonlashtiradi.

Melanjer yoki aralashtirgichlar uzuunligi 10 sm atrofida bo'lib, bir uchida ampulasimon kengaymasi bor kapillar naychalaridir. Ampulasimon kengaymasining ichida qizil va oq munchoqchalar bo'ladи. Kapillar bilan ampula o'rtasidagi nisbat eritrotsitlar melanjerida 1:100, leykotsitlar melanjerida 1:10 dir.

Melanjerlarning kapillar qismida 0,5 va 1 raqamlari; ampula simon kengaymaning yuqorisida esa 101 yoki 11 raqamlari yozilgan bo'ladи. 101 gacha raqamli melanjer eritrotsitlarni sanash uchun, 11 raqamli esa leykotsitlarni sanash uchun qomni suyultirishga mo'l-jallangan. Melanjerga mundshtukli rezina maycha kiygizilan bo'ladи.

Qomning shaklli elementlarini sanash uchun hayvonlardan qon olinadi. Qon olishda aseptika va antisepтика qoidalariга riyoq qirqib olinadi yoki qiriladi. Teri spirt, keyin esa efir bilan artiladi. Unga igna sanchiladi. Chiqqan birlinchi qon tomchisi paxta bilan artib tashlanadi. Ikkinchи qon tomchisidan esa melanjerning 0,5 yoki 1 raqamigacha qon so'rib olinadi. Qonni olib bo'lgandan keyin igna sanchilgan joy spirt bilan artiladi yoki unga 5 % li yod eritmasi surtib qo'yildi. Eritrotsitlarni sanash uchun qomni suyultirishda melanjerning 101 raqamigacha tezda 3 % li osh tuzi eritmasidan, leykotsitlarni sanash uchun 11 raqamigacha 3 % li sirka kislitasining metilen ko'ki aralashtirilgan eritmasidan olinadi. So'ngra melanjer uchlarini qo'inning bosh va o'rta barmoqlari orasiga qisib, tekis harakatlar bilan qon suyuqlik bilan aralashtiriladi. Melanjerni chayqatib bo'lgandan keyin undan 2—3 tomchi suyuqlik paxtaga tushiriladi. Samoq kamerasini olib ustiga qoplagich shishami yopib, Nyutton halqalari (kamalak) paydo bo'lgunigacha ishqalanadi.

Mikroskopni ish holatiga ketirib, uming stolchasisiga Goryayev sanoq kamerasi o'matiladi, oldin kichik ( $\times 20$ ) obyektiv, keyin esa katta ( $\times 40$ ) obyektiv ostida kamera to'rimi topib, katta va kichik katakchalarning joylashishi bilan tanishib chiqiladi.

Tubusni ko'tarib, kamera o'rta plastinkasining bo'sh chetiga melanjerdan bir tomchi qon tomiziladi. Kapillar xususiyatiga ko'ra, tomchi qoplagich oyna tagiga oqib kiradi. Kamera to'rida havo pufakchalar bo'lishiga, shuningdek, oyna ustiga qon tushib qolishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Chunki bu sanoqning aniq chiqishiga xalal beradi.

Eritrotsitlar har qaysisi 16 ta kichik katakchaga bo'lingan 5 ta katta katakchalarda sanaladi. Leykotsitlar esa 100 ta katta (kichik katakchalarga bo'limmagan katakchalarda) yoki har qaysisi 16 ta

kichik katakchalarga bo'lingan 25 ta katta katakchalarda sanaladi. Bitta hujayrani ikki marta sanamaslik uchun hisobni katta kutakchaning ustki burchagida joylashgan kichik katakchadan boshlab, keyin ustki qatorning ikkinchi, uchinchi va to'rinchi katakchalariga o'tiladi. Ustki qatorni sanab bo'lgandan keyin ikkinchi qatorga tushib, hisobni teskari tomonga, ya'ni o'ngdan chapga olib boriladi. Uchinchi qatorda hisob chapdan o'ngga, to'rinchi qatorda esa yana o'ngdan chapga qarab olib boriladi. Har bir kichik katakchada uning chap va ustki chiziqlarida yotgan hujayralar sanaladi. O'ng va pastki chizqlarda yotgan hujayralar boshqa katakchalarda sanaladi. Sanoq tugagandan keyin tegishli formula yordamida 1 mm<sup>3</sup> qondagi eritrotsitlar va leykotsitlar miqdori aniqlanadi va xulosa qilinadi.



## NAZORAT SAVOLLARI

1. Qomning ahamiyati, vazifalari va tarkibini tushuntiring.
2. Qomning shaklli elementlarini sanash texnikasini tushuntiring.
3. Goryayev sanoq to'ri qanday tuzilgan?
4. Melanjerning tuzilishini tushuntiring.
5. Hayvonlarning qayeridan va qancha miqdorda qon olinadi?

## 4 dars. ERITROTSITLAR SONINI SANASH

**Darsning maqsadi:** eritrotsitlarning tuzilishi, tarkibi, vazifikasi, ahamiyati haqidagi tushunchaga ega bo'lish va hayvonlar qonidagi eritrotsitlar sonini sanashni o'rganish.

**Dars uchun kerakli hayvonlar, jihozlar va reaktivlar:** qishloq xo'jalik va laboratoriya hayvonlari hamda ularning qoni, qaychi, qon olish uchun igna, paxta, melanjer, qoplovchi shishalar, Goryayev sanoq to'ri, mikroskop, spirt, efir, 5 % li yod eritmasi, 3 % li osh tuzi eritmasi.

Eritrotsitlar aksariyat issiq qonli hayvonlarda disksimon, tuyu va lamalarda esa oval shakilda bo'ladigan yadrosiz hujayralardir, amfibiya, reptiliya, baliqlar va qushlarda yadroli, oval shakilda bo'ladи. Qishloq xo'jalik hayvonlari eritrotsitlarining o'rtacha diametri 4—7 mikronga teng. Tarkibida 60 % suv va 40 % quruq modda saqlaydi. Quruq moddasining 90 % ni gemoglobin, 5,8 % ni oqsillar, qolgan qismini esa lipoidlar, glukoza, mineral tuzlar tashkil qiladi. Eritrotsitlarda katalaza, karboangidraza fermentlari bor. Eritrotsitlar organizm uchun benihoya katta ahamiyatga ega

bo'lgan hujayrallardir. Chunki ular o'z tarkibidagi gemoglobinga kislordni birlitrib olib, organizmdagi barcha organ va to'qima-larga tashib beradi. Eritrotsitlar kislord tashishdan tashqari karbonat angidrid va ayrim oziqa moddalarni (aminokislotalarni) ham tashiydi.

Eritrotsitlar ari uyasiga o'xshash katakchali tuzilishga ega. Anashu kattakchalarda gemogobin joylashgan bo'lib, eritrotsitlarga qizil rang beradi. Ularning qizil qon hujayralari deb atalishiga sabab ham shunda.

Qonda eritrotsitlar miqdori ko'p bo'lganligi uchun eritrotsitlari sanalayotgan qon tegishli ravishda, 100–200 marta suyultiriladi. So'ngra 1 mm<sup>3</sup> qondagi eritrotsitlarning miqdori millionlarda hisoblanadi.

Qonda eritrotsitlarning ko'payib ketishiga *eritrotsitoz*, kamayib ketishiga esa *eritropenya* deylildi. Eritrotsitoz jismonyi ish paytida, qon quyulib qolganida, katta miqdorda suv yo'qotilganida (ich ketish, ko'p quaverish, bo'shiqlarda ekssudat va transsudatning paydo bo'ishi), ichak tiqilib qolganida va boshqa holatlarda kuzatildi.

Eritropeniya bo'g'ozlik davrida hayvon ozib ketganida, kamqon bo'lib qolganida, eritrotsitlarning yemirilishi bilan kechadigan kasalliklarda (piroplazmox, nuttallioz, infekzion anemiya) va boshqalarda kuzatiladi. Bularidan tashqari eritrotsitlar soni hayvonlarning yoshi, jinsi, organizmning holati, yilning fasli va boshqa omillarga qarab o'zgarib turadi.

Shuning uchun eritrotsitlar sonini samash va ularning qondagi miqdorini aniqlash katta amaliy ahamiyatga ega. Tomirlarda oqayotgan qon eritrotsitlari kavsh qaytaruvchi hayvonlarda va cho'chqalarda 1–1,5 oy, otda 95, eshakda, qoramollarda 130 kun yoki o'rtacha 120 kun atrofida yashaydi. Umri tugagan eritrotsitlar jigar va taloqda parchalanadi.

*Ishni bajarish tartibi*. Ishni bajarish tartibi qonning shaklli elementlarini sanash usulida berilgan.

Eritrotsitsitlar har qaysisi 16 ta kichik katakchaga bo'lingan 5 ta katta katakchalarda (5·16=80 ta kichik katakchalarda) sanaladi. Har bir kichik katakchada topigan eritrotsitlar miqdorining soni, ular qanday tartibda hisoblab chiqilgan bo'lsa, xuddi shu tartibda yozib boriladi.

Sanoq tugagandan keyin quyidagi formulaga muvofiq 1 mm<sup>3</sup> qondagi eritrotsitlar soni aniqlanadi:

$$x = (A \cdot 4000 \cdot B) : 80 \quad \text{yoki} \quad x = A \cdot 10000,$$

bu yerda:  $x$  – 1 mm<sup>3</sup> qondagi aniqlanadigan eritrotsitlar soni;  $A$  – 80 ta kichik katakchalarda sanalgan eritrotsitlar soni;  $B$  – suyultirish eritrotsitlar sanalgan kichik katakchalar soni;  $B$  – suyultirish durajasi (1:100; 1:200);  $1/4000 \text{ mm}^3$  – bitta kichik katakchanning hujmi ( $1/20 \times 1/20 \times 1/10$ ).

Olingan natijani normativga solishtirib, xulosa qilinadi (6-jadval). Masalan, 5 ta katta katakchada (80 ta kichik) 535 ta eritrotsit sanalgan bo'lsa, 1 mm<sup>3</sup> qondagi eritrotsitlar soni  $x = 535 \cdot 10000 = 5350000$  u bo'ladi.

#### Hayvonlar eritrotsitlarning soni va kattaligi

6-jadval

| Hayvon turi | 1 mm <sup>3</sup> qondagi eritrotsitlarning soni (mln. hisobida) | Eng katta eritrotsitlarning dia-metri (mikron hisobida) | Eritrotsitlarning yuzasi (kvadrat mikron hisobida) |
|-------------|--|---|--|
| Ot          | 7,0  | 6,0–9,0   | 5,6<br>79  |
| Qoramol     | 6,5  | 5,0–7,5   | 5,1<br>95  |
| Tuya        | 13,0   | 9,5–12  | 4,0–7,3<br>—                                       |
| Qo'y        | 9,5  | 7,0–12,0  | 5,1<br>—   |
| Echki       | 15,0   | 12,0–18,0   | 4,1<br>38  |
| Cho'chqa    | 6,5  | 6,7–7,5   | 5,5<br>107   |
| It          | 6,5  | 5,2–8,4   | 7,2<br>—   |
| Quyon       | 6,0  | 4,5–7,5   | 6,0<br>—   |
| Mushuk      | 8,0  | 6,6–9,4   | 6,2<br>—   |
| Tovuq       | 3,5  | 3,0–4,0   | 7,5–12<br>428                                      |
| O'rdek      | 3,8  | 3,0–4,5   | 6,6–12,8<br>—                                      |
| G'oz        | 3,0  | 2,5–3,5   | 7,5–12<br>428                                      |



#### NAZORAT SAVOLLARI

1. Eritrotsitlarning tuzilishi, vazifikasi, ahamiyatini tushuntiring.
2. Eritrotsitlar qay tartibda sanaladi?
3. 1 mm<sup>3</sup> qondagi eritrotsitlar miqdori qanday aniqlanadi?
4. Eritrotsitlarni sanash uchun qon qanday suyultiriladi?
5. Eritrotsitoz va eritropenya nima?

## 5-dars. LEYKOTSITLAR SONINI SANASH

**Darsning maqsadi:** leykotsitlarning tuzilishi, tarkibi, vazifasi, ahamiyati haqida tushunchaga ega bo'lish va hayvonlar qonidagi leykotsitlar sonini sanashni o'rganish.

**Dars uchun kerakli hayvonlar, jihoziar va reaktivlar:** qishloq xo'jalik va laboratoriya hayvonlari hamda ularning qoni, qaychi, qon olish uchun igna, paxta, melanjer, qoplovchi shishalar, Goryayev sanoq to'ri, mikroskop, spirt, efir, 3 % li sirkakislotsiming metilen ko'ki bilan aralashmasi, yod eritmasi.

**Leykotsitlar** — oq qon hujayralari rangsiz, eritrotsitlarga nisbatan kattaroq (diametri 5–20 mikronga teng) hujayralar bo'lib, yadro va protoplazmaga ega. Qonda leykotsitlar eritrotsitlarga nisbatan kamroq bo'ladi, ular 1 mm<sup>3</sup> qonda bir necha ming dona bo'lib, uning turli xil hayvonlardagi miqdori quyida keltirilgan (7-jadval).

7-jadval

**Hayvonlarning 1 mm<sup>3</sup> qonidagi leykotsitlar soni** (ming hisobida)

| Hayvon turi | Leykotsitlarning o'rtacha miqdori | O'zgarish chegarasi |
|-------------|-----------------------------------|---------------------|
| Ot          | 9,0                               | 7,0–12,0            |
| Qoramol     | 7,0                               | 4,5–12              |
| Qo'y        | 8,0                               | 6,0–14,0            |
| Echki       | 12,0                              | 8,0–17,0            |
| Cho'chqa    | 12,0                              | 8,0–16,0            |
| It          | 9,5                               | 8,5–10,5            |
| Quyon       | 8,0                               | 6,5–9,5             |
| Towuq       | 30,0                              | 20,0–40,0           |
| O'rdaq      | 25,0                              | 20,0–30,0           |
| G'oz        | 25,0                              | 20,0–30,0           |

Bularidan tashqari, leykotsitlar soni hayvonlarning yoshi, jinsi, organizmning holati, yilning fasli va boshqa omillarga qarab o'zgarib turadi. Shuning uchun leykotsitlar sonini sanash va ularning qondagi miqdorini aniqlash katta amaliy ahamiyatiga ega.

Leykotsitlarni sanash uchun qon olib uni melanjerda aralashtilradi. Kapillar bilan ampula o'rtaсидаги nisbat leykotsitlar melanjerdada. Kapillar bilan ampula o'rtaсидаги nisbat leykotsitlar melanjerdada. Leykotsitlarni sanash usulida keltirilgan.

*Ishni bajarish tartibi.* Ishni bajarish tartibi qonning shaklli elementlarini sanash usulida keltirilgan. Leykotsitlar 100 ta katta (kichik katakchalarga bo'limmagan) katakchalarda yoki har qaysisi 16 tadan kichik katakchalarga bo'lingan 25 ta katta katakchalarda sanaladi. Sanoq tugagandan keyin quyidagi formulaga muvofiq 1 mm<sup>3</sup> qondagi leykotsitlar soni aniqlanadi:

$$x = (A \cdot 4000 \cdot B) : 400 / 1600 \text{ yoki } x = A \cdot 50,$$

bu yerda:  $x$  — 1 mm<sup>3</sup> qondagi aniqlanadigan leykotsitlar soni;  
 $A$  — 400 / 1600 kichik katakchalarda sanalgan leykotsitlar soni;  
 $B$  — suyultirish darajasi; 1 / 4000 mm<sup>3</sup> — bitta kichik katakchaning hajmi (20x20x10).

Leykotsitlarning organizmdagi asosiy vazifalari:  
 1) fagotsitoz, ya'ni yot moddalarini, agentlarni yeb yemirish;  
 2) antitelalar ishlab chiqarish;  
 3) oqsil tabiatli toksinlarni parchalash va chiqarib tashlash.

Oq qon hujayralari organizmda bo'lib turadigan fiziologik hayvonlarning o'zgarishiga juda sezgir hujayralardir. Shuning uchun hum leykotsitlarning soni organizmning turli holatlarda tez o'zgarib turadi. Organizmda leykotsitlar miqdorining ko'payishi *leykotsitoz*, kumayishi esa *leykopeniya* deylildi. Leykotsitoz hodisasi organizm fiziologik holatlarining turli xildagi o'zgarishlari natijasida va turli kasalliklar paytida kuzatiladi. Massalan, yosh hayvonlarda hayvon oziqlangandan keyin, jismoni ishdan so'ng ular qonida leykotsitlar miqdori ko'payadi, shuningdek, haywonning bo'g'ozlik divrida ham leykotsitoz kuzatiladi va hokazo. Bular fiziologik leykotsitozlardir. Chunki bu paytlarda kuzatiladigan leykotsitoz vugtinchalik holat bo'lib, organizm uchun tabiiy, me'yoriy hodisadir. Biroq, bir qancha patologik jarayonlarda, xususan, organizmdagi yallig'lanish bilan kechadigan kasalliklarda patologik jarayonga qarshi javob reaksiya tarzida qonda leykotsitlar soni ko'payib ketishi ham ma'lum.

Oningan natijani normativga solishtirib, xulosa qilinadi.



## NAZORAT SAVOLLARI

1. Leykotsitlarning tuzilishi, vazifikasi, ahamiyatini aytинг.
2. Leykotsitlar sonini sanash tartibini tushuntirning.
3. 1 mm<sup>3</sup> qondagi leykotsitlar soni qanday aniqlanadi?
4. Leykotsitlarni sanash uchun qon necha marta va qanday eritma bilan suyultiriladi?
5. Leykotsitoz, leykopenyia, fagotistoz nima?

## 6-dars. QON SURTMASINI TAYYORLASH

**Darsning maqsadi:** donali va donasiz leykotsitlar haqidu tushunchaga ega bo'lish; qon surtmasini tayyorlash texnikasini o'rganish va uning amaliy ahamiyatini bilish.

**Dars uchun kerakli hayvonlar, jihozlar va reaktivlar:** qishloq xo'jalik va laboratoriya hayvonlari, buyum oynachasi, qoplagich oyna, qora qalam, igna, paxta, doka; metil yoki etil spiriti, efir, 5 % li yod eritmasi, Azur-eozin bo'yog'i.

Hayvon organizmining fiziologik holatini baholashda faqat leykotsitlar sonini sanash muhim ahamiyatga ega bo'lib qolmasdan, balki oq qon hujayralari ayrim shakllarining foiz nisbatini — leykotsitar formulani aniqlash ham muhimdir.

Qondagi leykotsitlar protoplazmasida donachalarning bo'lishi bo'imasligiga qarab ikkita katta guruhga bo'linadi:

1. Granulotsitlar – donali leykotsitlar.
2. Agranulotsitlar – donasiz leykotsitlar.

Donali leykotsitlar – granulotsitlar bo'yalishiga qarab, uch guruhga bo'linadi:

*Bazofillar* ishqorli bo'yoqlar bilan bo'yaladi va qondagi leykotsitlarning 0–7 % ni tashkil etadi. Bazofillarning protoplazmasida qora domachalar bo'lib, bu donachalarda qonning ivishiga to'sqinlik qiluvchi antikoagulant – heparin moddasi ishlab chiqariadi. Bu modda yallig'langan to'qimada tuzalish, so'rilish, bitish jarayoniga yordam beradi.

*Eozinofillar* kislotali bo'yoqlar bilan bo'yaladi va leykotsitlarning 2–12 % ni tashkil qiladi. Eozinofillar protoplazmasi yirik qizg'ish donachalarni saqlaydi va ular organizmga tushgan oqsil tabiatli toksinlarni neytrallash vazifasini bajaradi.

*Neytrophillar* ham kislotali, ham ishqorli bo'yoqlar bilan bo'yaladi va leykotsitlarning 18–60 % ni tashkil qiladi. Neytrophillar limfotsitoz qilish xususiyatiga egadir.

- Neytrophillar Yoshiga qarab o'z navbatida 4 guruhga bo'linadi:
- a) miyelotsitlar;
  - b) yosh neytrophillar;
  - c) tayqcha yadroli neytrophillar;
  - e) bo'g'im yadroli neytrophillar.
- Donasiz leykotsitlar – agronulotsitlar ham o'z navbatida ikki muruhga bo'linadi:

*Limfotsitlar* yadrosi bilan protoplazmasi o'rtaida peremukleap, vi'ni bo'yalmaydigan qismining borligi bilan ifodalanadi va leykotsitlarning 20–65 % ni tashkil etadi. Limfotsitlar antitelalar shub chiqishda va immunitet hosil bo'lishida katta rol o'yaydi.

*Monotsitlar* yadrosi har xil tuzilishga ega bo'lgan eng yirik hujayralar bo'lib, leykotsitlarning 1–7 % ni tashkil etadi. Monotsitlar regeneratsiya, ya'ni tiklanish jarayonlarida katta ahamiyatga ega edir.

## Qon surtmasini tayyorlash


Qon surtmasini tayyorlash uchun avalo siliq, yuzasi tekis, vishilib yog'sizlantirilgan va niroyatda toza buyum oynachalarini limlab olish kerak.

Tekshirilayotgan hayvonning quloq venasiga tozalikka rioya qilgan holatda igna sanchilib, qon chiqarilib, bir tomchisi chap qolning bosh va o'rta batmoqlari bilan qisqa qirralardan ushlangan buyum oynachasining bir chetiga tomiziladi. O'ng qo'lining bosh tomchisi bor buyum oynasi ustiga 45° burchak ostida qo'yiladi. Durhol qoplagich oynaning siliq chekkasi bilan tomizilgan qon hit tejis qilib surtiladi va uy haroratida quritiladi (29-rasm).


So'ngra oddiy qora qalam bilan surtmaning bir chetiga hayvonning turi, yoshi, inventar raqami, qon olingan kun, oy va yil yoziladi. Keyin spiritga solib (metil spiritida 5 daqiqa yoki etil spirit va efirda 20 daqiqa) fiksatsiya qilinadi. Spiritdan chiqarilib, uy haroratida quritiladi. Tayyorlangan surtna yetaricha uzun, yupqa, hit xil qalnlidka bo'lishi, ochiq va bo'sh qolgan joylari bo'imasligi kelin. So'ngra Azur-eozin bo'yog'i bilan Gimza-Romanovskiy usuli hujayra 20–30 daqiqa davomida bo'yaladi. Bo'yoq distillangan

## 7-dars. LEYKOTSITAR FORMULANI ANIQLASH

**Darsning maqsadi:** qon surtmasida leykotsit turlarini farqlash, leykoformulani aniqlash va uning amaliyotdagi ahamiyatini o'rganish.



**Dars uchun kerakli jihozlar va reaktivlar:** hayvonlar qonidan tuyorlangan qon surtmalar, immersiya moyi, mikroskoplar va leykoformula jadvali.



29-rasm. Qon surtmasini tayyorlash tartibi (**A**) va qon surtmasidan namunalar (**B**):

1—yaxshi yog'sizlantirilmagan oynada tayyorlangani; 2—kalta notejis,

3—notejis chiqqani; 4—qalimi; 5—to'g'ri tayyorlangani.

suv bilan asta-sekin yuviladi va uy haroratida quritiladi. Natijada qon surtmasi tayyor bo'ladi (2-rangli rasm).

To'g'ri bo'yagan surtma binafsha tusli pushti rangda bo'llishi kerak. Surtmaning qizil rangga bo'yalishi kislotaning ko'payib ketganini ko'rsatsa, kulrang tusda bo'llishi ishqor ko'pligini ko'rsatadi.

Tayyor bo'lgan surtmalar mikroskop ostida ko'zdan kechiriladi.



### Nazorat savollari

- Qon surtmasi qanday tayyorlanadi?
- Qon surtmasini tayyorlasida qanday bo'yollar ishlataladi?
- Qon surtmasini fiksatsiya qilish usulini tushuntiring.
- Leykotsitarning qanday turlarini bilasiz?
- Eozinofillar, bazofil, netyrofillar, limfositlar, monositlarni farqlab berling.

| Hayvon turi | Bazofil | Eozinofil | Netyrofillar |          |         | Limfosit | Monosit |
|-------------|---------|-----------|--------------|----------|---------|----------|---------|
|             |         |           | Yosh         | Tayyocha | Segment |          |         |
| Ot          | 0,1–1,2 | 2,6–6,2   | —            | 0,9–1,5  | 40–55   | 30–51    | 0,1–4   |
| Qoramol     | 0–1,5   | 3–10      | —            | 3–10     | 10–30   | 40–77    | 4–10    |
| Tuya        | 0–1,2   | 1,5–10,5  | —            | 8–17     | 29–47   | 31–49    | 1,5–4,5 |
| Qo'y        | 0–0,8   | 2–8       | —            | 0,4–2    | 27–41   | 43–68    | 4–5,8   |
| Echki       | 0–2     | 2–7       | —            | 0,5–4    | 29–57   | 32–68    | 2,5–6   |
| Cho'chqa    | 0–2,4   | 0–6,0     | 0,4–2,0      | 1–7      | 18–60   | 29–65    | 0–4,2   |
| It          | 0,4–1,6 | 0–9       | —            | —        | 45–75   | 10–40    | 4–10    |
| Quyon       | 1–8     | 0,5–1,2   | 0,5          | 0,5–4,2  | 14–47   | 39–83    | 1,1–5   |
| Tovuq       | 1,5–5   | 4–26,5    | —            | 1,0      | 14–33   | 34–82    | 3–9,5   |

8-jadval

Leykotsitar formula tayyorlangan qon surtmasidagi leykoformulani farqlab, sanash yo'li bilan aniqlanadi (3-rangli rasm).

### Leykotsitar formula

**Leykotsitar formula** (leykogramma) deb, qondagi leykotsit turlarining bir-biriga foiz hisobidagi nisbatiga aytildi.

Qondagi leykotsit turlarining miqdori hayvonnинг yoshi, zoti, linsi, konstitutsiyasi va boshqa omillarga qarab o'zgarib turadi. Shuning uchun leykotsitar formulani aniqlash veterinariya amaliyotida katta ahamiyatga ega. Leykotsitar formulani aniqlashda quyidagi jadvalda berilgan donali va donasiz leykotsit turlarining me'yorig ko'rsatkichlarini bilish va ularni aniqlangan leykotsit turlari bilan taqoslab, tahil qilib, xulosa chiqarish maqsadga muvofiqdir (8-jadval).


Leykotsitar formula tayyorlangan qon surtmasidagi leykoformulani farqlab, sanash yo'li bilan aniqlanadi (3-rangli rasm).

## Leykotsitar formulani aniqlash

Leykotsitar formulani aniqlash uchun tayyorlangan qon surmasining bir chetiga immersiya moyidan tomiziladi va mikroskopning ×90 obyektivi ostida leykotsitlarning har xil turlaridan 100 yoki 200 tasi sanaladi.

Leykotsitlarni tez va to'g'ri sanashning muhim sharti tanlangan usulga qat'iy amal qilishdir. Leykotsit turlari quyidagi usullar bilan sanaladi:

1. To'rt maydon usuli (30-rasm).
2. Filipchenko usuli.
3. Surtmaning o'rtaidan sanash usuli.



30-rasm. Leykotsitlarni sanashning to'rt maydon usuli.


*To'rt maydon usulida* leykotsit turlari surtmananing to'rt qismidan: bir-biriga qarama-qarshi turgan yuqori qismidan ikki maydonda va pastki qismidan ikki maydonda sanaladi. Har bir maydonda 25 tadan yoki 50 tadan, jami 100 yoki 200 ta leykotsit turlaridan sanab chiqiladi.

*Filipchenko usulida* qon surtmasi uchga: boshlang'ich, o'rta va oxirgi qismalarga bo'linadi. Surtmaning boshlang'ich qismidan 35 yoki 70 ta, o'rta qismidan ham 35 yoki 70 ta, oxirgi qismidan esa 30 yoki 60 tadan, jami 100 yoki 200 ta leykotsit turlaridan sanab chiqiladi.

*Surtmaning o'rtaidan sanash usuli* qulay bo'lib, unda leykotsit turlari qon surtmasining o'rtaidan ko'ndalangiga qarab sanab boriladi. Bu usulda ham 100 yoki 200 ta leykotsit turlaridan sanaladi. Barcha usullarda sanash «П» harfi shaklida, konvert usulida olib boriladi.

Leykotsitar formulada 100 ta hujayra sanalgan bo'lsa, har bir horizontal qatorning yig'indini 2 ga bo'lish yo'lli bilan foiz nisbati aniqlanadi.

Leykotsit turlarini maxsus hisoblash asboblari (mashinalari)da sanab chiqish mumkin (31-rasm). Bunday mashina sanalgan leykotsit turlarini bir vaqtida jamlab boradi va kerakli ma'lumotlarni beradi. Hisoblash mashinasi oddiy tuzilgan: 11 ta tugma-chasing uchtasida raqamlar, 8 tasida leykotsit turlarining bosh harflari yozilgan bo'lib, ishlashtirish jarayonini o'rganib olish qiyinchilik tug'dirmaydi.



31-rasm. Leykotsit turlarini hisoblash mashinasi.

Tugmachalar ustidagi ko'rish oynasida tugmachalar bosilganda uqamlar paydo bo'lib, surtmada aniqlangan hujayralar soni ko'rinadi. O'ng tomonida umumiyligi sanalgan leykotsitlar miqdori ko'rinib, 100 ta leykotsit turlari sanalganida sanashni to'xtatish uchun signal beradi. Juda yuqori aniqlik kerak bo'lganida 200 ta yoki har bir maydondan 50 tadan leykotsit sanaladi. Sanab bo'lgandan keyin umumiy leykotsit turi ikkiga bo'linadi va 100 ta sanalgan har bir leykotsit turlarining soni aniq bo'ladi. Olingan natijalarni tahlil qilinib, xulosa chiqariladi.

## NAZORAT SAVOLLARI



1. Leykoformula deb nimaga aytildi?
2. Leykoformula qanday aniqlanadi?
3. Leykotsitlar qanday usullar yordamida aniqlanadi?
4. Leykoformulani hisoblovchi mashina qanday ishlaysdi?
5. Leykoformulani aniqlashning veterinariya amaliyotidagi ahamiyatini aytинг.

**Darsning maqsadi:** gemoglobinning tarkibi, tuzilishi, ahamiyatini bilish va qondagi miqdorini Sali gemometrida aniqlashni, gemin kristallarini hosil qilish jarayonini o'rganish.

**Dars uchun kerakli hayvonlar, jihozlar va reaktivlar:** qishloq xo'jalik va laboratoriya hayvonlari, ularning qoni, qaychi, paxta, qon olish uchun igna, qon olish uchun gemometrning 0,02 ml li pipetkasi, ko'z pipetkasi, qoplagich va buyum oynachasi, shisha tayoqcha, Sali gemometri, mikroskop, spirt, 5% li yod eritmasi, detsinormal (0,1 n) HCl, distillangan suv, spirt chirog'i, osh tuzining kristallari, kanad balzami, muz-sirka kislotasi.

Gemoglobin murakkab tuzilgan oqsil-xromoproteiddir. Molekula og'irligi 70000 ga teng. Eritrotsitlarning kislorodni o'ziga biriktritib tashish xususiyati ularning tarkibidagi gemoglobin moddasiga bog'liq.

Gemoglobinning tarkibiga 96 % globin oqsil va shu oqsil bilan gistidin bog' orqali bog'langan 4 molekula gem (rangli modda – pigment) kiradi. Turli hayvonlar gemoglobininining tarkibidagi globin oqsilming aminokislotalar tarkbi turlicha bo'ladi. Shuning uchun ham turli hayvonlarning gemoglobini o'zaro farq qiladi. Gemoglobinning faol (prostatik) guruhi – gem barcha hayvonlar uchun asosan bir xildir. Gem ikki valentli temir atomi bilan birikkan to'rtta pirrol halqadan tashkil topgan. Bu halqlarning ikkitasi kislotali, ikkitasi ishqoriy xususiyatga ega. Gemdagi temir atomi gemni globin bilan biriktridi.

Fiziologik gemoglobinning uch xili farq qilinadi:

- 1) birlamchi embrional gemoglobin – HbP;
- 2) fetal gemoglobin – HbF;
- 3) katta hayvonlar gemoglobin – HbA.

Birlamchi embrional gemoglobin organizmning embrional taraqqiyoti davrida, sariq xaltada qon hosil bo'lish davrida, fetal gemoglobin embrionning jigarida qon hosil bo'lish davrida vujudga keladi. Katta yoshdagagi hayvonlarda gemoglobin ko'mikda qon ishlab chiqarila boshlangandan keyin hosil bo'la boshlaydi. Fetal gemoglobin katta hayvonlar gemoglobininiga qaraganda kislorod bilan yaxshi birikadi.

Gemoglobin organizmida O<sub>2</sub> bilan birikib, oksigemoglobin hosil oladi ( $Hb+O_2=HbO_2$ ). Bu jarayon o'pkada yuz beradi. Gemoglobinning to'qima kapillarlarda CO<sub>2</sub> ni biriktirib hosil qilgan birikmasi karbogemoglobin deyiladi ( $Hb+CO_2=HbCO_2$ ). Gemoglobinning is gazi (CO) bilan hosil qilgan birikmasi karboksigemoglobin deyilib ( $Hb+CO=HbCO$ ), bu birikma organizm uchun juda xavflidir. Hayvon nafas olayotgan havoda is gazi 0,07 % gacha bo'lsa, hayvon qonining tarkibidagi gemoglobinning 0,0 % ga yaqini is gazi bilan birikadi. Bu birikma ancha turg'un bo'lib, oksigemoglobinga qaraganda juda sekin parchalanadi. Shu sababli gemoglobin is gazi bilan birikkandan keyin kislorod bilan birika olmaydi. Natijada organizm to'qimalari kislorodga yolchimay qolib, haywon halok bo'lishi mumkin. Gemoglobinning kislorod bilan birikib hosil qilgan oksigemoglobinga qaraganda ancha turg'un bo'ladigan birikmasi metgemoglobin deyiladi ( $Hb+O=HbO$ ).

Metgemoglobinning (Met Hb) hosil bo'lishi organizmning fenatsetin, antipirin, amilnitrit, sulfanilamid kabi dorivor moddalari bilan zaharlanishi oqibatida yuz beradi. Bu moddalar kuchli oksidlovchi moddalar hisoblanib, kislorodni gemoglobin bilan biriktritib, gemoglobin tarkibidagi ikki valentli temir oksidanib, uch valentli temirga aylanishidan hosil bo'ladi. Metgemoglobin turg'un birikma bo'lib, u to'qima kapillarlarda parchalamaydi. Oqibatda qonda metgemoglobin miqdori haddan tashqari ko'payib ketishidan hujayra va to'qimalar yetarlichcha kislorod yetishmasligi ro'y berib, olmaydi va organizmda anoksiya – kislorod yetishmasligi ro'y berib, organizm halok bo'ladi. Metgemoglobin hosil bo'lib ko'payib ketganda organizmga metil ko'ki eritmasini yuborib davolash mumkin.

Muskullarda gemoglobinning mioglobini deb ataluvchi xili bor. Uning prostetik guruhi – gem gemoglobin tarkibidagi shunday guruha o'xshaydi. Oqsil qismi – globin gemoglobin globiniga quraganda pastroq molekular og'irlikka ega. Odam mioglobini organizmdagi jami kislorodning 14 % ni biriktira oladi. U faol ishlayotgan muskul, suvga sho'ng'uvchi hayvonlar muskulining kislorod bilan ta'minlanishiда katta ahamiyatga ega, shuning uchun ham bu modda otarning muskulida, ayniqsa, akiasi suv hayvonlarning muskulida ko'proq bo'ladi.


**Hayvonlarning 100 ml qoniidagi gemoglobin miqdori**

| Hayvon turi | Gemoglobin miqdori, g |
|-------------|-----------------------|
| Ot          | 11,0 (8–15)           |
| Qoramol     | 12,0 (9–14)           |
| Tuya        | 15,2                  |
| Qo'y        | 12,5 (9–14)           |
| Echki       | 10,6 (7–14)           |
| Cho'chqa    | 12,0 (10–14)          |
| It          | 13,6                  |
| Quyon       | 11,7                  |
| Tovuq       | 11,0 (8–12)           |
| G'oz        | 16,1                  |

**1-ish. Gemoglobin miqdorini aniqlash**

Qondagi gemoglobin miqdori Sali gemometri (32-rasm) yordamida kalorimetrik yo'l (tekshiriladigan qon eritmasining rangini standart eritma rangiga solishtirib ko'rish) bilan aniqlanadi.

Sali gemometri shatav, uning orqa tomonida xiralaشتirilgan oyna o'rnatalgan va unda joylashtirilgan uchta probirkadan iborat. Gemometrining ikki tomonida gemoglobinning 16,67 % li standart eritmasi – gematin sulfat kislotasi to'ldirib payvandlab qo'yilgan probirkalar mahkamlab joylashtirilgan. O'rtađagi bo'sh probirka ikki xil daramaga bo'lingan. Birinchi daraja 100 g qondagi gemoglobinning gramm hisobini, ikkinchisi esa gemoglobinning normaga nisbatan (100 ml qonda 16,67 g miqdorda bo'lib, 100 % ni tashkil qiladi) foiz hisobidagi miqdorini

**32-rasm. Sali gemometri:**

1—asbobining tanasi;  
2—standart eritma; 3—raqamli probirka; 4—qon olish uchun naycha; 5—gram % ni aniqlash uchun shkala.

bo'rsutadi. 1 dan 23 gacha shkalalarga bo'lingan bu probirka

gemoglobin miqdorini aniqlash uchun xizmat qiladi.

Gemometrdagi bo'sh probirkaning eng pastki (2) belgisigacha 0,1 n HCl eritmasidan solinadi.

Hayvondan qon chiqarilib, pipetkaga 0,02 ml qon olib, tezda probirkadagi 0,1 n HCl eritmasining ustiga quyiladi va shisha tayyoqcha bilan aralashtiriladi. Kislototashishda eritrositlar parchalib, uning tarkibidagi gemoglobin ajraladi va xlorid kislotasi bilan aralashib, to'q qo'ng'ir rangli eritma hosil qiladi.

Ana shu aralashma ustiga 3—5 daqiqadan so'ng pipetka yordamdu distillangan suvdan tomchilab qo'shib, shisha tayyoqcha bilan malushtiriladi. Bu holat qon eritmasining rangi standart eritmalar ningiga tenglashguncha davom ettiladi.


Probirkaning shkalasiga qarab, 100 ml qondagi gemoglobin miqdori aniqlanadi. Massalan: 100 g qonda 16,67 g gemoglobin bo'lsa, probirkadagi aralashmada 80 ni ko'rsatsa, unda tekshiyotgan hayvon qoniidagi gemoglobin miqdori:

$$100 - 16,67 \\ 80 - x \\ x = (80 \cdot 16,67) : 100 = 12,8 \text{ g ga teng bo'radi.}$$

**Olingan natija tahlil qilinib, xulosa chiqariladi.****2-ish. Gemin kristallarini aniqlash**

Xlorid kislotasi ta'sirida gemoglobin globin oqsili va oqsilsiz qilib uchun buyum shishasi ustiga bir tomchi qon va kanad balzami to'mizilib, igna yoki shisha tayyoqcha bilan ularni aralashtiriladi va qoplagich shisha bilan yopiladi. 10 daqiqadan keyin preparatlar mikroskopning katta obyekktivi tagida kuza tilidi. Preparatda qizil gilos rangidagi gemoglobin kristallari ko'rinishi va uni daftarga chizib olinadi.

Gemin kristallarini hosil qilish uchun bir tomchi qoni buyum

**33-rasm. Gemin kristallari:**

1—cho'chqada; 2—itda;  
3—dengiz cho'chqasida; 4—otda.

shishasi ustiga tomizib, bir tekis qilib surkab chiqiladi. Spirit chiroq<sup>1</sup> yoqilib, uning alangasi ustidan qon surkalgan buyum shishasi u-bu tomonga yengil harakatlantirilib, qon quritiladi. Keyin quritilgan qonning ustiga bir necha dona osh tuzi kristallarini qo'yib, 2 tomchi muz-sinka kislotosi tomiziladi, aralashdiriladi, qoplagich shisha bilan yopiladi. Keyinchalik preparatni yana alanga ustida sirkə kislotosimng hidi yo'qolguniga qadar isitiladi. Isitib bo'gandan keyin qoplagich shisha tagidagi preparatga yana 1–2 tomchi sirkə kislotosi tomizib, mikroskop katta obyektivi ostida unda hosil bo'lgan gemin kristallari kuzatiladi (3-rasm). Gemin kristallari to'q qo'ng'ir rangli rombsimon bo'lakchaga o'xhash shaklda bo'ladı. Bo'lakchalar qo'shma yoki alohida yulduzsimon shaklda joylashadi.

### 3-ish. Qon gemoglobinni gemoglobinsianid usulida aniqlash (asetonsiangidrin bilan)

*Ishing mohiyati.* Gemoglobin kaliy ferrorodanit bilan oksidlanib metgemoglobin (gemoglobin)ga aylanadi va u asetonsiangidrin bilan rang intensivligi gemoglobin miqdoriga proporsional bo'lgan rangli gemoglobinsianid hosil qiladi.

*Reaktivlar.* 1. Transformatsiyalovchi eritma: asetonsiangidrindan 0,5 ml, kaliy ferrorodanitdan (qizil qon tuzidan) 200 mg, natriy karbonatdan 1 g dan olinadi va distillangan suvda eritilib, hajmi 1 litrgacha yetkaziladi. Bu eritma qora rangli shisha idishda xona harorati tida bir necha oy davomida saqlanishi mumkin. Cho'kma hosil bo'lganda yoki rangi o'zgarganda eritma ishlattishga yaroqsiz hisoblanadi.

2. Gemoglobinsianidning kalibrlovchi eritmasi. Kalibrlovchi eritma sifatida gemoglobinsianidning xalqaro etalon eritmasiga mos keladigan eritmasi ishlatiadi. Gemoglobinsianidning «Reagent» zavodi va «Reanal» firmasi ishlab chiqargan standart eritmasidagi konseentratsiyasi 59,75 mg%, «Imuna» firmasimida – 62,23 mg%.

Gemoglobinsianidning bu miqdori 251 marta suyultirilganida qondagi gemoglobinning 15 g % ga va 15,4 g % ga to'g'ri keladi. Standart eritmalar sovitgichlarda +4°C haroratda saqlanadi (muzlab qolmasligi kerak) va suyultirilmasdan ishlatiadi.

3. Maxsus jihozlar. Fotoelektrokolorimet; 0,02 ml li pipetka yoki Sali gemometri kapilarlari, 1 litr hajmli o'chov kolbasi.

*Ish taribi.* *Sinov tajribasi.* Probirkaga o'zgartiruvchi eritmadan 5 ml va 0,02 ml (251 marta suyultirilgan) qon solib yaxshilab aralashdiriladi va 10 daqiqa qoldirilib, keyin fotoelektrokolori-

metning 500–560 mm (yashil yorug'lik filtr) to'linin uzunligida em quoliblikka ega bo'lgan kvvetlarda o'lchanadi. Solishtirish uchun quritiruvchi eritma olinadi. Standart eritma ham sinov tajribasidagi labi o'lchanadi. Gemoglobin miqdori quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$Hb \text{ g\%} = \frac{Est}{Ese} C \cdot K \cdot 0,001,$$

bu yerda: *Est* – sinov tajriba ekstinksiyasi; *Ese* – standart eritma konsentratsiyasi; *C* – gemoglobinsianidning standart eritmadaagi konsentratsiyasi, mg%; hisobida; *K* – sinov tajriba qonining suyultirish koefitsiyenti; 0,001 – gemoglobin miqdorini mg% dan g% ga o'tkazish koefitsiyenti.

Gemoglobinning standart eritmasini suyultirilmashdan kolorimetrlanadi. Gemoglobinsianidning standart eritmadaagi konsentratsiyasi 59,75 mg% ga teng bo'lganida 251 marta suyultirilgan qondagi gemoglobin konsentratsiyasining 15 g% ga to'g'ri keladi. Shunday qilib, gemoglobin miqdorini quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$Hb \text{ g\%} = \frac{Est}{Ese} \cdot 15$$

*Klinik ahamiyati.* Gemoglobin miqdorining kamayishi temir, miks, kobalt, vitamin B<sub>12</sub>, folat kislotosi, oqsillar va boshqalar yetishmovchiligidan kelib chiqadigan anemiyalarda, surunkali intoksikatsiyalarda, gepatit, hepatoz, ketoz, oshqozon-ichak kanali fiolyati buzilishida, infekzion va invazion kasalliklarda va boshqa kasalliklarda kuzatiladi. 10-jadvalda katta yoshdagi hayvonlar qonida gemoglobinning me'yoriy miqdori keltirilgan.

10-jadval

#### Hayvonlar qonida gemoglobinning me'yoriy miqdori

| Hayvon turi            | Gemoglobin, g/l |
|------------------------|-----------------|
| Yirik shoxli hayvonlar | 90–120          |
| Ot                     | 80–130          |
| Qoy                    | 70–110          |
| Cho'chqa               | 90–110          |
| Tovuq                  | 80–130          |



## NAZORAT SAVOLLARI

1. Gemoglobinning tuzilishi, vazifasi, ahamiyatini tushuntirin.
2. Gemoglobin miqdori qanday va qaysi asbobda aniqlanadi?
3. Fiziologik gemoglobinning qanday turlarini bilasiz?
4. Gemin kristallarini hosil qilish va uning amaly ahamiyatini aytin.
5. Oksigemoglobin, karbogemoglobin, karboksigemoglobin va metgemoglobin nima?

### 9-dars. ERITROTSITLARNING CHO'KISH TEZLIGINI ANIQLASH

**Darsning maqsadi:** eritrotsitlarning cho'kish tezligi (ECHT)ni keltirib chiqaruvchi sabablar va ularning ahamiyatini bilish. ECHT ni Panchenkov asbobi va Nevodov eritrosedometrida aniqlashni o'rganish.

**Dars uchun kerakli hayvonlar, jihozlar va reaktivlar:** qishloq xo'jalik va laboratoriya hayvonari, qaychi, paxta, qon olish uchun igna, Panchenkov asbobi, Nevodov probirkasi, spirt, 5 % li yod eritmasi, soat oynachasi, 5 % li limon kislotosining natruiy tuzi eritmasi.

Stabillashtirilgan, ya'ni antikoagulantlar qo'shiigan qonni biror idishga solib tik turg'izib qo'yilsa, u ivimaganligi uchun unda eritrotsitlarning cho'kishi kuzatiladi. Eritrotsitlarning cho'kish tezligi, asosan, quyidagi larga bog'liq:  
a) eritrotsitlarning solishtirma og'irligiga. Qomming solishtirma og'irigi 1,050–1,060. Plazmaning solishtirma og'irigi 1,025–1,030, eritrotsitlarning solishtirma og'irigi 1,085–1,090 ga teng;  
b) eritrotsitlarning agglutinatsiyaga uchrashiga, bunda plaza madagi oqsil va kalsiy ionlari tik turgan idish ichidagi ivimagan qondagi eritrotsitlar zaryadini o'zgartiradi va ularning bir-biriga yopishishiga olib keladi. Natijada eritrotsitlarning solishtirma og'irigi yanada oshadi va cho'kish tezlashadi.

ECHT quyidagi omillar ta'sirida sekinlashadi:

1. Qonda karbonat angidrid ko'payganda.
2. Qonda albuminlar ko'payganda.
3. Qonda eritrotsitlar ko'payganda.
4. Qomming yopishhqoqligi oshganda.

Burcha hayvonlar eritrotsitlarining cho'kish tezligiga qarab ikki nishunga bo'linadi:

1. Eritrotsitlari tez cho'kadigan hayvonlar (ot, eshak, cho'chqa).
2. Eritrotsitlari sekin cho'kadigan hayvonlar (quyon va kavsh qaytaruvchilar).

ECHT ni aniqlash organizm holatini bilish uchun katta ahamiyutga ega (11-jadval).

11-jadval

#### Hayvonlar qonidagi ECHT

| Vaqt,<br>dnq'lqa | Eritrotsitlarning cho'kish tezligi, mm |         |      |          |     | Quyon |
|------------------|--|---------|------|----------|-----|-------|
|                  | Ot                                     | Qoramol | Qo'y | Cho'chqa | It  |       |
| 15               | 38                                     | 0,1     | 0,2  | 3        | 0,2 | —     |
| 30               | 49                                     | 0,25    | 0,4  | 8        | 0,9 | 0,3   |
| 45               | 60                                     | 0,4     | 0,6  | 20       | 1,7 | 0,9   |
| 60               | 64                                     | 0,58    | 0,8  | 30       | 2,5 | 1,5   |

Eritrotsitlari tez cho'kadigan hayvonlarda ECHT Nevodov eritrosedometrida (probirkasida), eritrotsitlari sekin cho'kadigan hayvonlarda esa Panchenkov asbobida aniqlanadi (34-rasm).

#### ECHTni Panchenkov asbobida aniqlash


Panchenkov asbobi shtativ va unga o'rnatilgan pipetkalardan borut. Pipetkalarning har biri 0 dan 100 gacha shkalalarga bo'lgan. Pipetkaning 0 belgisi yoniga «K» (кровь—қон), 50 belgisi yoniga «P» (реактив—еритма) deb yozilgan.

##### *Ish taribi:*

1. Tekshirilayotgan hayvon qon olish uchun tayyorlanadi va quloiq venasidan qon chiqariladi.
2. Panchenkov asbobining pipetkasi 5 % li limon kislotosining natruiy tuzi eritmasi bilan chayqaladi va pipetkaning «P» (50)
3. Qonda eritrotsitlar kamayganda.
4. Qomming yopishhqoqligi pasayganda.

## ? - NAZORAT SAVOLLARI

- Eritrotsitlar qanday hollarda cho'kadi?
- Turli hayvonlarning ECHTni ayting.
- ECHTni tezlashtiruvchi omillarni ayting.
- ECHTni sekillashtiruvchi omillarni tushuntiring.
- Tajribada ECHTni qanday asboblarda aniqlanadi?



### 10-dars. GEMOLIZ. ERITROTSITLARNING OSMOTIK REZISTENTLIGINI (CHIDAMILILIGINI) ANIQLASH

**Darsning maqsadi:** gemoliz va uning turlari, eritrotsitlarning nuksimal va minimal rezistentligi haqida tushunchaga ega bo'lish hamda ularni aniqlashni o'rganish.

**Dars uchun kerakli hayvonlar, jihozlar va reaktivlar:** qishloq ko'jalik va laboratoriya hayvonlari, qon olish uchun igna, paxta, centrifuga,pipetkalar, probirkalar, spirit, 5 % li yod eritmasi, 0,1, 0,3, 0,5, 0,7, 0,9 % li osh tuzi eritmalar.

Eritrotsitlar sirtidan oqsil lipoidli po'stloq bilan qoplangan. Bu po'stloq yarimo'tkazgich xususiyatiga ega bo'lib, moddalarni tonlab o'tkazadi. U glukoza, suv, anionlarni, kationlardan  $H^+$  ni, gazlar va mochevinani o'tkazgani holda, oqsillar, metall kationlarni o'tkazmaydi.

Eritrotsitlarning po'stlog'i ma'lum konsentratsiyaga ega bo'lgan tuz eritmalariga chidamlidir. Eritrotsitlar uchun qulay konsentratsiyaga ega bo'lgan tuz eritmasi osh tuzining 0,85 % li eritmasidir. Shuning uchun ham osh tuzining 0,85 % li eritmasi izotonik yoki

**biologik eritma** deyiladi. Bunday eritmalarda eritrotsitlar to'li-licheha yashay oladi va ulardagi hayotiy jarayonlar ham me'yorida bo'ladi. Eritrotsitlar qon suyuqligi konsentratsiyasining o'zgarishiga chidamli bo'lib, issiq qonli hayvonlar qomining bir tomchisi osh tuzining izotonik eritmasiga to'miziganida eritrotsitlar bilan osh tuzi o'rjasidagi osmotik bosim muvozanati tufayli eritrotsitlarning shakli va hajmi o'zgarmaydi. Agar eritrotsitlar osh tuzining giper-tonik eritmasiga solinsa eritrotsitlar bujmayib, eritrotsit ichidagi suv atrofqa chiqadi. Gipotonik eritmalarida esa atrof suyuqliklardan yorilishiga sabab bo'ladi. Demak, eritrotsitlar eritmaning ma'lum bir konsentratsiyasida yorila boshlar ekan va undan gemoglobin

- Pipetkalar tik saqlanadigan shtativ; *B* – kapillar fiksatsiyalovchi Panchenkov asbobi; *E* – Nevodov eritrosedimetri.
- belgisigacha ana shu eritmadan olib soat oynachasining ustidagi chuqurchaga quylindi.
- Pipetkaning «K» (0) belgisigacha 2 marta qon olib, soat oynachasi chuqurchasidagi eritma ustiga quylindi va eritma bilan yaxshilab aralashtiriladi. Natijada 1:4 nisbatdagi ivimaydigan qon hosil bo'ladi.
- Pipetkaning «K» (0) belgisigacha ana shu ivimaydigan qondan olib, Panchenkov asbobining shtativiga tik qilib o'matiladi va vaqt belgianadi.
- Har 15 daqiqada (15, 30, 45, 60) va 24 soatdan keyin ECHT aniqlanadi.
- Olingan natija tahlil qilinib, xulosa chiqariladi.

**Gipotonik eritmalarini tayyorish**

| Eritmaining nomi       | Probirkalar | 1  | 2  | 3  | 4  | 5  |
|------------------------|-------------|----|----|----|----|----|
| Fiziologik eritma (ml) |             | 1  | 3  | 5  | 7  | 9  |
| Distillangan suv (ml)  |             | 9  | 7  | 5  | 3  | 1  |
| Jumi, ml.              |             | 10 | 10 | 10 | 10 | 10 |

Hosil bo'lgan eritma konsentratsiyasi

0,1 0,3 0,5 0,7 0,9

tashqariga chiqadi—gemoliza uchraydi. Eritrotsitning oqsilipidli po'sti ma'lum darajada ta'sir qilayotgan bosimga, kuchga bardosh bera oladi. Agar ta'sir qilayotgan bosim, kuch po'stning chidamlilik me'yordan oshib ketsa, bu vaqtida u yorilib, eritrotsi parchalanadi va gemoliz yuz beradi.

**Gemoliz** deb, eritrotsitlar po'stning yorilishi va uning ichidan gemoglobinning atrof suyuqliklarga chiqb ketishiga aytiladi. Gemoliz qon tomir ichida ham, organizmdan tashqarida ham yuzaga keladi. Eritrotsitlar plazmaning osmotik bosimi pasayganida, spirt, ishqor, kislota, xloroform va efir ta'siridan parchalanadi, shu bilan birgalikda eritrotsitlarning chidamliliqi ularning yetilgan yoki yetilmaganligiga, shakliga va plazmaning tarkibiga bog'liq.

Gemolizing kelio chiqish sabablariga ko'ra quyidagi xillari farqlanadi:

1. Kimyoiy gemoliz.
2. Fizik gemoliz.
3. Mexanik gemoliz.
4. Biologik gemoliz.
5. Osmotik gemoliz.

Probirkadagi eritma rangiga qarab, toliq va qisman gemolizlar farq qiladi. Odadida turli konsentratsiyali gipotonik eritmalaridan foydalananib eritrotsitlarning maksimal va minimal chidamliliqi aniqlanadi. Konsentratsiyasi izotonik eritma konsentratsiyasiga yaqin bo'lgan gipotonik eritmada gemoliza uchragan eritrotsitlar minimal chidamlilikka ega bo'lgan eritrotsitlar hisoblanadi. Kon-sentratsiyasi izotonik eritma konsentratsiyasidan juda past gipotonik eritmada gemoliza uchragan eritrotsitlar maksimal chidamlilikka ega bo'lgan eritrotsitlardir.

**NAZORAT SAVOLLARI**

1. Gemoliz nima va uning qanday turlari mavjud?
2. Eritrotsitlarning qanday xususiyatlarini bilasiz?
3. Fiziologik, izotonik, gipertonik va gipotonik eritma deb nimaga aytiladi?
4. Maksimal va minimal rezistentlik deb nimaga aytiladi?
5. Eritrotsitlarning osmotik rezistentligi qanday aniqlanadi?

**11-dars. QONNING IVISH TEZLIGINI ANIQLASH**

**Darsning maqsadi:** qonning ivishi, koagulantlar va antikoagulantlar haqida tushunchaga ega bo'lish, qonning ivish tezligini aniqlashni o'rGANISH.

**Dars uchun kerakli hayvonlar va jihozlar:** qishloq xo'jalik va laboratoriya hayvonlari, qon olish uchun igna, spirt, qaychi, buyum oy nachalari, voronkalar, filtr qog'ozlari, probirkalar, suv hammoni, soat.

Eritrotsitlarning chidamliligini aniqlash uchun turli xildagi gipotonik eritmalar quyidagicha tayloranadi (12-jadval).

tashqariga chiqadi—gemoliza uchraydi. Eritrotsitning oqsilipidli po'sti ma'lum darajada ta'sir qilayotgan bosimga, kuchga bardosh bera oladi. Agar ta'sir qilayotgan bosim, kuch po'stning chidamlilik me'yordan oshib ketsa, bu vaqtida u yorilib, eritrotsi parchalanadi va gemoliz yuz beradi.

**Gemoliz** deb, eritrotsitlar po'stning yorilishi va uning ichidan gemoglobinning atrof suyuqliklarga chiqb ketishiga aytiladi. Gemoliz qon tomir ichida ham, organizmdan tashqarida ham yuzaga keladi. Eritrotsitlar plazmaning osmotik bosimi pasayganida, spirt, ishqor, kislota, xloroform va efir ta'siridan parchalanadi, shu bilan birgalikda eritrotsitlarning chidamliliqi ularning yetilgan yoki yetilmaganligiga, shakliga va plazmaning tarkibiga bog'liq.

Gemolizing kelio chiqish sabablariga ko'ra quyidagi xillari farqlanadi:

1. Kimyoiy gemoliz.
2. Fizik gemoliz.
3. Mexanik gemoliz.
4. Biologik gemoliz.
5. Osmotik gemoliz.

Probirkadagi eritma rangiga qarab, toliq va qisman gemolizlar farq qiladi. Odadida turli konsentratsiyali gipotonik eritmalaridan foydalananib eritrotsitlarning maksimal va minimal chidamliliqi aniqlanadi. Konsentratsiyasi izotonik eritma konsentratsiyasiga yaqin bo'lgan gipotonik eritmada gemoliza uchragan eritrotsitlar minimal chidamlilikka ega bo'lgan eritrotsitlar hisoblanadi. Kon-sentratsiyasi izotonik eritma konsentratsiyasidan juda past gipotonik eritmada gemoliza uchragan eritrotsitlar maksimal chidamlilikka ega bo'lgan eritrotsitlardir.

chiqaradigan zanjirli fermentativ reaksiya saqat tomlar, ularning atrofidagi to'qimalar va trombotsitlar shikastlanganidagina boshlanib, qomning ivishiga sabab bo'jadi. Qomning ivishi murakkab fermentativ biokimyoiy jarayon.

Qon ivishini tushuntiradigan nazariya, dastawval, 1872-yil Aleksandr Shmidt tomonidan asoslab berilgan edi. Uning nazariya-siga ko'ra qon ivishi murakkab fermentativ jarayon bo'sib, ikki fazada kechadi va quvidagicha sodir bo'ladi:

*I-faza* trombotsitarning shikastlanishi, parchalanishi oqibatida ulardan trombokinaza fermentining ajaralib chiqishi va bu fermentning  $\text{Ca}^{++}$  ionlari ishtirokida jigarda hosil bo'lib qonga chiqarilgan oqsil modda – inaktiv ferment, ya'ni protrombinga ta'sir etib, uni faol holatdagi trombinga aylantirishi.

*2-faza* trombinning plazma oqsili – fibrinogenga ta'sir etib, uni fibringga aylantirishi. Ipchalar holatida hosil bo'lgan fibrin jaro hatlangan joyda chigallashib, to'r hosil qiladi. Qonning shaklli hujayralari shu to'rda ushlanib qoladi. Oqibatda qon laxtasi hosil bo'ladi. Qon laxtasi siqilib, zinchlashadi va ichidan zardobni siqbchiqarib, musta'kamlanadi va jarohatlangan joyni qattiq po'st bilan mahkam berkitadi.

Qon ivishi to'g'risidagi A. Shmidtning bu nazarivasi mohiyat e'tibori bilan hozir ham tan olinadi. Ammo fanda keyingi yillarda qo'lga kiritilgan ma'lumotlar tufayli qon ivishida boshqa ko'plab moddalar ham ishtirok etishi aniqlandi.

*I-fazada* tromboplastin hosil bo'ldi. Ikki xil tromboplastin farg qilinadi: qon va to'qima tromboplastinlari.

*2-fazada* protrombin trombinga aylanadi. Buning uchun kalsiy ionlari ishtirokida unga tromboplastinlar ta'sir qiladi.

3-fazada trombin plazma oqsili bo'lmish fibrinogenga ta'sir etib, uni fibringa aylantiradi. Bu jarayonda ham kalsiy ionlari va trombotsitlarning qator omillari ishtirok etadi. 3-faza oqibatida hosil bo'lgan fibrin ipchalar holatiga o'tadi, fibrin ipchalari esa chigallashib, to'r hosil qiladi. Fibrin to'rida qonning shakli hujayralari ushlaniq qoladi va qon laxtasi hosil bo'лади.

Qon laxtasi siqilib, zichlashib, ichidan qon zardobini siqb chiqaradi, ya'ni retraksiyaga uchraydi. Nihoyat, u birmuncha mustahkamlanib, jarohatlangan joyni mahkam berkitadi va qon ketishini to'xtatadi.

Hayvonlar qonining ivish muddati (A.P. Kostin bo'yicha)

|    |              |                             |
|----|--------------|-----------------------------|
|    | Hayvon turi  | Qonning ivish vaqtı, daqıqa |
| 1. | Ot           | 11,5                        |
| 1. | Ooramol      | 6,5                         |
| 1. | Quyon        | 4                           |
| 4. | Qo'yva echki | 2,5                         |
| 3. | Cho'chqa     | 3,5                         |
| 6. | It           | 2,5                         |
| 7. | Mushuk       | 2,5                         |
| 8. | Parranda     | 0,5-2,0                     |

Turli hayvonlarda qonning ivish tezligi bir xil emas. Jumladan, qon otlardada 11–15, qoramollarda 6,5–10, cho'chqalarda 3,5, illarda 2,5–3,0, parrandalarda 0,5–2,0, quyonlarda esa 4 daqiqa chida iviydi (13-jadval). Ammo bu ko'rsatkichlar nisbiy bo'lib, bir qancha sabablar ta'sirida o'zgarib turadi. Oq'riqli ta'sirotlar, impatik nerv sistemasining qo'zg' alishi, adrenalin gormoni qon ivishini tezlashtirsга, haroratning pasayishi, K vitaminining yetishmasligi, qon ivishida ishtirok etadigan omillarning yetishmasligi tufayli qonning ivishi sekinlashadi. Ishtirok etadigan omillardan ayrimlari qonda mutlaqo bo'limasa, bunda qon ivmaydigan bo'lib qoladi. Bunday holda gemofiliya deb ataluvchi o'r kasallik paydo bo'lib, u irlsiy kasalliklar jumlasiga kirdi.

Qonni sun'iy ravishda ivimaydigan qilib qo'yish ham mumkin. Huning uchun qonga belgilii miqdorda oksalat yoki stratlar qo'shish kifoya. Qonga natriy sitrat eritmali qo'shilsa, qondagi kalsiy ionlarini bog'lab oladi, ammoniy oksalat ta'sirida esa kalsiy ionlari sho'kadi, oqibatda tromboplastin va trombin hosil bo'lmaydi. O'pka va jigar to'qimalarida hosil bo'ladicidan heparin, zulukning so'lak bezluridan chiqadigan girudin moddalarini ham qonga to'g'ridan to'g'ri ta'sir etib, uni ivimaydigan qilib qo'yadi. Jumladan, heparin kombinining fibrinogenga ta'sir etishiga to'sqinlik qilsa, girudin fibrin hosil bo'lishiga qarshilik ko'rsatadi. Bulardan tashqari, dikkumarin va uning mahsulotlari qon ivishida ishirok etadigan moddalarning sintezlanishiga to'sqinlik qiladi, bir qancha antitrombinlar esa fibrinogenning fibringga aylanishiga qarshilik ko'rsatib, qonning ivimasligiga sababchi bo'ladi.

Qonning ivishiga to'sqinlik qiladigan moddalar *antikoagulantlar* deyiladi. Yuqorida qayd qilinganlardan ko'rindiki, qonda ikkita sistema — qonni ivituvchi va ivishga qarshi sistemalar mayjud. Organizmda bu sistemalar muayyan muvozanatda bo'ladi va tonirlardagi qonning ivmasligini ta'minlaydi.

### *I-ish. Qonning ivish vaqtini Li Uayt usuli bilan aniqlash*

Toza buyum shishalari ustiga bir tomchidan qon olib ustini maxsus voronka bilan yopib qo'yildi. Voronka ichiga namlangan filtr qog'oz yopishtirilgan bo'ladi. Har 10–20 soniya davomida qonning ivish vaqtி voronkani olib buyum shishasini qiyshaytirish qon tomchisi shaklining o'zgargan yoki o'zgarmaganligiga qarab aniqlanadi.

2-ish. Probirkalarga yirik hayvonlar bo'yinturuv venasidan 2–3 ml qon olinadi va 37–38°C li suv hammoniga 45° qiyalikda qo'yildi, 10–20 soniya davomida probirkalarni vertikal holatga keltirib qonning ivigan yoki ivimaganligi aniqlanadi.



### **NAZORAT SAVOLLARI**

1. Qonning ivish xususiyatini kim va qachon o'rgangan?
2. Qon ivishining uchta fazasini tushuntiring.
3. Koagulantlar va antikoagulantlarni tushuntiring.
4. Qonning ivish jarayoni qanday aniqlanadi?
5. Retraksiya va gemofiliya nima?

### *12-dars. QON GURUHLARINI ANIQLASH*

**Darsning maqsidi:** qon guruhlari, ularning xususiyatlarini bilish; qon quyish va uning ahamiyatini o'rganish; rezus-omil va hayvonlarning qon guruhlari haqida tushunchaga ega bo'lishi; odamlarda qon guruhlarini aniqlashni o'rganish;

**Dars uchun kerakli jihozlar va reaktivlar:** standart qon zardoblari, qon chiqarish uchun igna, buyum shishalari, shisha tayoq-chalar, antirezus zardob, 5 % li yod eritmasi.

Organizm ko'p qon yo'qotganda, qonda gemoglobinning miqdori kamayganda, turli moddalarдан zahrlanganida uming hayotini saqlab qolish uchun bir odamdan ikkinchi odam qoniga, guruhini bilmasdan to'g'ridan to'g'ri qon quyish yaramaydi. Chunki surish-

u'masdan bir odamdan ikkinchi odanga qon quyish ko'ngilsiz holatlar yuz berishiga va hatto qon quyligan odamning halok bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Buning boisi shundaki, hamma odam yoki hayvonlar qonning oqsilari bir-biriga to'gril kelavermaydi. Qon quylganda ko'ngilsiz hodisalar yuz bermasligi uchun qon guruhlarini va ularning xususiyatlarini bilish lozim.

Qon eritrotsitlarda bo'ladiqan agglutinogenlar va plazmada bo'ladiqan agglutininlar xiliga qarab guruhlarga ajratiladi.

**Agglutinogenlar** tabiatan oqsil moddalaridir. Ular eritrotsitlarda aniqlanib, tegishli sharoitda bir-biriga yopishib qolish xususiyatiga ega. Shu sababli bular yopishuvchi moddalar deyiladi. **Agglutinilar** ham tabiatan oqsil moddalar qatoriga kiradi. Ular, odatda, plazmada bo'ladi va yopishtirish xususiyatiga egadir. Shu sababli ular yopishuvchi moddalar deyiladi. Quyilgan qon (donor) eritrotsitlarda tegishli agglutinogen, qon olgan organizm (retsipyent)ning qon plazmasida o'sha agglutinogenga mos keladigan agglutinin bo'lsa, eritrotsitlar bir-biriga yopishib agglutinatsiya ro'y beradi va retsipyent og'ir ahvola tushadi.

Agglutinogen va agglutininlarning bir necha xili bor. Odam qoni ning eritrotsitlarida, asosan, ikki xil agglutinogen, ya'ni *A* agglutinogen va *B* agglutinogen, qon plazmasida esa shunga yarasha agglutinin alfa va agglutinin betta topilgan. Ana shu agglutinogenlerning qaysi biri eritrotsitlarda va agglutininlarning qaysi biri plazmada bo'lishiga qarab odamlar qoni 4 guruhrsiga ajratiladi. Bu guruhlarning har qaysisi quyidagicha ifodalananadi (14-jadval).


*14-jadval*

#### *Odamlarda qon guruhlarinining farqi*

| Agglutininlar  | Agglutinogenlar |        |         |         |
|----------------|-----------------|--------|---------|---------|
|                | I (O)           | II (A) | III (B) | IV (AB) |
| I (alfa+betta) | —               | +      | +       | +       |
| II (beta)      | —               | —      | +       | +       |
| III (alfa)     | —               | +      | —       | +       |
| IV (O)         | —               | —      | —       | —       |

**I (O) guruh** qonining plazmasida agglutininlarning har ikkalasi (alfa va betta) ham bo'ladi, eritrotsitlarida esa agglutinogenlarning hech biri bo'lmaydi.

**II (A) guruh** qonining eritrotsitlarida *A* agglutinogen plazmasida esa betta agglutinin bo'ladı.



35-rasm. Odama qon quyish sxemasi.

**III (B) guruh** qonining eritrotsitlarida *B* agglutinogen, plazmasida esa alfa agglutinin bo'ladı.

**IV (AB)** guruh qonining eritrotsitlarida har ikkala (*AB*) agglutinogen bo'ladı, plazmasida esa hech qanday agglutinin bo'lmaydi.

Qon quyish paytida, asosan, agglutinogenlarga ahamiyat beriladi. Chunki quyilkayotgan qon eritrotsitlarining agglutinogenini qon olayotgan kishi plazmasining agglutinini mos kelsa, bu vaqtida quyigan qonning eritrotsitlari darhol bir-biriga yopishib, agglutinatsiyaga uchraydi. Aks holda esa bu hodisa kuzatilmaydi.

I guruh qonining eritrotsitlarida hech qanday agglutinogenlarga bo'lmagan uchun uni o'z guruhiga va boshqa barcha guruhlarga quyish mumkin. Ammo qoni shu guruhga kiradigan odamlar qon quyilkayotgan qonning eritrotsitlari darhol bir-biriga yopishib, agglutinatsiyaga uchraydi. II—III guruhlar o'z guruhlarga va IV guruhga, IV guruh esa faqat o'z guruhiga quyilikli mumkin. Qon quyishning mana shu tartibi sxematik ravishda 35-rasmda ifodalangan.



Qon guruhini aniqlashda, asosan, agglutinogenlar hisobga olinadi: bo'lgani uchun *A* va *B* agglutinogenlari asosida qonning *ABO* sistemasi deb qon guruuhlarining 4 guruh yuritiladi (36-rasm).



Keyingi tekshirishlar tufayli bu agglutinogenlardan tashqari boshqa agglutinogenlar ham borligi aniqlandi. Bular qatoriga *A*, *A<sub>2</sub>*, *M*, *N*, *H* va *Rh* agglutinogenlarmi kiritish mumkin. Ammo bu agglutinogenlardan *Rh* agglutinogenidan boshqalari deyarli abhamiyatiga ega emas. *Rh* agglutinogen rezus-omil deb ataladi. U dastavval Makakus rezus degan maymunkarning qonida topilgan. Bu agglutinogen

shunduring 85 % da bo'ladı, 15 % da esa bo'imaydi. Barcha odamlar qonini 100 % deb olsak, shundan:

I guruh qoni – 40 %

II guruh – 39 %

III guruh – 15 %

IV guruh – 6 % ni tashkil qiladi.

Qayd qilib o'tilgan qon guruuhlari odama xos bo'lib, tibbiyot muylotida katta ahamiyatga ega. Hayvonlar uchun esa, bu qon guruuhlari hech qanday ahamiyatga ega emas desa ham bo'radi.

Chunki hayvonlarning qon guruuhlari benihoya ko'p. Qoramolda hovrigacha 80 xidan ortiq agglutinogen topilgan. Ularni 12 ta sistemaga ajratish mumkin. Bularning ichida *B* sistema eng katta bo'lib, unda 30 tacha agglutinogen bor. Qoramollarning qon guruuhlari aniqlash uchun 51 xidan ortiq standart zardoblar ishlashiadi. Cho'chqalarda 16 ta, qo'yarda 7 ta, tovuqlarda 14 ta, otlarda 10 ta agglutinogenlar sistemasi borligi aniqlangan.

Hayvonlarda agglutinogenlarning bunchalik ko'p uchrashti ularda qon quyishni ancha mushkullashtiradi. Shu sababli hayvonlarda qon quyishning amaliy ahamiyati yo'q desa ham bo'ladı. Ammo hayvonlarning qon guruuhlarini aniqlash ularning avlodini bilsinda, nashchilik ishlarida, mahsuldarligini o'r ganishda qo'l kelmoqda.

### 1-ish. Qon guruuhlarini aniqlash

Odamda qon guruuhlarini aniqlash uchun ikkinchi va uchinchi qon standart qon zardobidan foydalaniladi. Buyum oynachasining ikki chetiga har bir guruhdagi qon zardobidan tomiziladi. So'ngra sterll igna yordamida barmoqdan qon chiqarilib, har bir zardob tomchisi yoniga shu qondan bir tomchi tomiziladi va shisha tayoqchalar bilan qon zardobini yonidagi qon tomchisi bilan halashtiliradi. (Zardobning bir tomchisiga tegizib bo'lmaydi.)

Agar oradan taxminan 5 daqiqa o'tgandan keyin ham ikkala ikkinchi zardob tomchisiga tegizib bo'lmassa (agglutinatsiya aralashguruhdagi zardobda agglutinatsiya bo'lmasa), tekshirilayotgan qon I guruhga muning yopishishidan bilinadi.

Agar ikkala zardob tomchisida ham agglutinatsiya hosil bo'lsa, qon IV guruhga kiradi. Agglutinatsiya ikkinchi guruhdagi zardobning bo'lib, uchinchi guruh zardobida agglutinatsiya bo'lmasa,



36-rasm. Qon guruuhlarini aniqlash.

qon III guruhga kiradi. Nihoyat uchinchi guruh zardobida agglutinatsiya bo'lmasa, qon II guruhga kiradi.

### 2-ish. Rezus-omilni aniqlash (ekspress usul)

1. Tekshiriladigan qon tomchisini probirkaga tomiziladi.
2. Yetarli kattalikdagi va bir guruhdag'i antirezus zardobi'ni pipetka yordamida tomiziladi.
3. Antirezus zardobini qon bilan toza shisha tayoqcha yordamida aralashtiriladi.
4. Probirkani suv hammomiga qo'yiladi.
5. 10—12 daqiqadan so'ng suv hammomidan probirkani olib agglutinatsiya borlig'i aniqlangach, oq buyum yordamida tomchini yorug'likda kuzatiladi.




### NAZORAT SAVOLLARI

1. Qon guruhlari qachon va kimlar tomonidan aniqlangan?
2. Agglutinogen va agglutininlarning qanday turilarini bilasiz?
3. Hayvonlarning qon guruhlari va ularni o'rganishning analiti ahamiyatini aytинг?
4. Qon guruhlari qanday aniqlanadi?
5. Agglutinatsiya, donor, reispiyent va rezus-omil deb nimaga aytiladi?

### II bob. QON AYLANISH FIZIOLOGIVASI

Qon o'zining turli xildagi vazifalarini faqat qon tomirlari bo'yib to'xtovsiz harakatda bo'lgandagina bajara oladi. Qon qon tomirlarida yopiq sistemada katta va kichik qon aylanish doirasi bo'yib harakat qiladi (37-rasm). Qon aylanishida asosiy vazifani funk bajarib, u qonni haydovchi va so'rib oluvchi organ sifatida ismut qiladi. Qonning harakatlanishida qon tomirlarining elastikligi muhim ahamiyatga ega. Yurak faoliyatini tulayli aorta va kovak venalarda harakatlanayotgan qonning bosimida farq hosil bo'lib, shu farq tulayli qonning harakatlanishi yuzaga keladi. Talaba qon aylanish sistemasi bo'yicha tajriba bajarayotganida yurak muskullarining musiyatlari, yurakning ishi, qonning qon tomonlaridagi harakati, qonning bosimi va qon aylanishining boshqarilishi bilan tanishadi.



37-rasm. Qon aylanish doiralari:

- 1—yurakning o'ng bo'lmachasi;
- 2—yurakning o'ng qorinchasi;
- 3—yurakning chap bo'lmachasi;
- 4—yurakning chap qorinchasi;
- 5—atrioventrikular teshikchalar;
- 6—yarimyoysimon klapamlar joylashtigan teshikchalar;
- 7—o'pka arteriyasi;
- 8—o'pka venasi;
- 9—o'pladagi kapillarlar chigali;
- 10—aorta;
- 11—oldingi kovak vena;
- 12—keyingi kovak vena;
- 13—uyqu arteriyasi;
- 14, 16, 17, 18—kapillarlar;
- 15—aortaning qorin qismi;
- 19—jigar venasi;
- 20—darvoza venasi;
- 21—jigardagi,
- 22—me'dadagi,
- 23—taloqdagi,
- 24—ichakdag'i,
- 25—buyrakdag'i kapillarlar.

### I3-dars. YURAK VA TOMIRIAR FAOLIYATINI

#### TEKSHIRISH USULLARI

**Darsning maqsadi:** yurak va tomirlar faoliyatini o'rganish usullari: palpatsiya, perkussiya, auskultatsiya, kardiografiya, fono-kardiografiya, sfigmografija, flebografiya, tonometriya va ularning amaliy ahamiyati.

**Dars uchun kerakli hayvonlar va jihozlar:** qishloq xo'jalik va laboratoriya hayvonlari, perkussion bolg'acha, plessimetr, stetoskop, fonendoskop, kardiograf, elektrokardiograf, sfigmograf, flebograf, sigmomanometr.

Yurak ichi kovak yaxlit organ bo'lib, to'rt kameradan iborat. Yurakning ishlashi tufayli qon yurakdan chiqib tomirarda bir xil yo'nalishda, bo'lmachalardan qorinchalarga, qorinchalardan aorta va o'pka arteriyasi bo'ylab to'xtovsiz harakat qiladi va o'zini vazifalarini bajaradi. Yurak hayvonlar ko'krak qafasining chap tomonida, 2-5-qovurg'alar orasida joylashgan. Yurak va tomirlar faoliyatini o'rganish veterinariya amaliyotida katta ahamiyatga egadir.

Yurak va tomirlar faoliyati quyidagi usullar yordamida o'rganiladi:

**1. Kuzatish usuli** ko'z yordamida ko'krak qafasining yurak joylashgan qismi kuzatilishiha asoslangan.

**2. Palpatiya usuli** – paypaslab o'rganish (qo'l barmoqlari yordamida). Bu usulda ko'krak qafasining yurak joylashgan qismida yurak zarbi, og'riq, jarohattar bor-yo'qligi aniqlanadi. Odam va hayvonlarda ikki xil yurak zarblari farqlanadi:

- a) yurakning uchi bilan zarbi (odam va itlarda kuzatiladi);
- b) yurakning yoni bilan zarbi (otlarda va boshqa hayvonlarda kuzatiladi).

**3. Perkussiya** – tukillatib, urib o'rganish usuli. Bu usulda plessimet va perkussion bolg'acha yordamida yurakning joylashishi chegarasi aniqlanadi.


**4. Auskultatsiya** – eshitib o'rganish usuli. Bu usulda stetoskop, fonendoskop va stetofonendoskop asboblari yordamida yurakning ishlashi tufayli unda hosil bo'ladigan ton(tovush)lar aniqlanadi.

Yurak ishlayotgan vaqtida ikki xil fizioligik tonlar eshitiladi:

- a) sistolik ton yurak qorinchasining sistolasi vaqtida tabaqchi klapalarning yopilishi va ularni tortib turuvchi pay iplarining taranglashishi tufayli hosil bo'ladi. Sistolik ton cho'ziq, bo'g'iqliq bo'ladi va «bu-u» tarzida eshitiladi.


b) diastolik ton yurak qorinchalarining diastolasi vaqtida patmosimon klapalarning yopilishi tufayli hosil bo'ladi. Bu ton marta, jarangdor va «dup» tarzida eshitiladi.

**5. Kardiografiya** – kardiograf asbobi yordamida yurak faoliyatini yozib olib o'rganish usuli. Yozib olingan egri chiziq kardiogramma deyiladi. Bu usul yordamida yurak ish faoliyati o'rganiladi (38-rasm).



38-rasm. Baqa yurak ishini yozib olish.

**6. Elektrokardiografiya (EKG)** – elektrokardiograf asbobi yordamida yurakda hosil bo'ladigan biopotensialarni yozib olib yurak faoliyatini o'rganish usuli. Yozib olingan egri chiziq elektrokardiogramma deyiladi (39-rasm).



39-rasm. Elektrokardiogramma:

P – bo'lmachalarning qisqarishi; Q, R, S, T – qorinchalarning qisqarishi.

**7. Fonokardiografiya** – yurak faoliyatini eshitib, yozib olib o'rganish usuli. Yozib olingan egri chiziq fonokardiogramma deyiladi.

**8. Rentgenografiya,**

**9. Rentgenoskopiya** – rentgen nurlari yordamida yurak faoliyatini o'rganish.


**10. Tonometriya** – qon bosimini aniqlash usuli. Bu usulda sfigmomanometr va fonendoskop asboblaridan foydalaniлади.

**11. Flebografiya** – vena pulsini yozib olib o'rganish usuli. Yozib olingan egri chiziq flebogramma deyiladi (40-rasm).



40-rasm. Flebogramma.

12. **Sfigmografiya** – arteriya pulsini yozib olib o'rganish usuli. Yozib olingan egri chiziq sfigmogramma deyiladi (41-rasm).



41-rasm. Sfigmogramma.

### Hayvonlar yurak faoliyatini o'rganish

Qishloq xo'jalik hayvonlarida kuzattish, palpatsiya, perkussiya, auskultatsiya, EKG va tonometriya usullarini bajarib, o'rganish.

### NAZORAT SAVOLLARI

1. Yurakning tuzilishi va ish faoliyatini tushuntiring.
2. Yurakkning zarbi (turkisi) va tonlarini tushunturing.
3. Arteriya va vena pulsari qanday o'rganiladi?
4. Yurak faoliyatini o'rganish usullarini aytung.
5. Tomirlar faoliyatini o'rganishning qanday usullari mavjud?

### I4-dars. EKSTRASISTOLA VA KOMPENSATOR PAUZA HOSIL QILISH

**Darsning maqsadi:** yurak muskullarining refrakterlik xususiyati, ahamiyati. Sistola, diastola, pauza, ekstrasistola va kompensator pauza haqidagi tushunchaga ega bo'lish. Kardiografiya va elektrokardiografiya o'tkazishni o'rganish.

**Dars uchun kerakli hayvonlar va jihozlar:** baqalar, po'kak taxtachalar, ignalar, qaychi, pinset, paxta, kimograf va elektrokardiograf, pishang, kichik va katta qaychi, qisqich (serfin), shtativ, ingichka sim, ip, Ringer eritmasi.

Yurak issiq qonli hayvonlarda muskulli tuzilishga ega bo'lib, ichi kovak yaxlit orgандир. Yurak issiq qonli hayvonlarda to'ni

tumeredan tuzilgan bo'lib, ikkita bo'lmacha va ikkita qorinchadan iboratdir. Yurak bo'lmachalari bilan qorinchalari o'rtaida tavaqali, qorinchalar bilan arteriyalar o'rtaida yarimoysimon klapanlar va kovak venalarning o'ng yurak bo'lmachasiga quyilish joyida hulqasimon muskullardan tashkil topgan sifatkrisimon tuzilma bor.

Yurakkning chap bo'lmachasi bilan chap qorinchasi o'rtaida ikki tavaqali, o'ng bo'lmacha bilan o'ng qorinchcha o'rtaida uch tavaqali klapanlar bo'ladi. Yurak ishi har ikkala bo'lmachalarning qisqarishi bilan boshlanadi. Yurak ikki fazada ishlab, uning qisqarishiga sistola, kengayishiga diastola deyiladi va dam olishiga pauza deyiladi. Yurak muskullari o'zining xossa va xususiyatlari bilan skelet muskullaridan furq qilib, skelet muskullari uchun tetanik qisqarish xos emas. Boshqacha iyganda, hayvon tik turgan paytida oyoq muskullari tetanik qisqargan holatda bo'ladi va ancha vaqt shunday turaveradi.

Yurak muskullari esa, bir qisqaganidan keyin albatta bo'sha-

shishi kerak. Agar yurak muskullariga sistola vaqtida qo'shimcha ta'sirot berilsa, yurak muskullari bu ta'sirotga qo'zg'alib, qisqa-fish bilan javob bermaydi. Yurak muskullari yoki boshqa biror qo'zg'aluvchan to'qimanning ta'sirotga javob bermaslik xususiyati refrakterlik deyiladi.

Refrakterlik o'z vaqtida N.Y. Vvedenskiy va A.A. Uxtomskiylar tomonidan o'rganilgan. Ularning ta'llimotiga ko'ra, yurak muskullari sistola paytidagi ham qo'zg'aluvchanligini saqlaydi. Yurak muskullarining bu vaqtida qo'shimcha ta'sirotga javob bermasligiga sabab tabiatan bir-biriga yaqin bo'lgan ikkita ta'sirot o'rtaida lo'qnashuv yuz berishidir (Kiss-Flek tugunidan kelayotgan impuls bilan berilayotgan ta'sir o'rasida). Yurak muskullarining refrakterlik davri soniyaning o'ndan bir bo'laklari bilan o'lchanadi.

Yurak muskullari refrakterligining nisbatan uzoq davom etishi yurak faoliyati uchun katta ahamiyatga ega. Agar yurak muskullari turli qo'shimcha ta'sirotlarga qisqarishlar bilan javob beraverGANIDA edi, sistolalar odadagidan uzroq davom etib, yurak faoliyati buzilgan bo'lar edi. Yurak muskullarining qo'shimcha ta'sirotga umuman javob bermaydigan fazasiga mutlaq refrakterlik deyiladi. Bu faza yurak faoliyatining sistola davriga to'g'ri keladi.

Diastola endi boshlanayotgan davrda qo'shimcha ta'sirot berilsa, bu vaqtga qo'shimcha ta'sirotga yurak muskullari navbatdan tashqari, qo'shimcha qisqarish bilan javob beradi. Chunki diastola paytida yurak muskullarining refrakterligi pasayib, qo'zg'aluvchanligi oshib

ketadi va kuchli ta'sirotlar kuchsiz qo'shimcha qisqarishni hosil qiladi.


Yurak muskullarining kuchli ta'sirotga kuchsiz qo'shimcha qisqarish hosil qila oladigan fazasiga **nisbiy refrakterlik** deyiladi. Muskullarning nisbiy refrakterlik fazasida hosil bo'lgan qo'shimcha, navbatdan tashqari qisqarishiga **ekstrasistola** deyiladi. Ekstrasistoladan keyin pauza vaqtı uzaygan bo'ladi. Ekstrasistoladan keyingi uzaygan pauzaga **kompensator pauza** deyiladi. Pauzaning shu qadırı uzayib, kompensator pauzaga aylanishining sababi shundaki, Kiss-Flek tugunidan kelayotgan navbatdagi impuls qorinchalar ekstrasistolasining mutlaq refrakterlik fazasiga duch kelib, javobsız qoladi, oqibatda nisbiy refrakterlik fazta tugagani bilan Kiss-Flek tugunidan navbatdagi impuls hali kelmagan bo'ladi.

Shuning uchun ekstrasistoladan keyin yurak muskullarining diastola vaqtı uzaygan bo'ladi (kompensator pauza).

### *I-ish. Baqa yurak ishini yozib olish – kardiografiya*

Baqaning yuqori jag'i ko'z soqqasi orqasidan kesib olib tashlanadi va orqa miya teshigi ochilib, unga sim tiqilib, orqa miyasi shikastlantiriladi, ya ni baqa harakatsizlantiriladi. Harakatsizlanan tirligan baqa qormini yuqoriga qaratib po'kak taxtacha ustiga ignaturlan bilan mahkamlanadi. Keyinchalik pinset bilan to'sh suyagi ko'tarilib, uni kichik qaychi bilan keng qilib kesib olib tashlanadi. Natijada baqa yuragi perikard ichida ritm bilan qisqarib-kengayib turganligi ko'rindi. Kichik qaychi bilan perikardni ehtiyyotlik bilan kesiladi va yurak xaltachasidan airalgan yurak bo'lmachalari va qorinchalarining navbatma-navbat qisqarayotganligi yaqqol ko'rindi. Yurak qisqarishlarini yozib olish maqsadida, yurak qorinchalarini paytda uni uchi ipga bog'langan qisqich bilan qisiladi va ikkinchi uchini pishangga mahkamlanadi. Pishangning uchi islangan baraban sathiga tegizilib, baraban aylantirilganida, unda yurak qisqarish va bo'shashish harakat chiziqlari paydo bo'ladi, bu egri chiziqqa kardiogramma deyiladi. Yurak qurib qolmasligi uchun unga har 2–3 daqiqada Ringer eritmasidan tomiziladi. Kardiogramma ikkita tish: birinchi katta tishlar (a) bo'imachalar qisqarishidan hosil bo'ladi (42-rasm).

Oingan natjalarga qaydnomaga yoziladi va kardiogramma chizildi.





42-rasm. Kardiogramma:

a—bo'imachalarning qisqarishi; b—qorinchalarining qisqarishi.

### *2-ish. Ekstrasistola va kompensator pauza hosil qilish*

Orqa miyasi shikastlantirilib, harakatsizlantirilgan baqa taxtacha yelkasi bilan yotqiziladi. Ko'krak qafasi ochilib, yurakni uch qismidan qisqichga mahkamlanadi. Qisqich ip orgali pishangga ulanadi. Pishangning ikkinchi uchiga pero qo'yilib, kimograf nog'orasiga tegizilib, yurak ishi yoziladi (43-rasm). Me'yordagi yurak urishi yozilgach, yurakning sistola va diastola fazasining boshlang'ich davrida beriladi. Yurak muskullari sistolasining boshlang'ich davrida berilgan II 'sirotga javob bermaydi. Yurak muskullari nisbiy refrakterlik davrida II 'sirotarga javob berib, ekstrasistola hosil bo'ladi, ekstrasistolani chizib talabalarga tushuntiriladi.



43-rasm. Ekstrasistola va kompensator pauza:

1 — baqa yuragini qisqarish davri; 2, 3 — navbatdan tashqari ta'sirlash vaqtı; 4 — ekstrasistola; 5 — kompensator pauza; 6 — tushib qolgan qisqarishning ifodasi; II — baqa yuragini ekstrasistolik kardiogrammasi.

### 3-ish. Yurak biotoklarini qayd qilish – elektrokardiografiya

Yurak muskullarining qo'zg'alishi Kiss-Flek tugunidan bo'l machalarga, keyin Ashoff-Tavar va Gis to'plami oyoqchalarini orqali qorinchalarga elektr potensiallarini hosil qilib tarqatadi. Bu paytda hosil bo'lgan qo'zg'alish yurakning o'zida qolib ketmasdan, balki tana yuzasi bo'ylab tarqalib, uni aniqlab olish mumkin. Buning uchun maxsus elektrokardiograf asbobidan foydalananadi. Yurak muskullari elektr faoliygini qayd qilish chizig'i elektrokardiografiyu deb nom olgan bo'lib, biotoklarni yozib olishni esa elektrokardiogramma deyiladi. Elektrokardiogramma hosil qilish uchun elektrokardiografidan foydalaniлади. Yurak elektr potensiallarini tanu yuzasidan kuchaytirgichga o'tkazish uchun turli xil elektrodlardan foydalaminib, uni tananing turli nuqtalariga (oldingi ikki oyoqkeyingi chap oyoqlarga va boshqalar) birkitiladi (4-rangli rasm). Hayvonda elektrokardiogramma yozilayotganida uning to'lliq tinchlanishiga erishish lozim.

Talaba elektrokardiograf apparatini ishlashish tartibini uning yo'riqnomasidan o'qib tanishadi, o'qituvchi yordamida elektrokardiogrammani yozib olib tahsil qiladi. Keyin elektrokardiogrammasini chizib oladi.

### NAZORAT SAVOLLARI

1. Sistola, diastola va umumiy pauza deb nimaga aytiladi?
2. Refrakteriik deb nimaga aytiladi va uning qanday turlarini bilasiz?
3. Ekstrasistola va kompensator pauza deb nimaga aytiladi?
4. Kardiografija, kardiogramma, elektrokardiografiya va elektrokardiogramma deb nimaga aytiladi?
5. EKGni o'rikazish tartibini tushuntiring.

### 15-dars. YURAK AVTOMATIVASI

**Darsning maqsadi:** yurak muskullarining mustaqil ishlash qobiliyatini va ahamiyatini Stannius tajribasida o'rganish.

**Dars uchun kerakli hayvonlar va jihozlar:** baqalar, po'kkat taxtachalar, Petri kossachasi, ignalar, qaychi, pinset, paxta, ip, Ringer eritmasi.

**Yurakning avtomatiya xususiyati.** Yurak muskullari avtomatiyaliga ni mustaqil ishlash qobiliyatiga ega. Yurak muskullari markazdun impuls kelmaganida ham, bevosita o'zida hosil bo'yayotgan

impulslar ta'sirida mustaqil ravishda ishlay oladi. Yurak muskullari ichida maxsus hujayralar va tolalar bo'lib, yurakda hosil bo'lgan impulslar shular orqali tarqalgani uchun ulurni yurakning o'tkazuvchi sistemalari deyiladi. Issiq qonli hayvonlarda yurakning qorinchaliga xususiyatini o'rganishda Langendorf usulidan foydalanildi, ya'ni qon fibrinsizlantirilib yoki tana haroratigacha isitilib hisorod bilan to'yintirilgan Ringer eritmasiga gluukoza qo'shiladi va kanyula yordamida muayyan bosim bilan yuborilganda suyuqlik bosimi yarmoysimon klapnarni yopib yurak toj tomirlari bo'ylab oqunligi tufayli tanadan ajratib olingan yurak muskullarini oziqa vi kislorod bilan ta'minlaydi. Bunday sharoit hosil qilinganda issiq qonli hayvonlar yuragi soatlab ishlaydi. Bu sistema faoliyati yurak muskullarining turli qismlari navbatma-navbat o'zaro moslashib ishlayshini ta'minlaydi. Shuning uchun ham qo'zg'alishni bo'lmashlardan qorinchalarga o'tkazilishi ta'minlanadi. Birineki to'plam o'ng yurak bo'lmachasi – epikard ostida kowak venakarning quylish joyida hosil bo'lib, Kiss-Flek yoki sinus tuguni deyiladi.

Ikkinchisi tugun o'ng bo'lmacha devorida atrioventrikular to'siq oldida joylashib Ashoff-Tavar yoki atrioventrikular tugun deyiladi. Uchinchisi ikkinchi tugunning davomi – ikkala qorinchalari muskullari onasidagi devor ichidan o'igan Gis to'plami oyoqchalar bo'lib, ikkiga bo'linib biri chap qorinchaga, ikkinchisi o'ng qorinchalari devori ichida tarmoqlanib, yurak qorinchalari endoteliysi tagida himoqlanib Purkinye tolalarini hosil qiladi.

Baqa yuragini tanasidan ajratib olib, Ringer eritmasiga solib qo'yilsa, u bir necha soat, hatto bir necha kun davomida ishlab turishi mumkin. Barcha issiq qonli hayvonlar, hatto odamlarning yungi ham, tegishli sharot yaratilsa, tanadan tashqarida bir necha son davomida bir maronda ishlab turadi.

O'tkazuvchi sistemaning nerv va muskul elementlari o'zaro juda chirmashib, tutashib ketgan, ularning faoliyatini bir-birdan siratib qarash mumkin emas. Shuning uchun ham yurakning avtomatiya xususiyati o'tkazuvchi sistema nerv va muskul elementlarning har ikkalasi ishtirokida amalga oshiriladi.

Nerv elementlari muskul elementlariga nisbatan qo'zg'aluvchunoqdirdi. Shu sababli qo'zg'alish dastlab o'tkazuvchi sistemaning nerv elementlarida paydo bo'ladi va muskul elementlarida kechagil qurishini ta'minlovchi impulslar kelib chiqishi uchun sharot

vujudga keladi. Demak, organizmida yurakning ish ritmi markaziy nerv sistemasidan keladigan nerv impulsleri bilan birgalikda yurak devorida joylashgan tugunlardan chiqayotgan impulslariga ham bog'liq.

O'tkazuvchi sistemaning turli qismlari turli darajada avtomatiya xususiyatiga ega. Kiss-Flek tuguni avtomatiyaning yuzaga chiqishida yetakchi tuzilma hisoblanadi. Kiss-Flek tugunidan yurakning uchiga tomon avtomatiya so'nib boradi. O'tkazuvchi sistemaning turli qismlari turli darajada avtomatiya xususiyatiga ega ekanligini Stannius tajribasida kuzatish mumkin.

### Stannius tajribasi

Baqanining ko'krak qafasini ochib, ishlab turgan yurak kuzallidaqiqada qisqarishi sanaladi. Keyin ko'z pinseti yordamida nonoyoi tagidan vena havzasini bilan yurak bo'lmachalar o'rtafiga bo'solib, shu ip ohista tortib, qattiq bog'lab qo'yilsa (Stanniusning birinchi bog'lami), Remakka tugunidan chiqayotgan impulslar yurak bo'lmachalarini va qorinchacha biroz ishdan to'xtab qoladi (5-rangli rasm). Remakka tuguni qo'zg'alayotganligi sababli vena havzasini, aksincha, to'xtamasdan, avvalgidek, balki undan ham tezroq ishlab turaveradi. Bog' solinganidan 30—40 soniya o'tgandan keyin, yurak bo'lmachalarini va qorinchacha yana qisqara boshlaydi. Ammo endi bo'lmachalar va qorinchacha avvalgiga qaraganda past ritmda qisqora bosholaydi.

Ularning qisqarishi vena havzasining qisqarishiga mos kelmaydi, itoat qilmaslik, mustaqillik hodissasi kuzatiladi, ya'ni vena havzasi bilan yurak qismlari faoliyatları o'rtafiga izchillik buziladi. Birinchi bog' tufayli vaqtincha to'xtab qolgan bo'lmachalar va qorinchacha o'rtafiga qisqarishga boshlamasanoq yana bog'lasak, bo'lmachalar awvalgidek qisqarmaydi, qorinchacha shu zahotiyiq qisqarishlay bosholaydi (Stanniusning ikkinchi bog'lami). Bu paytda qo'zg'aliish bo'lmachalarning qorinchaga yaqin joyida joylashgan bo'lib, Bidder tuguni ta'sirlanishi oqibatida kelib chiqadi. Agar bog'lam tugunning ustidan tushadigan bo'lsa, hosil bo'ladigan impulslar bo'lmachalar va qorinchaga baravanga bora oladigan bo'lib, bu paytda bo'lmachalar ham, qorinchacha shu zahotiyiq qisqaradi. Agar bog'lam tugunning pastidan tushsa, bo'lmachalar qisqarisiidan tushsa qorinchacha qisqaradi, ay ni vaqtda bo'lmachalar

qorinchanning qisqarish tezligi vena havzasinikidan ancha sekin bo'ldi va bu attrioventrikular tugun avtomatiyasi sinus tuguning nomatiyasiidan past ekanini ko'rsatadi.

*Stanniusning 3-tajribasi.* Yurak uchi kesulganida yurak qisqarmasa-

shi, iyrim ta'sirotlarga muayyan qisqarish bilan javob beradi.



### Nazorat savollari

Yurak avtomatiyasi deganda nimani tushunasiz va u qanday yuzaga keladi?

Yurakning o'tkazuvchi sistemasi faoliyatini tushuntiring.

Stannius tajribasi qanday o'tkaziladi?

Yurak avtomatiyasini boshqaruvchi tugun qanday nomlanadi?

### 16-rasm. YURAK FAOLIYATINING REFLEKTOR BOSHQARUVISHI

**Darsning maqsadi:** yurak faoliyatining nerv sistemasi tomonidan o'z-o'zidan boshqarilishini o'rganish hamda uning ahamiyatini bilish.

**Yurak markaziy nerv sistemasidan tegishli simpatik va adashgan nerv toplarini boshqaradigan sim-**

**niftik nerv toplari orqa miyaning 5-ko'krak segmentlaridan**

**hujudi.** Simpatik nerv sistema-

**yurakka keladigan neyron-**

**ni orqa miyadan chiqqanidan**

**5-ko'krak qafasidagi yul-**


**mon tugunda tugaydi. Bu**

**esu yurakka kelib tutashadi**

**ve yurak ishini tezlashtiradi.**

**Adashgan nervning markaziy**

**nervi uzunchoq miyada joy-**




44-rasm. Baqada adashgan nervning joylashishi:

1—adashgan nerv; 2—hiqildaq nervi; 3—til osti nervi; 4—til-tomoq nervi; 5—shishla tayoqcha; 6—elektrod.

intramural tugunga kelib tugaydi. Bu tugundan chiqqan neyron sinus, atrioventrikular tugun va bo'lmachalarning muskul tolalari bo'ylab tarqaladi. O'ng adashgan nerv tolesi bilan tutashgan neyronlarning aksariyati Kiss-Flek tuguniga, kam qismi attriven-trikular tugunga keladi. Chap adashgan nerv tolesi bilan tutashgan neyronlarning aksariyati atrioventrikular tugunga kelsa, kam qismi Kiss-Flek tuguniga keladi. Shunday qilib, o'ng adashgan nerv qo'zg'alganida qo'zg'alish, asosan, Kiss-Flek tuguniga, chap adashgan nervning qo'zg'alishidan atrioventrikular tugunga o'tadi.

Yurak ishining adashgan nerv ta'sirida o'zgarishini 1845-yili aka-uka Veberlar, simpatik nerv yurak ishini tezlashishini 1885-yili I.S. Sion aniqlagan. I.P. Pavlov shu simpatik nerv tolalarining tarkibida yurak ish ritmiga ta'sir qilmasdan qisqarishini zo'raytiruvchi, adashgan nerv tolalari orasida bu kuchni susaytiruvchi maxsus tolalar borligini aniqlab, ularni trofik nerv, deb atagan. Chunki bu nervlar ta'sirlan-ganda moddalar almashinuvni yoki kuchaygan yoki susaygan. Adashgan nerv qo'zg'alganda yurak faoliyatining tormozlanishi, simpatik nerv qo'zg'alganda esa tezlashishi tekshirishlarda isbotlangan (45-rasm).



45-rasm. Adashgan va simpatik nervlarning yurak faoliyatiga ta'siri:

1 – adashgan nerv ta'siri; 2 – simpatik nerv ta'siri.

Jumladan, yurakka yo'nalgan adashgan nerv tolalari qo'zg'alganda, yurakning ish ritmi kamayadi (manfiy xronotrop effekt), yurak muskullarining qo'zg'aluvchanligi pasayadi (manfiy batmatrop effekt), yurak muskullarining qisqarish kuchi kamayadi (manfiy inotrop effekt), yurak o'tkazuvchanligi susayadi (manfiy dromotrop effekt).

Adashgan nerv to'satdan kuchli qo'zg'atilsa yurak birdan mut-laqo to'xtab qoladi. Adashgan nerv tolalarini uzuksiz ta'sirlab turilsa, awvaliga to'xtagan yurak keyinchalik asta-sekin yana ishlay boshaydi. Boshqacha aytganda yurak bunda adashgan nerv ta'siridan

yo «silib» chiqadi. Bu hodisa adashgan nerv uzoq vaqt uzuksiz surʼanganda yurak faoliyatining batamom to'xtab qolmasligidan dolat beradi.

Simpatik nerv sistemasining yurakka keladigan tolalari qo'zg'a-aluvchanligi, yurakning ish ritmi tezlashadi (musbat xronotrop effekt), qo'zg'aluvchanligi (musbat batmatrop effekt), yurak muskullaridan qo'zg'aling tarqalishi tezlashadi (musbat dromotrop effekt).

Yurak va tomirlar devoridagi retseptorlar uzuksiz ravishda, doimo ta'sirlanib turgani uchun yurakka yo'nalgan nervlarning markazlari doimo muayyan bir tonus holatida turadi. Shunga ko'ra, simpatik va adashgan nerv tolalari yurak faoliyatiga uzuksiz ta'sir etib turishi uchun tegishli sharoit vujudga keladi. Shunday qilib, junak va tomirlar devoridagi retseptorlarning ta'sirlanishi yurak hollyatining tegishli ta'sirot xarakteriga qarab doimo o'zgarib, o'z-ziddan boshqarilib turishiga sabab bo'ladi.

Yurak ishining tezlashishi – *taxikardiya*, sekinlashishi – *havlikardiya*, ish ritmining buzilishi *aritmija* deyiladi.

Hayvonlarda sut sog'ish paytida yurak ishining o'zgarganligi kuzitilgan. Organizmga ta'sir qilayotgan harorat, og'riq, turli emotsional omillar ham yurak faoliyatiga reflektor ravishda u yoki sinusida to'plangan refleksogen qismalari hosil qiluvchi retseptorlar shohida ahamiyatiga ega.

Yurak faoliyatining boshqarilishiida orqa va uzunchoq miyalardan hishqari markaziy nerv sistemasining boshqa qismalari ham ishtiroy etidi. I.M. Sechenovning ma'lumotlariغا ko'ra, oralig' miyadagi ko'rish do'mbog'ining ta'sirlanishi yurak ishining keskin sekinla-shiga sabab bo'ladi. Yurak faoliyatining boshqarilishiida bosh miya yarimsharlar po'stlog'i yetakchi o'mini egallaydi. K.M. Bikov va uning shogirdlari yurak faoliyatining o'zgarishlariga javoban shartli refelekslar hosil qilish mumkinligini isbotlaganlar.

#### I-ish. Yurak faoliyati reflektor boshqarilishini kuzatish


Baqqa harakatsizlantriladi, po'kak taxtachaga ko'krak qafasini yuqoriga qilib yotqizilib, uning oldingi oyoqlari yon tomoniga va keyingi oyoqlari pastga tortib birkilik, ko'krak qafasi ochiladi,

yurak qisqarishi sanaladi va yurakni perikarddan ajatiladi. Kichik qaychi bilan pastki jag' burchagi va yunraqi yonidagi muskullar va paylarni kesib, bu kesimni muskul osti qavati (*m.petrohydeus*)gachi davom ettirilib, muskul yonida nerv va qon tomirlari yotganligi aniqlanadi. Nerv va qon tomirlar to'plamiyuq arteriyasi, bo'yin turuq venasi, tomoq nervi va vagosimpatik nervlardan tashkil topgan bo'lub, oldingi ikkita nerv tolassi (til osti va til-tomoq nervi) yaxshi ko'rilib, ularning orqa tomonidan vagosimpatik nerv va tomoq nervi o'tadi. Vagosimpatik nerv atrof to'qimalar va yurak faoliyatiga bog'liq bo'limgan nerv tolalaridan ajatiladi va ip bilan bog'lanadi. Baqa yotgan po'kak taxta shtatiyga o'rnatilib, undagi yurakka serfin solinadi va ip bilan yozuvchi pishangga birlashtiriladi. Induksion g'altakning birinchi elektrodi kalit yordamida akkumulatoga, ikkinchisi vagosimpatik stvolga qo'yilgan elektrotdoga ulanadi. Yurakning normal kardiogrammasi yozib olinib, qisqarish soni aniqlanganidan keyin ikkinchi g'altakni birinchi g'altakkaga yaqinlashtirib, vagosimpatik stvolga induksion tok bilan ta'sir etiladi. Ta'sir etilayotgan tok kuchi yetarli bo'lsa adashgan nerv qo'zg'alib, yurak ishi seklinashib, diastola davrida to'xtashiga sabab bo'ladi. Ta sirot berish to'xtatilganidan keyin yurakning qisqarishi o'z holiga kelib, simpatik nerv tolalari ta'sirlanishidan yurak qisqarishi tezlasha boshlaydi. Tajriba yakunida talaba adashgan va simpatik nerv tolalarining yurak qisqarishiga ta'siriga oid kardiogrammani chizib, solishtirib daftarga yozib, xulosa chiqaradi.

### 2-ish. Gols tajribasi

Baqanining uzunchoq va orqa miyasini shikastlamay bosh miyasi ko'z soqqasi orqasidan kesib olib tashlanadi va po'kak taxtachaga yotqizilib, ko'krak qafasi ochilib, yuragi perikarddan chiqariladi. Bir daqiqada yurak qisqarish soni sanaladi va keyinchalik pinsel yoki skalpelning dastasi bilan baqanining qormiga 2—3 marta qattiq zarba berib, yurak ishining o'garishi o'rganiladi, bu vaqtida yurak ishi sekinashib to'xtaydi (46-rasm). Chunki ta'sirot bu paytda sezuvchi nervlar orqali uzunchoq miyaga borib, adashgan nerv markazining qo'zg'alishidan impuls adashgan nerv tolalari orqali yurakka kelib, uming ishimi to'xtatadi.

**4-rasm. Baqada Gols refleksi. Baqa yuragining qisqarishini yozish:**  
A – pinset bilan baqa qormiga urligandan keyin yurak ishining sekinlashishi.



### 3-ish. Danini-Ashner tajribasi


Bu tajribani talabalar ikkitadan bo'lub bajaradi. Ular oldin o'zlarida 1 daqiqalik pulslarini 2—3 marta sanashadi. Keyin o'ritacha rifmetik qiymatini topadilar. So'ngra tekshiruvchi odam bir qo'liming ko'rsatkich va ismsiz barmoqlari bilan tekshiriluvchining ko'z olmasini 5—8 soniyagacha sekin bosib turadi va puls ozgarishini sanaydi. Bunda yurak urishi me'yordagidan 8—10 tagacha kamayganligi aniqlanadi.

Bu tajribanining refleks yoyi quyidagicha: ko'zga berilgan ta'sirot ko'z olmasini harakatlantiruvchi nervning sezuvchi tolalari orqali uzunchoq miyaga keladi, undan keyin esa qo'zg'alish adashgan nervga borib, yurak urishini sekinlashtiradi.


### 4-ish. I.M. Sechenov tajribasi

Baqanining bosh miyasi uzunchoq miya chegarasidan kesiladi, ko'krak qafasi ochiladi, yurak urishi sanaladi (47—48-rasmilar). Miyaning kesilgan joyiga osh tuzining bo'lakchalar qo'yiladi va yurak faoliyati kuzatiladi. Yurak urishi sekinashadi, keyinchalik ishi sekinashib to'xtaydi. Yurakning to'xtashi uchun ketgan vaqt (latent davr) to'xtaydi. Yurakning to'xtashi uchun ketgan vaqt (latent davr) aniqlanadi. Tuzni Ringer eritmasi bilan yuvib tashlab, yurak faoliyatining asta-sekin qayta tiklanishi taqqoslanib, xulosa qilinadi.

**Dars uchun kerakli hayvonlar, jihozlar va reaktivlar:** baqalar, shisha kamyula, po'kak taxtachalar, iganalar, qaychi, pinset, Petri kosachalari, paxta, pipetkalar, soat, Ringer eritmasi, adrenalin gormonining 1:2000, xollinning 1:1000 nisbatdagi eritmalar, 1% li kalyiv va kalsiy tuzlarining eritmalar.




47-rasm. Baqanining bosh chanog'ining ustidan temini ajratish; 2—bosh suyagi kesilgan baqa.



48-rasm. I. M. Sechenov tajribasi:

A—B—osh tuzi kristallari qo'yiladigan kesma; 1—hind brain; 2—forebrain; 3—cerebellum; 4—olfactory bulb; 5—medulla oblongata; 6—cerebrum; 7—longitudinal fissure.



49-rasm. Gumoral omillarning baqa yuragiga ta'siri:

A—CaCl<sub>2</sub> konsentratsiyasi ko'paygandagi, B—KCl konsentratsiyasi ko'paygandagi, D—adrenalin qo'shilgandagi ta'siri; 1—qo'zg'atuwchi ta'sinining boshanishi; 2—yuvilgandan keyingi holat.

Yurak faoliyatiga gumoral omillar ikki xil ta'sir qildi:

1. Yurak ishi qanday boshqariladi?  
2. Simpatik va adashgan nerv yurak ishiba qanday ta'sir ko'rsatadi?

3. Danini-Ashner, Gols, I.M. Sechenov tajribalarining mohiyatini tushuntirin.

4. Refleksogen qismalarning mohiyatini tushuntirin.

5. Taxikardiya, bradikardiya va aritmiya nima?



#### NAZORAT SAVOLIARI

1. Yurak ishi qanday boshqariladi?
2. Simpatik va adashgan nerv yurak ishiba qanday ta'sir ko'rsatadi?
3. Danini-Ashner, Gols, I.M. Sechenov tajribalarining mohiyatini tushuntirin.
4. Refleksogen qismalarning mohiyatini tushuntirin.
5. Taxikardiya, bradikardiya va aritmiya nima?

#### 17-dars. YURAK FAOLIYATINING GUMORAL BOSHQARILISHI

**Darsning maqsadi:** yurak faoliyatiga ta'sir etuvchi gumoral omillar haqida tushunchaga ega bo'lish, ularning yurak ishiba ta'sirini o'rGANISH.

Yurak faoliyatiga salbiy ta'sir etuvchi, ya'ni sekinlashtiruvchi gumoral omillarga quyidagi kirdi:

1. Asetilxolin — adashgan nerv qo'zg'alganda ajraladigan mediator modda.
2. Tiroksin — qalqonsimon bez gormoni.
3. Triyodotironin — qalqonsimon bez gormoni.
4. Simpatin — simpatik nerv qo'zg'alganda uning oxirida ajraladigan mediator modda.
5. Qondagi kalsiy ionlari.

Yurak faoliyatiga salbiy ta'sir etuvchi, ya'ni sekinlashtiruvchi gumoral omillarga quyidagi kirdi:

1. Asetilxolin — adashgan nerv qo'zg'alganda ajraladigan mediator modda.

2. Qondagi kaliy ionlari.

3. O't suyuqligi va boshqa moddalar.

Simpatin va asetilxolin yurak ishiga juda qisqa muddat ta'sir qiladi. Chunki simpatin aminoksidaza, asetilxolin esa xolinesteraz fermentlari ta'sirida tez parchalanib ketadi.

### **Yurak faoliyatiga kimyoviy moddalar ta'siri**

Baqaning orqa miyasiga igna sanchib harakatsizlantiriladi. Keyin ko'krak qafasi ochiladi, yurak xaltasi kesiladi, amno yurak tizgini kesilmaydi. Aorta tagidan ip o'tkazib, mahkam bog'lanadi va biroz pastga tortiladi. Ikkinchchi ipni ham aorta tagidan o'tkazib, aorta devorini kichik qaychi bilan kesib, chiqqan qon paxta bilan artiladi va yurak biroz ko'tarilib, pastki kovak vena devori kesiladi. Qorinchaga kanyula qo'yish uchun u voronkasimon kengaygan bo'lishi kerak. Ingichka sim olib, uni aortaning kesilgan joyidan qorinchaga kiritiladi va Ringer eritmasi solingan kanyula kesilgan aorta devoridan qorinchaga tushiriladi. Kanyulani qorinchaga tushirishda sim qorinchadan chiqarilib olinadi. Kanyula to'g'ri qo'yilganida qorincha qisqarishi bilan Ringer eritmasi ko'tariladi va bo'shashganida pastga tushadi. Keyin kanyulani aorta devoriga qo'shib ikkinchi ip bilan bog'lab, yurak biroz ko'tarilib, sinus tugunini shikastlantirmasdan ajratib olinadi va turli elektrolitlarning ta'siri alohida-alohida o'rganiladi: adrenalin, asetilkolin, 1 % li KCl, 1 % li CaCl<sub>2</sub>, eritmalaridandan 3–4 tomchi tomizib, 1 daqiqada yurak urishi soni sanaladi. Tajriba pirovardida turli elektrolitlarning yurak faoliyatiga ta'siri taqqoslab o'rganiladi. Olingan natijalar jadvalga yoziladi va xulosa qilinadi.

### **Yurakka turli moddalar ta'siri**

| Yurakning normal urishi | Adrenalin | Asetilkolin | KCl | CaCl <sub>2</sub> |
|-------------------------|-----------|-------------|-----|-------------------|
| ?                       |           |             |     |                   |

### **Nazorat savolları**

1. Yurak faoliyatining gumoral boshqariishini tushuntirting.
2. Qanday gumoral omillar yurak faoliyatini tezlashtiradi?
3. Qanday gumoral omillar yurak faoliyatini sekimlashtiradi?
4. Taxikardiya, bradikardiya, stenokardiya va aritmiyani qaysi kimyoviy moddalar chaqiradi?
5. Tajribada gumoral omillar ta'siri qanday o'rganiladi?

## **18-dars. QON BOSIMI VA UNI ANIQLASH USULLARI**

**Darsning maqsadi:** qon bosimi, maksimal, minimal, puls bosimlari va ularga ta'sir etuvchi omillar haqida tushunchaga ega bo'lish. Odam va hayvonlarda qon bosimini o'chashni o'rganish.

**Dars uchun kerakli hayvonlar va jihozlar:** qishloq xo'jalik hayvonlari, sfigmomanometr, foneendoskop.

Yurakning ishlashi tufayli tomirlarga otilib chiqadigan qonning tomir devoriga bergen bosimiga **qon bosimi** deyladi. U, asosan, yurak ishiga va tomirlar devorining tonusiga bog'liq bo'ladi. Qorinchadan tomirga o'tgan qon zarrachalari yurakdan uzoqlashib borgan sari, ularning tomir devoriga ko'rsatadigan bosimi ham shuncha kamayib boradi.

Tomir tarmoqlanib, diametri torayib borgan sari, uning oqayotgan qonga ko'rsatadigan qarshiligi ham ortib boradi. Tomir diametri qancha kichik bo'lsa, qonning bosimi ham shuncha past bo'ladi.

Binobarin, eng baland bosim aortada kuzatiladi, arteriyalar, arteriolalar va kapillarlarga o'tgan sayin qon bosimi muttazam ravishda pasaya boradi. Kichik diametri venalarda bosim juda ham past bo'lib, yirik venalarda yanada kamayadi. Oqibatda kovak venalarda bosim hatto manfiy bo'lib qoladi. Qorinchalar sistolasi paytida arteriyalarda bosim maksimal darajaga ko'tariladi, diastola paytida esa minimal darajaga pasayadi.

Shunga ko'ra, yurakning qorinchalar sistolasi paytidagi bosimiga *minimal yoki sistolik bosim*, diastolasi paytidagi bosimiga esa *maksimal yoki diastolik bosim* deylidi. Sistolik bosim bilan diastolik bosim oralig'ida bosimning o'zgarish amplitudasi *puls bosimi* yoki *puls ayrimasi* deyliladi.

Qon bosimining oshishiga — gipertoniya, passayishiga esa — gipotoniya deylidi. Qon bosimiga turli omillar ta'sir qiladi. Qon bosimi ko'rsatkichiga yurakning sistolik va daqiqalik hajmi, arteriola va kapillarlarning qonga ko'rsatadigan qarshiligi, qonning yopishqoqligi, nerv sistemasi va umuman organizmning holati, tomirlarda aylanayotgan qonning miqdori, tashqi muhit harorati, sutkaming davri, hayvonnинг turni, zoti, yoshi, mahsulorligi kabi omillar ta'sir qiladi (15-jadval).

Qon depolaridan qonning tomirlarga katta miqdorda chiqarilishi oqibatida tomirlarda aylanayotgan qon miqdorining ko'payishi qon

**Sog'lon hayvonlar qon bosimi** (mm simob ustuni hisobida)

| Hayvon turi   | Maksimal bosim | Minimal bosim | Aniqlash joyi  |
|---------------|----------------|---------------|----------------|
| Ot            | 100–120        | 35–50         | Dum arteriyasi |
| Qoramol       | 110–140        | 35–40         | Dum arteriyasi |
| Tuya          | 130–155        | 50–70         | Dum arteriyasi |
| Qo'y va echki | 100–120        | 50–65         | Son arteriyasi |
| It            | 120–140        | 30–40         | Son arteriyasi |

bosimining oshishiga sabab bo'ladi. Yurak ishining tezlashishi, tomirlar diametrining torayishi qon bosimining oshishiga sabab bo'ladi va aksincha.

Jismoniy ish vaqtida venalardan yurakka ko'proq qon kelib, yurakning daqiqalik hajmi oshadi, depo qonining ma'lum qismi tomirlarga chiqariladi, shunga bog'liq ravishda jismoniy ish vaqtida qon bosimi ko'tariladi.

Adashgan nerv ta'sirlanganda yurak ishi sekinlashib, qisqarish kuchi kamayadi, oqibatda qon bosimi pasayadi. Qon bosimi kechalarli kunduzgiga qaraganda pastroq bo'ladi. Tomirlar shikastlanishidan talaygina qon yo'qotilishi qon bosimining pasayishiga olib keladi.

Hayvon ulg'aygan sari tomirlar elastikligining yo'qola borishi tufayli qon bosimi oshib boradi. 2 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan sigirlarning dum arteriyasida maksimal bosim 107–120 mm sim., ust., 8 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan sigirlarda esa 123–128 mm sim. ust. bo'lishi aniqlangan.

Dum arteriyasidagi qon bosimi mahalliy jaydari mollarniga qaraganda simmental zotli qoramollarda 11 mm sim. ust. ga, ostifiz. zotli sigirlarda 6 mm sim. ust. ga baland bo'lishi kuzatilgan.

Sut mahsulorligining ko'payishi qon bosimining ko'tarilishiga sabab bo'ladi degan ma'lumotlar bor, chunonchi, sog'ib olinayotgan sutning 10 litrga oshishi qon bosimining 30 mm sim. ust. ga sabab bo'lgan sutning 10 litrga oshishi qon bosimining 30 mm sim. ust. ga katta qon aylanish doirasidagi bosimidan 5–6 baravar pastdir.

Qon bosimini o'chashning ikki xil usul bor:

1. Qonli usul (K. Lyudvig usuli).
2. Qonsiz usul.

Qon bosimini qonli usul bilan aniqlash ancha mushkul. Buning uchun hayvonga narkoz berish, uni harakatsizlantirish, qimirlarni ko'rish kerak. Qon bosimini aniqlashda qonsiz usul keng qo'llaniadi. Buning uchun sfigmomanometrdan foydalananadi: Odamlarda qon bosimi ikki xil usul bilan aniqlanadi:

1. Korotkov usuli.

2. Riva-Rochchi usuli.

Arteriyalarda qon bosimi aniqlanayotganda simobli, venalarda bosim past bo'lganligi uchun suvli manometrlardan foydalaniadi. Kapillarlardagi qon bosimi Krog usuli bilan o'chanadi. Buning uchun kapillariini mikroskop ostida kuzatir (kapillaroskopiya), maxsus kamerada kapillarlarda oqayotgan qonning to'xtashi uchun zurur bo'lgan bosim hosil qilinadi. Kapillarlarda oqayotgan qonni to'xtatish uchun hosil qilingan bosim ulardagi qon bosimiga teng bo'ladi.

**Odamlar va hayvonlarda qon bosimini aniqlash**


Sfigmomanometr yordamida qon bosimini aniqlash uchun uning manjeti odam qo'lining yelka qismiga (50-rasm), yirik hayvonlarning dumiga, mayda hayvonlarning son arteriyasiga o'rалadi. Manjet ichidagi rezina kamera naycha orqali simobi manometrga tutashtiriladi.

Qon bosimi aniqlanayotgan bilak arteriyasiga tonendoskop qo'yilib, quloq solinadi. So'ngra sfigmomanometrning rezina ballonchasi yordamida havo yuborib, shu havo bosimi arteriyadagi qonning bosimidan yuqori darajaga yetkaziladi, ya'ni qon oqishini lo'xtatadigan darajaga yetkaziladi. So'ngra maxsus klapan yordamida havo kameradan asta-sekin chiqarila boshsanadi. Bilakning tirsak bukumidagi arteriyadagi tovush fonendoskop orqali eshitiladi. Yelka arteriyasini siqib turgan manjet ichidagi havo bosimi qon tomiri-dagi qon bosimidan sal pasayganida qon manjet tagidan oqib o'ta boshlaydi. Manjetdag'i havo bosimi tekshirilayotgan arteriyadagi qonning sistolik bosimiga tenglashib sal pasayganida, arteriyaning qisilgan joyidan katta bosim bilan oqib kelayotgan qon manjet tagidan uzilib-uzilib oqib o'tishidan o'ziga xos tovush hosil bo'llib, bu tovush fonendoskopdan eshitiladi. Manjetdag'i havo bosimi qonning maksimal, sistolik bosimiga baravarlashganini mano-

## 19-dars. QON TOMIRLAR FAOLIYATINING BOSHQARILISHI

**50-rasm. Odam (A) va hayvonlarda (B) qon bosimini o'chish:**

- A. 1—sigmomamanometr;  
2—rezina xalta; 3—fonendoskop;  
4—rezina balloncha; 5—rezina naychalar. B. 1—uyqu arteriya-simng terisi yuzasi; 2—maxsus manjet; 3—fonendoskop; 4—simobli manometr; 5—rezina balloncha.



metning simob ustunidan ko'rildi, bu vaqtida tekshirilayotgan hayvon qonining arteriyadagi bosimi sistolik yoki maksimal bosim deb yuritiladi. So'ngra manjetdagi havo yana chiqarila boshlanadi. Manjetdagagi havo bosimi arteriyadagi qonning diastolik bosimiga tenglashganida fonendoskopda tovush eshitilmaydi. Tovushning yo'qolish payti manometr simob ustunining qaysi darajasiga to'g'ri kelgani belgilanadi. Bu diastolik yoki minimal bosimga teng bo'ladi. Talaba tajriba davrida olgan ma'lumotlarni daftariга yozadi va xulosasi qiladi.

### Nazorat savollari

1. Qon bosimi nima? Uning hosil bo'lishi nimalarga bog'liq?
2. Maksimal, minimal va puls bosimlarini tushuntirting.
3. Qon bosimiga ta'sir etuvchi omillarni ayting.
4. Gipertonya va gipotonika nima?
5. Qon bosimi qanday va qaysi usullar bilan aniqlanadi?

**Darsning maqsadi:** qon tomirlar faoliyatining nerv sistemasi orqali boshqarilishini bilish va uni Klod Bernar tajribasida o'rganish. **Dars uchun kerakli hayvon, jhozlar va reaktivlar:** quyon, skalpel, pinset, qaychi, 5 ml li shpris, igna, paxta, yod eritmasi, 40 % li uretan.

Qon tomirlar devorining akasriyat qismini silliq muskular tashkil qiladi. Tomirlar devori bir maromda uzluksiz kelib turadigan ta'sirlar ostida doimo bir qadar qo'zg'algan holda, ma'lum tonusda bo'ladi. Tomirlar tonusining me'yordan ortiq pasayishi ularning kengayishiga, oshib ketishi esa torayishiga olib keladi. Tomirlar tonusini markaziy nerv sistemasi simpatik va parasimpatik nerv tolalari orqali boshqaradi. Tomirlar tonusini oshiruvchi, tomirlarni toraytiruvchi nervlar — **vazokonstriktorlar** simpatik nerv sistemasiga taalluqli tolalardir. Ammo yurak toj tomirlari, miya tomiriarini boshqaruvchi nervlar bundan istisno, chunki simpatik nerv tolalari qo'zg'alganda bu organ tomirlarining devori kengayadi.

Tomirlar tonusini pasaytiruvchi, tomirlarni kengaytiruvchi vazodilatator nerv tolalarining ayrimlari parasimpatik nerv sistemasiiga taalluqli bo'lsa-da, aksariyat qismi simpatik nerv sistemasi stvoli tarkibida keladi.

Simpatik nerv sistemmasining tomirlarni toraytitib boshqarish xususiyatini dastlab, 1842-yili A.P. Valter isbotlagan edi. U baqa quymuch nervining simpatik tolasini kesganda oyoq qon tomirlarining kengayganligini kuzatgan.

Keyinchalik, A.P. Valterning tajribasini K. Bernar 1852-yilda quyonlarda o'tkazgan tajribasi bilan tasdiqladi. K. Bernar quyoning bo'ynidagi simpatik nerv tolesi kesiganda qulq suprasi tomlaring kengayganligini, kesilgan nerv tolasining qulqoqa yo'naligan uchi ta'sirlanganda esa, quloq tomlarining torayganligini kuzatdi. Kuzatishlar natijasida simpatik nerv sistemmasining bunday xususiyati organizmning boshqa qismlaridagi qon tomirlariga ham ekranligi isbotlandi.

Tomirlar tonusini boshqaradigan asosiy markaz uzunchoq miyada joylashgan bo'lib, bu markaz 1871-yili F.V. Ovsyannikov tomonidan aniqlangan. Tomirlar tonusini boshqaradigan bu markaz ikki qismidan: tomirlarni toraytiruvchi va tomirlarni kengay-

tiruvchi qismardan iborat. Markazning qon tomirlar tonusini oshirib tomirlarni toraytiruvchi qismi tomirlar devoridan kelayotgan impulslar, qondagi kimyoviy moddalar – karbonat angidrid, sut kislotasi va boshqalardan doimo tonik qozg' algan bo'ladi va tomirlarni toraytiruvchi impulslarini tomirlar devoriga uzlusligi yuborib turadi. Tomirlarni kengaytiruvchi qism tonusi ancha past, shuning uchun tomirlarga keladigan impulslar siyrak va zaifdir.

Uzunchoq miyadagi markaz arteriya qon tomirlari bilan bir vaqtta vena qon tomirlari sig'imini ham boshqaradi va simpatik nerv tolalari orqali ularga kengaytiruvchi impulslar yuboradi.

Orqa miyaning yon shoxlariida tomirlar harakatini boshqaruvchi ikkinchi darajali markaz bor. Bu markaz ham tananing ayrim qismalaridagi qon tomirlariga tomirlarni toraytiruvchi impulslar yuborib turadi. Uzunchoq miyadagi markazning tomirlarni toraytiruvchi qismi shikastlanganda, orqa miyadagi markazlar tananing ayrim qismidagi arteriya va arteriolalarga tomirlarni toraytiruvchi impulslar yuborib, qon bosimining me'yorlashishiga yordam beradi. Bularidan tashqari, oralig' miyada, bosh miya yarimsharları po'stlog'ida ham tomirlar faoliyatiga ta'sir qiladigan markazlar bor.

Qon tomirlar tonusi MNS, jumladan, simpatik va parasimpatik nerv tolalari tomonidan boshqariladi. Simpatik nerv tarkibida tomirlarni toraytiruvchi tolalar ko'p bo'lib, shu nervning qon tomirlariga ta'sirini nervni kesib yoki ta'sirlab o'rgansa bo'ladi. Bu tajribani oq rangli quyonda o'tkazish quayadir. Chunki quyon qulog'i bo'ruvchi simpatik nerv adashgan nervdan ajalgan holda joylashgan.

## Klod Bernar tajribasi

Quyon qorni yuqoriga qaratilib, fiksatsiyalovchi stolga yotqizilib, oyoqlari to'rt tomonga tortib bog'lanadi, mahkamlanadi. Qon tomiriga 3–5 ml 40% li uretan yuboriladi. Bo'yin qismidagi juni olinadi. Quyon uxlagandan keyin bo'yin sohasi terisini oq chiziq bo'yicha kesiladi.

Muskullari yorilib, traxeya atrofidagi qon tomir topiladi. Bututamda uyqu arteriyasi, sayyoh, simpatik va qon tomirlarni kengaytiruvchi (depressor) nerv joylashgan. Shu tutamda ko'kish-qoq rangli simpatik nerv tolasi muskullar ichiga tushirilib, jarohat tikiladi. Nerv bog'langan ip yuqorida qolishi kerak. Quyon bo'yining tikilgan joyiga 5 % li yod surtilib, qafasga solib qo'yiladi.

10–60 daqiqadan keyin quyon

quloqlarining rangi va harorati tek-

hirladi (51-rasm).

Simpatik nerv tonusini kesilgan tomondagi quloq qizil

iusga kiradi, uning qon tomirlari esa

kengayadi. Quloqlarning harorati

tekshiriladi va farqi taqqoslab ani-

linadi. Simpatik nerv tolasi bog'lan-

gan ip asta-sekinlik bilan tortilib,

elektr toki bilan ta'sirlanadi. Elektr

toki yordamida qitiqlaganda qon

tomirlar torayyadi, quloq oqaradi va

soviyi. Simpatik nervga ta'sir ko'r-


ish to'xtatilgandan keyin quloq

tomirlari yana kengayadi. Bu tarzdagi ta'sirlar bir necha marta

uktorlanib, simpatik nerv ta'sirida tomirlarning torayganiga

shonch hosil qilinadi.

51-rasm. Klod Bernar tajribasi:  
1—nervi kesilnagan, 2—nervi  
kesilgan quloq tomirlari.



## NAZORAT SAVOLLARI

1. Qon tomirlari tonusi qanday boshqariladi?
2. Tomirlar tonusini boshqaruvchi asosiy markaz qayerda joylashgan va ukin tomonidan o'rganigan?
3. Tomirlar tonusini boshqaruvchi quyi markazlar ishini tushuntiring.
4. Vazodilyator va vazokonstriktor deb nimaga aytildi?
5. A.P. Valter va K. Bernar tajribalarining mohiyatini tushuntiring.

## 20-dars. QONNING TOMIRLARDA HARAKATINI KUZATISH

**Darsning maqsadi:** qonning tomirlarda harakati va uning alhamiyatini bilsin. Qonning tomirlarda harakatini mikroskop ostida o'rganish. Kapillaroskopiya.

**Dars uchun kerakli hayvonlar va jihozlar:** baqalar, po'kak luchtachalar, igralar, skalpel, pinset, qaychi, paxta, mikroskop, kinger eritmasi.

Qonning qon tomirlarda oqish tezligi ularning diametriga bog'i: aortada 400–500 mm/soniya, arteriyada 150–200 mm/soniya va kapillarlarda 0,5 mm/soniya tezlikka teng bo'lib, moddalar almashinishiga quay. Yurak diastolasi davrida qonning arteriyalarda

oqishi sekinlashadi. Qon tomirlari naychaga o'xshagini, qon suyuqlik bo'lgani tufayli qonning tomirlarda harakatlanishi (gemodinamika) suyuqliklarni naychalarda oqish qonuni gidrodinamikaga bo'yusunadi. Demak, qon ham boshqa suyuqliklar singari bosim yuqori tomonidan bosim past tomonga qarab hurni kattanadi, qonning oqish tezligi uning yopishqoqligiga, tomirlar devori bilan qon zarrachalarining ishqalanishidan hosil bo'ladigan qarshiikkha bog'liq. Qon hayvon organizmida murakkab biologik sharoitlarda harakat qilib, organizmda ro'y beradigan fizik hodisalarga xos xususiyat beradi. Demak, hayvonlar organizmining hayotiy jarayonlarida kapillarlarning ahamiyati benihoya katta bo'lib, qon va to'qimalar o'rtaisdagi moddalar almashni ta'minlaydi.

Kapillarlardan devorlarining turli-tuman moddalarini o'tkaza olishi, ularda qonning juda sekin oqishi, kapillarlar umumiy yuzzasini haddan tashqari katta bo'iishi qon bilan to'qimalar o'rtaisdagi moddalar almashinuvini belgilaydigan muhim omillardan hisoblanadi. Kapillarlardan devori bir qavat endoteliy hujayralaridan tuzilgan bo'lib, qonda erigan moddalar shu hujayralar orqali diffuziyalanadi. Katta qon aylanish doirasidagi kapillarlardan bir necha milliard bo'fgani uchun kapillarlar evaziga qon yo'fi ancha kengayadi. Ishlab turgan barcha kapillarlar ko'ndalang kesimidan 600—800 barobar ortiq bo'lgani uchun ularda qon oqish tezligi 600—800 barobar kam yoki 0,3—0,5 mm/somyani tashkil qiladi. Bu tezlikni mikroskop ostida eritrotsitlarni kapillarlarda harakat tezligini o'chab aniqlash mumkin. Har bir kapillarning uzunligi 0,3—0,7 mm, diametri 8 mikrometr bo'lib, turli organlardagi kapillarlarning shakli va kattaligi hamda soni turlichadir. Yurak bilan bir xil balandlikda turgan kapillarlardagi bosim uning arteriyalari oxirida taxminan 25—30 mm, vena oxirida 8—12 mm ni tashkil etadi.

Skelet muskullarining 1 mm<sup>2</sup> ko'ndlalang kesim yuzasiga to'g'ri keladigan kapillarlar soni A. Krog va uning shogirdlari tomonidan, organizm hayoti davrida tush suyuqligi yuborib o'rganigan. Har xil turga mansub hayvonlar organizmidagi turli organlarda kapillarlarning miqdori, shakli va hajmi har xil. Moddalar almashtinuvi tez kechadigan, faol ishlaydigan organlarda kapillarlar ning miqdori moddalar almashinuvni sustroq kechadigan, bir-muncha osoyishta holda turadigan organlardagiga qaraganda bir necha baravar ko'proqdir. Organning qon bilan ta'minlanish da-

rujusi undagi kapillarlar soni, ulardan oqib o'tayottgan qon miqdoriga hamda uning faoliyk darajasiga bog'liq bo'lib, turli organlar ning 100 g vaznidan oqib o'tayottgan qon miqdori qalqonsimon kichiklarda 50, miyada 65, taloqda 70, me'dada 35 ml ni tashkil etadi.


Har xil turga mansub hayvonlar organizmida kapillarlar soni kuchcha bo'lib, ko'ndlalang kesimi 1 mm<sup>2</sup> keladigan muskulga nisbatan hisob qilinadigan bo'lsa, otlarda — 1400, itlarda — 2600, dengiz cho'chqalarida 4000 tagacha kapillar bor. Alovida olingan har bir kapillarning uzunligi o'rtacha 0,5 mm atrofida, diametri 1—20 mkn ga teng bo'lib, undan 1 soniya davomida tegishli miqdordagi qon oqib o'tadi.

Kapillarlarning arteriya qismida qonning gidrostatik bosimi 30—40 mm sim. ust.ga teng bo'lib, qonning onkotik bosimidan 5—10 mm balanddir. Bosimlarning bu tafovuti plazmada erigan turli moddalar: glukoza, aminokistotalar, tuzlar va boshqalarning qondan suv bilan birga to'qima oraliq bo'shilqilariga o'tishini ta'minlaydi. Qon kapillarlarning arteriya qismidan vena qismiga oqib o'ta turib, gidrostatik bosimining belgili qismimi qarshiliklarni yenish uchun sarflaydi. Oqibatda kapillarlarning vena qismida qonning gidrostatik bosimi qariyb 15 mm sim. ust. ga tenglashib qoladi. Ayni vaqtda qonning onkotik bosimi gidrostatik bosimidan 5—10 mm baland bo'ladı. Bu esa tegishli moddalar (metabolitar)ning to'qima oraliq suyuqliqidan qonga shimalib o'tishini ta'minlaydi. Ana shu konuniyatlar asosida kapillarlarda qon bilan to'qimalar orasida moddalar almashinuvi sodir bo'lib turadi.

Kapillarlarning funktsional holatiga harorat, pH ko'rsatkichi, sut kislotosi, gistogramin, asetilkolin, gormonlar va zaharli moddalar la'sir ko'rsatadi. Kapillarlar devorining moddalarini o'tkazish qobiliyatining o'zgarishiga gialuron kislotosi, qondagi kislotorod miqdori, kalsiy ionlari va boshqalar ta'sir qiladi. Organ faol ishlayotganda hosil bo'ladigan almashinuv mahsulotlari — gistogramin, asetilkolin, sut, ko'mir kislotalari nafaqat tomirlarni kengaytudi, balki nerv sistemasining reflektor reaksiyalariga ham ta'sir ko'rsatib, organga qon oqib kelishini kuchaytiradi.

Qonni turli organ va to'qima kapillarlarida harakatlanshimini kapillaroskopiya deyilib, uni quyidagi tajribalarda o'rganiladi (52-rasm).


## 2-ish. Ichak tutqich pardasida qon aylanishini kuzatish



52-rasm. Baqa organlari kapillarlarida qon aylanishini o'rganish:  
1—ichak tutqich; 2—tili; 3—oyoq suzgich pardasi; 4—o'pkasi.

## I-ish. Baqanining oyoq suzgich pardada kapillarlarida qon aylanishini kuzatish


Harakatsizlantirilgan baqani qorin tomoni bilan po'kak taxtachaga yotqizib, orqa oyoq'idagi suzgich pardada taxtachadagi teshik ustiga yoziladi (pardani biroz taranglashtirish uchun unli chetlarini teshik atrofiga ignalar bilan tortiladi). Agar pardada kuchli taranglashsa, undagi kapillarlar siqilib, qon oqishi to'xtaydi. So'ngra, taxtachaga mahkamlangan baqani mikroskop stoliga qo'yib, oyoq suzgich pardasidagi kapillarlarda qon oqishi kuzatiladi (53-rasm). Bunda tomirlardagi eritrotisitlarning oqishi e'tibor berib kuzatish lozim.




53-rasm. Baqa oyoq suzgich pardasi tomirlarining mikroskop ostida ko'rinishi:

- I. Baqa oyog'ini mahkamlash. II. Baqa oyoq suzgich pardasini mikroskopda kuzatish. I, 2, 3—arteriyalarning ko'rinishi;
- 4, 5—kapillarlar to'riming mikroskopda ko'rinishi; 6—vena;
- 7—venularlar; 8—xematoforlar.

## 3-ish. Baqa tilida qon aylanishini kuzatish




54-rasm. Ichak tutqich pardasidagi tomirlarining mikroskop ostida ko'rinishi.



55-rasm. Baqa tilida qon aylanishi.

#### **4-ish. Baqa o'pkasida qon aylanishini kuzatish**



##### **56-rasm. O'pkadagi kapillar to'ning mikroskop ostida ko'riishi:**

1—o'pka bo'lagi; 2—o'pka arteriyasining shoxjanishi; 3—o'pka alveolalari; 4—o'pka kapillarlar.

to'riga, undan qon oqish o'zgarishiga e'tibor beriladi.



#### **NAZORAT SAVOLLARI**

1. Gidrodinamika, gemondinamika va kapillaroskopiya nima?
2. Kapillararning soni, diametri, uzunligi va organizm uchun ahamiyatini tushuntiriting.
3. Kapillararning arteriya va vena qismlaridagi gidrostatik hamda onkotik bosimlar necha millimetrr simob ustuniga teng?
4. Kapillararning arteriya qismida kechadigan moddalar almashinishini tushuntiriting.
5. Kapillararning vena qismida kechadigan moddalar almashinishini tushuntiriting.

### *III bob. NAFAS FIZIOLOGIVASI*

Nafas olish va chiqarish jarayonida organizm kislorodni qabul qilib, karbonat angidridni ajratib chiqaradi. Organizmda kislorod oksidalanish jarayonlarida ishtirok etib, energiya ajralib chiqishini ta'minlaydi, bu energiya alohida olingan organ va umumiy organnining funksional holatini belgilaydi. Hayvonlar nafasi: tashqi nafas tashqi muhitdan o'pkaga kislorodning olinishi va alveolalar bilan qon o'rtasidagi gazlar almashinishi, gazlamning qon bilan tashilishi, ya'ni o'pkadan to'qimalarga kislorod, to'qimalardan o'pkaga karbonat angidrid tashilishiда ishtirok etadi. Ichki nafas to'qima hujayalarini bilan qon o'rtasidagi gaz almashinishini, ya'ni kislorodning to'qimalarda o'zlashtirilishi va ularning karbonat angidridni ajratishini amalga oshiradi. Kislorodning o'pkadan to'qimalarga va karbonat angidridning to'qimalardan o'pkaga tashilishi qon orqali amalga oshiriladi. Shuning uchun amaliy mashg'ulotlarda talkaba nafas olish va chiqarish jarayoni, gazlar almashinishing mohiyati, nafas jarayonidagi himoyaviy reflekslar, o'pka ventilatsiyasi va nafassing neyrogumoral yo'l bilan boshqarilishi haqida tanishib chiqadi.

#### *21-dars. O'PKA FAOLIVATINI O'RGANISH USULLARI*

**Darsning maqsadi:** o'pkaning tuzilishi, vazifalari, ahamiyatini bilish va uning faoliyatini tekshirish usullarini o'rGANISH.

**Dars uchun kerakli hayvonlar va jihozlar:** qishloq xo'jalik va laboratoriya hayvonlari, plissimet, perkussiya bolg'achasi, fonendoskop, kimograf, pnevmograf.

**Nafas** – organizma qabul qilingan kislorodning to'qimalarda iste'mol qilinishi, shuning natijasida karbonat angidrid gazi va suvning arialib chiqishini ta'minlab beradigan biokimyoiyi Jurayonlarni o'z ichiga oladigan fiziologik akidir.

Yuqori taraqqiy etgan hayvonlarda nafas jarayoni quyidagi bosqichlardan tashkil topgan:

## 1. Tashqi nafas:

a) tashqi muhit bilan o'pka alveolalari o'rtasida havo almashinishi;

b) alveola havosi bilan qon o'rtasida gaz almashinishi.

## 2. Gazlarning qon bilan tashilishi:

a) O, ning o'pkadan to'qimalarga

b)  $\text{CO}_2$  ning o'pkadani qon bilan tashishin,

### 3. Ichki nafas:

- a) qon bilan to'qimalar o'rasisida gaz almashinishi;
- b) hujayralarning O<sub>2</sub> ni iste'mol qilib, CO<sub>2</sub> ni airatib chiqarishi.

(hujayralar nafasi).

Demak, ሚኑ እንደታወቃ ተስፋል ነው እና የሚከተሉት የሚያስፈልግ ስምምነት መረጃዎች ይዘሩታል:

O'pka yaxshi taraqqiy etgan juft organ bo'lib, ko'krak qafasida.

berk bo'shiqda joylashgan. Har qaysi o'pka shaklan konusga  
o'shshagan bo'iib ustki nismi - **"uchi** pastki nismi esa **asosi** debi

O'rnegan bo'lo, usha qismi **dean**, boshqa qismi esa **asosan** ataladi. O'pka burun, og'iz bo'shilqlari, tomoq, hinqildiq, kekirdak.

Bronxlar orqali tashqi muhiiga tutashgan. Bronxlar diametriiga

Uchinchiligi tarqibli bronxlar bo'linib, farmonqanib, juda ingichki qarab bineni, ikkheni, uchheni tarqibli bronxlarga bo'libadi.

naychalarini – bronxiolalarini hosil qiladi. Bronxiolalar havo putlik

chalar – a<sup>veo</sup>a<sup>lar</sup> ta<sup>shki</sup> ci<sup>la</sup>ji Ullarning devori bir qavat huiavra<sup>ar</sup> u

tashkil topgan bo'lib, u yerda bir talay kapilar qon tomirlar

chirmashib, to'r hosil qilgan. Bu kapillarlarning devori ham bli-

Kapıllarda gəvənlik qən bilən alveola işçidəyi həyətə qədər qəbul etmək və təqib etmək.

gaz almashinuvining amalga oshishi uchun juda yaxshi sharollari.

vujudga keladi. Chunki alveoladagi havo bilan kapilarlardagi qon-  
bu uvarda bor-wa<sup>o</sup>si calirligi 0,004 mm keladiqen huvaqa qat' ambi-

bu yeter bir-yo g i qatunngi 6,007 nini kelaingan nujaya qatunngi bilan bir-biridan ajralgandır.


Alveolalarning soni juda ko'p bo'lib, umumiy yuzasi haddan

tashqari keng. Bu esa o'pkada gaz almashtiruvning hikoyatda keliy

O'pka orqali gaz almashinib turishi uchun unga to'xtovsiz

ravishda havo kirishi va undan tashqariga to'xtovsiz ravishda havo chiqarilib turishi kerak. Buning uchun u to'xtovsiz ravishda kengayib va toraylib turishi zarur. O'pkaning o'zida uning kengayib-torayib turishini ta'minlab turadigan xususiy muskul yo'q. Ammo u ko'krakk qafasining berk bo'shilg'ida joylashganligi sababli ko'krak qafasi

*I-rangli rasm. Hayvonlar qonining tarkibi va xususiyatlari*




| Komponentlar     | Qoramol | Ot    | Qo'y  | Cho'chqa | Tovuq |
|------------------|---------|-------|-------|----------|-------|
| Suv, %           | 90      | —     | —     | 93       |       |
| Oqsil, g %       | 7,5     | 7,0   | 6,5   | 7,35     | 4,8   |
| Glukoza, mg %    | 55,0    | 75    | 60,0  | 50,0     | 120,0 |
| Kolesterol, mg % | 110,0   | 77,0  | 100,0 | 85,0     | 120,0 |
| Tuzlar, mg %     |         |       |       |          |       |
| shu jumladan,    |         |       |       |          |       |
| Na               | 333,0   |       |       |          |       |
| K                | 19,0    | 320,0 | 325,0 | 335,0    | 375,0 |
| Ca               | 11,0    | 18,0  | 19,0  | 20,0     | 22,0  |
| Mg               | 3,5     | 12,0  | 11,5  | 12,0     | 20,0  |
| Umumiy P         | 11,0    | 2,5   | 2,5   | 3,0      | 2,3   |
|                  | 12,5    | 11,5  | 10,0  | 10,0     | 33,0  |

### 2-rangli rasm. Leykotsitar formula

Hayvon .....

### 3-rangli rasm. Qo'y qonidagi granulotsitlar


| Klinik tashxis ..... | Sana..... | 200,2 | % |
|----------------------|-----------|-------|---|
| Bazofillar           |           |       |   |
| Eozinofillar         |           |       |   |
| Miyelotsit           |           |       |   |
| Tayoqcha yadroli     |           |       |   |
| Bo'g'im yadroli      |           |       |   |
| Limfotsitlar         |           |       |   |
| Mono-sittlar         |           |       |   |



1, 2—miyelotsit, 3, 4—yosh, 5—8—tayoqcha yadroli, 9—20—bo'g'im yadroli neytrotillar.


Hayvonlar qonidagi leykoisitar formulani hisoblash shakli. Rasmida 10

#### 4-rangli rasm. Elektrokardiografiya




*P*—chap va o'ng bo'lmachalar qisqorganida hosil bo'lgan tishcha; *P*—*Q*—Kis-Flek tugunidan qo'zg'alishning Ashoff-Tavar va o'ng qorinchaga o'tkazilish vaqt; *Q*—qorinchalararo to'siq, yurak o'ng qorinchasi va uchida qo'zg'alish paydo bo'lishi; *R*—qorinchalar yuzasi qisqorganidagi qo'zg'alish; *S*—qorinchalarning bir xil kuchda qo'zg'alishi; *T*—muskullarda moddalar almashinish jarayonini ko'satuvchi depolyarlamish to'lqinlari tawaffi; *S*—*T*—qorinchalarning so'ng qo'zg'alishi va ularning borishishi.

#### 5-rangli rasm. Yurakning o'tkazuvchi sistemasi




Stannius bo'yicha qo'yilgan bog'lamlar.

6-rangli rasm. Yurak faoliyatining boshqarilishi




1—bos va orqa miya markazlari; 2—parasimpatik nerv; 3—yulduzsimon tugun; 4—simpatik nerv.

7-rangli rasm. Kavsh qaytaruvchi hayvonlar katta qornida ozqa hazmlanishi



*8-rangli rasm. Sharli reflektor bog'lanishlarning  
hosil bo'lishi mexanizmi*



A. So'lak ajralishining shartsiz refleks yo'lli. B. Bosh miya yarimshartlari po'stlog'ining eshitish organi bilan aloqa yo'lli. D. Sharli ta'sirotchi va sharli oziqaviy qo'zg'atuvchining tarqalish yo'llari va ularni bosh miya yarimshartlari po'stlog'idagi o'zaro aloqadorligi. E. So'lak ajralishining sharli refleks yo'lli.  
 1—tit; 2—uzunchoq miya; 3—po'stlogning shartsiz oziqylanish markazi;  
 4—so'lak bezzi; 5—qo'ng'iroq; 6—qulqoq; 7—bosh miya po'stlog'i vaqtinchalik so'lak ajratish shartli refleks markazining eshitish sohasi; 8—so'lak.

Kengayganda kengayadi, torayganda esa torayadi, qisiladi. Shu tariqa o'pka ko'krak qafasining faol harakatiga ergashib, zaif harakat qiladi. Junday harakat hayvon tug'ilgan zahotiyoy paydo bo'ladi.

O'pka faoliyati quyidagi usullar yordamida tekshiriladi:

**1. Kuzatish** usuli bilan ko'krak qafasi ko'zdan kechiriladi,

nafus chastotasi va maromi (ritmi) aniqlanadi.

**2. Palpatsiya** usuli — barmoqlar bilan ko'krak qafasini tuyapslab, og'riq, harorat va o'zgarishlar aniqlanadi.

**3. Perkussiya** usuli bilan o'pkanning joylashish chegarasi aniqlanadi. Bu usulda perkussiya bolg'achasi va plessimetr asbobiniidan foydalaniladi.

O'pkanning joylashish chegarasi quyidagi kasalliklar vaqtida o'zgaradi: atelektaz — o'pkanning puchayib ketishi; emfizema — o'pkanning kengayib ketishi; plevraniнg yallig'lanishi.

**4. Auskulatsiya** usuli bilan nafas tovushlari — showqinlari nihqlanadi. Bu usulda stetoskop, fonendoskop va stetofonendoskop nihqlanadi. Bu usulda foydalaniladi.

Ikki xil fiziologik showqin farqlanadi:

a) bronxial showqin — «X» harfi talaffuzida eshitiladi va it humda kavsh qaytaruvchi hayvonlarda kuzatiladi.

b) vezikular showqin — «F» harfi talaffuzida, ot va odamlarda eshitiladi.

Agarda bu showqinlarga boshqa tovushlar qo'shilsa, unga patologik showqinlar deyiladi.

**5. Rentgenoskopiya, rentgenografiya, fluorografiya** — rentgenologik tekshirish usullari bo'lib, rentgen nurlari yordamida o'pka faoliyati o'rganiladi.

**6. Spirometriya** — o'pkanning tiriklik sig'imini aniqlash usuli. Bunda spirometr asbobidan foydalaniladi.

**7. Pnevografiya** pnevmograf yordamida nafas harakatlarini yozib olib, o'rGANISH usulidir. Bu usul nafas ritmi, kuchi va har ill o'zgariishlar to'g'risida fikr yuritishga imkon beradi.

### Pnevografiyani o'tkazish tartibi

*Ishni bajarish tartibi.* A. Pnevografiyani o'tkazish uchun pnevmograf belbog'i hayvonning ko'krak qafasiga bog'lab qo'yildi. Nafas olgan vaqtida ko'krak qafasi kengayib, nafas chiqarganda torayib turadi. B. Pnevografi belbog'i odam ko'krak qafasining oldingi qismiga o'ralib, Mareya kapsulasi yozuvchi perosini islangan baraban yuzasiga tegizildi. Rezina balloncha bilan xalta ichiga havo

yuborilib, uning chiqib ketmasligi uchun rezina naycha sharchi yuqorisidan qistirib qo'yildi. Ko'krak qafasi kengayganda havo xalta ichida qislib, Mareya kapsulasiga o'tib yozuvchi peroni yuqoriga ko'taradi, torayganda esa havo Mareya kapsulasidan xalta ichiga o'tib, yozuvchi pero pastga tushadi. Demak xaltadagi bosimning o'garishi yozuvchi peroni harakatga keltirib, bu harakat ko'krak qafasining oldindi, o'rta qismi va qorindan nafas olish va chiqarishni tiplarini o'rganish maqsadida yozib olinadi. Bunda harakkatlar:

1. Tinch nafas olganda;
2. Tez va chuquq nafas olganda;
3. Uzoq nafas olmay turganda;
4. Odam gaplasib turganida yoki hayvon oziga iste'mol qilayotgan davrda aniqlanadi.

Yozib olingan egri chiziqqa pnevmogramma deyiladi. Tajriba pirovardida bir daqiqadagi nafas olish va nafas chiqarish soni, ularga ketgan vaqt hisoblanadi, tahlli qilinadi.



## NAZORAT SAVOLLARI

1. O'pkaning tuzilishi va faoliyatini tushuntiring.
2. O'pka folyiatini tekshirishning qanday usullarini bilasiz?
3. Nafas jarayoni bosqichlarini tushuntiring.
4. Bronxial va vezikular tovushlar nima?
5. Pnevmatografiyanı o'tkazish tartibini tushuntiring.

## 22-dars. NAFAS OLISH VA NAFAS CHIQARISH MEXANIZMI

**Darsning maqsadi:** nafas olish, nafas chiqarish, nafas olish tiplari haqida tushunchaga ega bo'lish, nafas olish va nafas chiqarish mexanizmini Donders modulida o'rganish.


**Dars uchun kerakli hayvonlar va jahozlar:** baqalar, tagi aylana qilib kesilgan shisha idish, rezina moslama, po'kak tiqin, ikkita shisha may, kanyula.

Organizmdagi barcha fiziologik funksiyalarning ro'yobga chiqishi uchun kerak bo'ladigan energiya, asosan, organizmda kuzatiladigan oksidlanish-qaytarilish jarayonlari natijasida hosil bo'lub, oksidlanish jarayoni kislород ishtirokida ro'yobga chiqadi. Sudralib yuruvchilar, qushlar va sut emizuvchilar tashqi muhit bilan organizm o'rtaсидаги gaz almashinishi, asosan, o'pka orqali ro'yobga chiqadi.

O'pka orqali gazlar almashinib turishi uchun u to'xtovsiz niwshda kengayib-torayib turishi zarur. Natijada o'pkaga havo kirib, undan tashqariga chiqarilib turadi.

O'pkaga havo olish nafas olish yoki **inspiratsiya**, o'pkadan havoning tashqariga chiqarilishi **ekspiratsiya** deb ataladi.

**Nafas olish mexanizmi.** Nafas olish ko'krak qafasining eniga, bo'yiga va balandligiga kengayishi hisobiga sodir bo'ladi. Inspiratsiya myтида qovurg'alararo tashqi tishsimon muskular qisqarishi (57-rasm) natijasida ko'krak qafasi eniga kengayadi. Diafragmaning qorin bo'shilig'i tomon tortilib, konus shakliga o'tishi natijasida ko'krak qafasi bo'yiga kengayadi. To'sh suyagining pastga tushishi hisobiga ko'krak qafasi balandligiga kengayadi. Oqibatda ko'krak qafasining ketidan o'pka ham kengayib, uning ichidagi bosim pusayadi. Natijada tashqaridan o'pkaga havo so'rib olinadi.



57-rasm. Qovurg'alararo tishsimon muskullarning ish tartibi:

- 1, 2—ikkitatdan gorizontal va vertikal plastinkalar; 3—muskul; 4—rankarning gorizontal plastinkasi, u nafas olishda ko'tarilib, tashqi tishsimon muskullar va qovurg'alarning harakatlanshimini ko'rsatadi.

Havo so'rilishi o'pkaning batamom kengayib, ichidagi bosim atmosfera bosimi bilan teng bo'lganigacha davom etadi. Nafas olinayotganda ko'krak qafasining eniga faol kengayishi tufayli, ko'krak bo'shilig'idagi bosim sezilarli darajada pasayadi. Masalan, yirik hayvonlarda ko'krak bo'shilig'idagi bosim 30–50 mm simob ustuningacha pasayib ketadi, natijada o'pkaning kengayishi uchun juda yaxshi imkoniyat tug'iladi. Ko'krak qafasining kengayishida ishtirok etadigan qovurg'alararo tashqi tishsimon muskullar inspirator muskullar deyiladi.

**Nafas chiqarish mexanizmi.** Inspiratsiya, ya'ni havoning o'pkaga so'rilishi tugashi bilan nafas chiqarish jarayoni — ekspiratsiya


boshlanadi. Nafas olish tugashi bilan qovurg'alararo ichki tishsimon muskullar qisqaradi va ko'krak qafasi o'z og'irigi va elastikligi tufayli oldingi holatini egallashga intilib, siqila boshlaydi. Diafragma ko'krak bo'shilig'i tomon egilib, qavariq holatiga o'tadi. Bu holatga u qorin bo'shilig'idagi organlarning bosishi tufayli keladi. Buning natijasida ko'krak qafasi va unga ergashib o'pka ham toraya boshlaydi. To'sh suyagi esa o'z vaziyatini egallaydi. Shunday qilib, hujtomondan ko'krak qafasining torayishi oqibatida o'pka qislib, torayib, undagi havo chiqariladi. Nafas chiqarishda ishtirot etadigan qovurg'alararo ichki tishsimon muskullar **eksipiator muskullari** deyiladi.

Hayvonlarda nafas olishning uch turi farq qilinadi:

1. Ko'krak – qovurg'a bilan nafas olish.
  2. Qorin – diafragma bilan nafas olish.
  3. Ko'krak – qorin bilan yoki aralash nafas olish.
- O'pka ko'krak qafasi kengayganda, qovurg'lar ko'tarilganida v/ diafragma pastga tushganida kengayadi. Nafas olganda qovurg'alarorasidagi tashqi tishsimon muskul qisqarib, qovurg'a ko'tarilib,

diafragma muskullari qisqarib, paylar tortilib, diafragma pastga tushib, ko'krak qafasi kengayib nafasa havo olinadi. Nafas chiqarilganida ko'krak qafasi torayadi. Ko'krak qafasining og'irigi, qovurg'alararo ichki tishsimon muskullar qisqarishi, qorin bo'shilig'ining diafragmaga bosishidan o'pkanning hajmi torayadi va havoni tushqariga chiqaradi. Ko'krak qafasining kengayib-torayib turishini Donders qurilmasida kuzatsa bo'ladi (58-rasm).

### Donders qurilmasi yordamida nafas olish va chiqarish mexanizmini o'rganish



Qurilma shisha idishdan iborat bo'lib, uning tagi aylana qilib kesilgan va rezina moslama bilan o'rab yopilgan, bu rezina moslama diafragma vazifasini o'taydi. Shisha idish og'zi po'kak tiqin bilan mahkamlangan va po'kak tiqin orqali idish ichiga ikkita shisha nay o'tkazilgan. Baqa harakatsizlantirilib, ko'krak qafasi ochilib, pastki lug'i kesiladi, arteriya ostidan jarrohlik ignasi yordamida ip o'tkazilib, traxeyasiga shisha kanyula kiritiladi va ip bilan bog'lanadi. Kanyula bilan birgalikda traxeya va o'pkani ko'krak qafasidan ajratib olinadi va Donders qurilmasidagi shisha idish ichiga tushiriladi. Natijada shisha idish ichidagi havo tashqi havo bilan, tushqaridagi havo esa ichki havo bilan qo'shilinmaydi. Shisha idish ichidagi o'ng tomonda joylashgan nayning uchiga baqaning o'pkasi kanyula orqali mahkamlangan. Chap tomondag'i nay qisqich bilan berkitildi va o'ng tarafdag'i nay yo'li ochiq holda turadi. Rezina moslama pastga tortilib, o'pka hajmining kengayishi kuzatiladi.

Rezina moslamani ichkariga bosganda o'pka hajmining kichraygunligi kuzatiladi. Yana qaytadan moslamani tortib, uni qo'yib yubormasdan qisqich ochib yuboriladi. Bunday holda idishning ichiga havo kiradi va o'pka bujmayib qoladi. Naylar ochiq holda (ochiq pnevmotoraks) diafragmani ko'tarib-tushirish bilan nafas olish va chiqarish mumkin emasligiga ishonch hosil qilinadi.

### NAZORAT SAVOLLARI

1. Nafas qanday jarayon?
  2. Nafas olish mexanizmini tushuntiring.
  3. Nafas chiqarish mexanizmini tushuntiring.
  4. Qovurg'alararo tashqi va ichki tishsimon muskullarning ahamiyati nimada?
  5. Donders qurilmasi qanday tuzilgan?
- 1—rezina moslamani pastga tortish uchun ishlataladigan ilgak; 2—shallot idish; 3—traxeya bilan ulangan shisha may; 4—rezina nayga qo'yilgan qisqich; 5—U shakidagi manometr.*


## 23-dars. O'PKANING TIRIKLIK SIG'IMINI ANIQLASH

**Darsning maqsadi:** o'pkaning tiriklik va umumiyy sig'imi haqidagi tushunchaga ega bo'lish; o'pkaning tiriklik sig'imi spirometr asbobi aniqlashni o'rganish.

**Dars uchun kerakli jihozlar:** spirometr asbobi, paxta, suv, split.

Har bir nafas olganda o'pkaga qabul qilinadigan va undan chiqariladigan havo **nafas havosi** deyiladi. U odamlarda o'rtacha 0,5 l, qo'yarda 0,3—0,5 l, otlarda esa 5—6 l ga teng. Chuqur nafas olganda nafas havosi bilan odamlar 1,5 l gacha, qo'yalar 0,5—1 l, otlar 10—12 l gacha havoni o'pkaga olishi mumkin. Bunga **qo'shimcha havo** deyiladi. Chuqur nafas chiqarilgan payda chiqariladigan havo bilan birga odamlar 1,5 l gacha, qo'yalar 0,5—1 l, otlar esa 10—12 l gacha havoni chiqara oladi. Bunga **rezerv havo** deyiladi.

Nafas havosi, qo'shimcha va rezerv havolarning yig'indisi o'pkaning tiriklik sig'imi deyiladi. O'pkaning tiriklik sig'imi odamlarda 3—4 l, qo'yarda 1,5—3 l, otlarda esa 26—30 l ni tashkil qiladi. O'pkaning tiriklik sig'imi spirometr asbobi yordamida aniqlash mumkin (59-rasm). O'pkaning tiriklik sig'imiidan tashqari uning umumiyy sig'imi ham farq qilinadi. Chuqur nafas chiqarilgandan keyin ham, ya'ni o'pkadan rezerv havo chiqarilgandan



59-rasm. Spirometr.

A—tuzilishi; B—o'pkaning tiriklik sig'imi aniqlash normagrammasi; D—erkaklarda; E—ayollarda. I, 2—tashqi va ichki metall silindr; 3—ko'rish oyinasi; 4—7000 ml gacha bo'lingan shkala; 5—silindr asosi bo'yib vertikal joylashgan metall maycha; 6—naychaga kiygilgan mundshukli rezinat; 7—havo o'tkazuvchi tiqin.

keyin ham unda ma'lum miqdorda, jumladan otlarda 10—12 l havo qoladi, bunga **qoldiq havo** deyiladi. Qoldiq havoning miqdorini iniqlash ancha murakkab.

O'pkaning tiriklik sig'imi tashkil qiladigan havo bilan qoldiq havo yig'indisi **o'pkanning umumiyy sig'imi** deyiladi. Qayd qilinganlarda, o'pka alveolalarida rezerv havo bilan qoldiq havo bo'ldi. Shu sababli bu havolarning yig'indisi **alveola havosi** deyiladi, uning miqdori otlarda 20—22 l, odamlarda esa 3,0—3,5 l atrofida bo'лади.

O'pkaning tiriklik va umumiyy sig'imi organizmning fiziologik holati, ish qobiliyatni, chiniqqonlik darajasiga qarab, shuningdek, turli kasalliklar vaqtida o'zgaradi. Organizmning fiziologik holatini bilish uchun o'pkaning tiriklik yig'imi aniqlash katta ahamiyatga ega.

### Spironetriya. Spirometr asbobi yordamida o'pkaning tiriklik sig'imi o'tkash

1. Suvli spirometr olinadi va uning kiruvchi nayiga mundshuk klygiziladi.

2. Har bir o'chashdan oldin spirometr qopqog'ining rezina tilqini olinib, shkala ko'rsatkichi nol holatiga keltiriladi.

3. Tik turgan holda og'iz bilan chuqur nafas olib, burunni qo'1 bilan yopib spirometrning kiruvchi nayi orqali chuqur nafas chiqariladi va o'pkaning tiriklik sig'imi aniqlanadi. Shunday qilib, uch marta o'chanadi va olingan miqdorlar qo'shilib uchga bo'linadi. Bu o'rtacha miqdor o'pkaning haqiqiy tiriklik sig'imi bo'лади.

4. Erkin turgan holda bir necha marta nafas olib chiqariladi. Shunday holatda besh marta spirometrning kiruvchi nayi orqali tinch nafas olib chiqariladi. Olingan miqdorlar qo'shilib besha bo'linadi. Bu o'rtacha miqdor nafas hajmining kattaligi bo'лади.

5. Oddiy erkin nafas chiqargandan keyin spirometr orqali chuqur nafas chiqariladi. Spirometrda chiqarishning qo'shimcha hajmi bo'лади.

### NAZORAT SAVOLLARI

1. O'pkaning tiriklik va umumiyy sig'imi tushuntiring.

2. Nafas, qo'shimcha va rezerv havo nima?

3. Qoldiq va aveola havosi nima?

4. Odam va hayvonlar o'pkasining tiriklik sig'imi tushuntiring.

5. Spironetriya qanday o'tkaziladi?

Hazm jarayonlarini o'rganish qadim zamondardan beri odamni qiziqtirib kelgan bo'lib, o'sha zamon fanning teksishish usullari ilmiy asoslanmaganligi, ya'ni mukammal bo'lmaganlar tutayli aniq ma'lumotlar olish imkoniyatiga ega bo'imaganlar.

#### IV bob. HAZM SISTEMASINING FIZIOLOGIYASI

Ovqat hazm bo'lishi deb, hazm qilish sistemasining naycha larida oziq-ovqat mahsulotlarining fizik, kimyoiy va mikrobiologik jihatdan murakkab ishlaniishidan o'zgarib, o'zlashtirilishiga aytildi.

Tashqi muhitdan tushgan oziqabop moddalar, ya'ni murakkab birikmalar – oqsillar, yog'lar, uglevodlar holatida olinib, hazm qilish organlariga o'tib, hazm sistemasini shirasi tarkibidagi fermentlar ta'sirida parchalanadi va hazm sistemasining naychalarini orqali o'tayotib, tananing ichki muhitiga so'rilib, organizmning tuzilishi, mahsulot hoslil qilishi va energiya manbayı uchun xizmat qiladi.


Hazm qilishda istirok etuvchi shitalar tarkibida suv, organik moddalar va tuzlar bo'лади. Organik moddalaridan fermentlar hazm jarayonida katta ahamiyatga ega. Hazm jarayonini o'rganishda o'tkir va surunkali usullardan foydalaniildi. Asosiy usullar siatida I. P. Pavlov tomonidan yaratilgan surunkali usullar keng ko'lama qo'llanmoqda. Bu usullar qishloq xo'jalik hayvonlari organizmining anatomoziologik xususiyatlariga qarab bir necha xil yo'nalishda ishlab chiqigan. Mazkur qo'llannada esa ulardan ayrim tajribalar keltirilgan, xolos. Amaliy laboratoriya darslari davomida talabalar hazm sistemasining asosiy bezlari hamda oziqlarning og'iz bo'shilg'i, me'da va ichaklarda hazm bo'lish jarayonlari bilan tanishadi. Bunda asosiy e'tibor hazm organlarining neyrogumoral yo'l bilan boshqarili-shiga qaratilishi lozim.

#### 24-dars. HAZM SISTEMASI FAOLIYATINI O'RGANISH USULLARI

**Darsning maqsadi:** hazm sistemasi faoliyatini o'rganish usullari: fistula qo'yish, bez yo'llarini teri yuzasiga chiqarib tikish, kichik me'dacha bichish, ezofagotomiya va boshqa usullar bilan tanishish hamda ularning amaliy ahamiyatini o'rganish.

**Dars uchun kerakli hayvonlar, jihozlar va reaktivlar:** so'lak yo'liga naycha o'matilgan hayvonlar yoki hayvonlar so'lagi, suv hamnomi, shativ, probirkalar, tomitzichilar, spirt chirog'i, 0,3% li kraxmal eritmasi, distillangan suv, 5% li yod eritmasi.

#### Itlarning quloq oldi so'lak bezini yo'lini tashqariga chiqarib tikish



Jarrolikidan oldin itni tarozida tortilib, terisi tagiga 1 kg tana vuzniga 1 foiz hisobidan 15 ml morfin eritmasi yuboriladi va 20–25 daqiqaдан keyin itni jarroqlik stoliga yelkasi bilan yotqiziladi, oyoqdarli stolning to'rt tononiga tortib bog'lanadi va lunji jundan tozalanadi. Shundan keyin kolepsal, ketalar, efir-xloroformli yoki boshqa aralashmalar bilan narkoz qilinib, uxlataladi. Itning yuqori libi ko'tarilganda, yuqori jag'idan quloq oldi so'lak bezining yo'lli 2-, 3-jag' tishlari ro'parasidan itting og'ziga ochiladigan joyida mayda do'mboqcha bo'лади. Shu do'mboqchaming ko'rniib turgan teshikchasi orqali simdan yasalgan 4–5 sm li maxsus zond ichkatiga kiritilib, teshik atrofidan ingichka igna bilan ikkita alohida belgilangan po'tkaziladi. So'lak bezini yo'lli kichnik qaychi bilan 3–4 sm ichkarida yo'qimalardan ajratiladi. (Qo'yilda quloq oldi so'lak beziga naycha o'matish uchun 3-, 4-juft tishlar qarshisidan teshiladi.) So'lak bezini yo'fidagi zonda qarab, bez yo'lli to'qimalardan ajratiladi. Skalpel yordamida lunj teshiladi, ajratilgan so'lak bezini shu teshik orqali lushqariga chiqarilib, teridagi teshik atrofiga tikiladi (60-rasm). Og'iz bo'shilg'i da hoslil bo'lgan jarohat ham tikiladi. Keyin bezning lushqariga chiqarilgan yo'lli atrofiga 5%li yod va yaraga vazelin surtiladi. Ustidan Mendeleyev zamazkasi bilan teriga yopishtiriladi, doka bilan yopiladi. Uch kundan keyin doka olib tashlanadi, so'lak ujalishi uchun og'iz bo'shilg'i 0,2% li xlorid kislota bilan 5–7

60-rasm. Hayvonlarda quloq oldi so'lak bezini yo'liga naycha o'matish metodikasi.

kun chayqab, yuvib turiladi. 10—12 kun o'tganidan keyin toza so'lak olish mumkin.

I.P. Pavlov laboratoriyasida D.L.Glinsky tomonidan itlar so'lak bezining so'lak chiqish yo'lini kesib, lunjning ichki yuzasidagi shilliq parda kesib olib, keyin lunj devori teshilib, bez yo'lli tashqariga chiqarib tikiqan. Jarohat davolani, bitganidan so'nqorganizm holati ko'rsatkichlari sog'lom organizm holati ko'rsat kichlariga tenglashganidan keyin so'lak yig'ib olib, tekshirishlar olib borilgan.

1833-yili qormiga tasodifly o'q tegib Amerikaning klinikalaridan biriga tushegan oвchida o'tkazilgan kuzatishlar ovqat hazmlining ilmiy asoslangan usullarini o'ргanishga asos bo'ldi. Uning me'dasida o'q bilan ochilgan teshik orqali oshqozonida kechayotgan

hazm bo'lish jarayoni o'rqa-

nilib, bu haqida kitob yozildi.

Bu kurzatish natijalari bilan

Rossiyada 1842-yili rus olim

V.A. Basov tanishib, keyin chalik italyalik olim Blondolit qorin bo'shilg'ini teshib nay-

cha o'rnatish usulini ishlab chi-

qishdi (61-rasm). Bu usul bilan

naycha o'rnatilgan hayvon-

lardan istalgan paytda shira olib

o'ргanish mumkin. Lekin bu



shira hazm bo'lgan oziga bilan aralash bo'лади.

Me'dadan, shira ajralishini o'ргanishning mukammal usuli so'lak, me'da osti bezi yo'llari va o't puғagini teri yuzasiga chiqarib tikish, keyinchalik esa bu qismlarga naychalar o'rnatish metodikasi ishlab chiqildi. Uning laboratoriyasida barchasi surunkali usullar edi. It va qo'yning quoq oldi so'lak bezlariga naychalar o'rnatiilib, buning uchun bez yo'llari lunj orqali teri yuzasiga chiqarilib tikiлади.

«Yolg'ondakam oziqlan-

tirish» — ezofagotomiya usuli

yordamida me'dada reflektor



61-rasm. It oshqozonida shira ajralishi.

shira hazm bo'lgan oziga bilan aralash bo'лади.

I.P. Pavlov tomonidan ishlab chiqildi. Uning laboratoriyasida so'lak, me'da osti bezi yo'llari va o't puғagini teri yuzasiga chiqarib tikish, keyinchalik esa bu qismlarga naychalar o'rnatish metodikasi ishlab chiqildi. Bu usullarning barchasi surunkali usullar edi.


It va qo'yning quoq oldi so'lak bezlariga naychalar o'rnatiilib, buning uchun bez yo'llari lunj orqali teri yuzasiga chiqarilib tikiлади.

«Yolg'ondakam oziqlan-

tirish» — ezofagotomiya usuli

yordamida me'dada reflektor

I—da shira ajralishini I.P. Pavlov laboratoriyasida Shumonov Monovskayalar o'rgangan (62-rasm). Bu usul yordamida reflektor yo'l bilan me'dadan toza shira olish imkoniyatiga ega bo'lindi. Me'dada gumoral fazada shira ajralishini Geydengayn bo'yicha yusagan kichik me'dacha yordamida o'ргanilgan. Ya'ni u asosiy me'da bilan kichik me'dacha o'rtasida nerv aloqalarini saqlamagan holda kichik me'dacha bichdi (63-rasm).



63-rasm. Pavlov (I) va Geydengayn (II) bo'yicha kichkina me'dacha bichish usuli:




A—me'da devorini kesish chizig'i; B—yangi hosil qilinadigan me'dacha qismi; D—jarrohlikdan keyin katta va kichik me'dachalarning joylashishi.

I.P. Pavlov tomonidan bu usul takomillashtirildi, u nerv sistemasi bilan ta'minlangan kichik me'dacha yasab toza shira ajratib olish metodikasini ishlab chiqdi. A.V. Krasnitskiy cho'qolar me'dasidagi oziqalarning turli qatlamlaridagi hazm bo'lish jarayonlarini o'ргanish uchun polizond usulini qo'llagan. Oziqalarning ichaklarda hazm bo'lishini o'ргanish uchun Tiri toza ichak shirasini ajratib olish maqsadida ichakning bir

bo'lakchasi izolatsiya qilish usulini taklif qilgan. Keyinchalik bu usul Vell tomonidan takomillashtirildi, ichakning ikkala uchini teri yuzasiga chiqarib tikib, bu usul Tiri-Vell usuli deb nomlandi. Bu usul bilan tashqariga shira ajralganida organizm katta miqdordu oqsil yo'qotgani uchun A.D. Sineshevov tashqi anastomozlar usulini taysiya qildi, unda ichakning ikkitasi emas, balki to'rtta uchini tashqariga chiqarib tikib, birinchi va ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi fistulalar o'zaro ko'priqcha bilan tutashtiriladi. Toza shira ajratib olish uchun birinchi va to'rtinchi fistulalarning ko'priqchalari bir-biri bilan ulanib, ikkinchi-uchinchi naychalar orqali toza shira ajratib olinadi.

Me'da osti bezi yo'llini teri yuzasiga chiqarib tikish metodikasi birinchi bo'lub, Geydengayn tomonidan, keyin I.P. Pavlov tomonidan qayta ishlaniib, buning uchun me'da osti bezi chiqarish yo'llining o'n ikki barmoq ichakka quyilish joyini ichak devorining bir bo'lakchasi bilan kesib olib, ular bilan birgalikda qorin sohasini terisi ustiga chiqarib tikiladi va ichakning kesilgan joyi tikilib qo'yiladi. Lekin me'da osti bezining yo'lli turli hayvonlarda turilishi joylashishi tajribani ham turli hayvonlarda turilicha o'tkazishni taqozo qiladi. Oltarda me'da osti bezi 12-, 13-qovurg'alar tagidu joylashgani uchun bu tajribani o'tkazish qiyin, birinchi bo'lub bu tajribani 1955-yili N.F. Popov laboratoriyasida Kurilov va Obuxovlar amalga oshirgan. Qoramol va cho'chqalarda bu tajribani o'tkazish uncha qiyinchilik tug'dirmasa-da, naycha o'rnatilgan hayvonlar me'da osti bezi shirasini tashqariga doimo oqib chiqib turgani uchun shira bilan birga bu hayvonlar katta miqdorda azot yo'qotib, ishqoriy xususiyatga ega bo'lgan suyuqliklardan mahrum bo'ladi. Bu organizmda kislota-ishqor muvozanatini buzib, asedoy rivojlanshisha va natijada haywoning nobud bo'lishiga olib keladi. Bu tajriba keyinchalik 1965-yili D.S. Jilov tomonidan takomillashtirilib, u o'n ikki barmoq ichakkni me'da osti bezi yo'llini izolatsiya qilib fistula o'matadi va bu naycha orqali shira tashqariga chiqariadi. Shu bilan bir vaqtida ichakning pastki qismiga ham naycha o'rnatilib, bu naychalar o'zaro ko'prikhalar bilan bir-biriga birlashtiriladi. Shira ajralish mexanizmini o'rganish vaqtida shu ko'priqcha uziladi, boshqa paytlarda esa shira ko'priqcha orqali oziga hazm bo'lishida ishtirot etaveradi va hayvon organizmida o'zgarishlar yuz bermaydi. Bu usul surunkali kuzatish imkonini beradi (64-rasm).

64-rasm. Yirik shoxli hayvonlar me'da osti bezi yo'lliga naycha qo'yish.



## NAZORAT SAVOLLARI

1. Hazm sistemasi faoliyatini o'rganishda qaysi usullar qo'llaniladi?
2. So'lak bezlari yo'lliga naycha o'rnatish va so'lak yo'llarini tashqariga chiqarib tikish metodikasini tushuntiring.
3. «Yol'ondakam oziqlantrish» – ezofagotomiya usulining mohiyati va u kim tomonidan ishlab chiqilgan?
4. Kichik me'dacha bichish va toza me'da shirasini ajratib olish metodikasini kimlar ishlab chiqigan?
5. Me'da osti bezining yo'llarini tashqariga chiqarib tikish va naychalar o'rnatish usulining afzalligi nimada?

## 25-dars. SO'LAK FERMENTLARI TA'SIRIDA KRAXMALNING GIDROLIZLANISHI

**Darsning maqsadi:** so'lakning ahamiyati, tarkibi, hayvonlarda kraxmalning gidrolizlanishini o'rganish.

**Dars uchun kerakli hayvonlar, jihozlar va reaktivlar:** so'lak bezi yo'lliga naycha o'rnatilgan hayvonlar yoki hayvonlar so'lagi, suv hamomni, shtativ, probirkalar, tomizgichlar, spirit chirog'i, 0,3% li kraxmal eritmasi, distillangan suv, 5% li yod eritmasi.

Og'izada oziqlarning hazm bo'lishida so'lakning ahamiyati katta. So'lakni, asosan, uch juft bez: qulq oldi, til osti va jag' osti so'lak bezlari ishlab chiqaradi. Bulardan tashqari, so'lak hosil bo'lishida kum darajada bo'lsa ham og'iz devorida, til ildizida, tomoqda joylashgan mayda qo'shimcha bezchalar va ayrim qadoqsimon hujayralar ishtirot etadi.

Qulq oldi so'lak bezi seroz hujayralardan tuzilgan bo'lsa, jag' osti va til osti so'lak bezlari seroz va shilliq hujayralardan tashkil topgan. Shuning uchun qulq oldi so'lak bezi tarkibida oqsil

bo'ladigan suvimon suyuqlik ajratadi, til osti va jag' osti so'lak bezlari esa, **mutsin** deb nomlanuvchi shilimshiq suyuqlik ajratadi.

So'lak ajralishi – **salvatsiya**, so'lak ajralishining kuchayishi – **vatsiya** deviladi.

So'lak – rangsiz, shilimshiq va yopishqoq suyuqlik. Tarkhi hayvonlarning turiga, oziqlanishiga, yashash sharoiti va boshqa omillarga bog'iq bo'lsa-da, odatta unda o'rtacha 99,0–99,4 % suv hamda 0,6–1,0 % atrofida organik va anorganik moddalar saqlanadi.

So'lakda mineral moddalardan xloridlar, sulfatlar, karbonatlar, amilaza, maltaza, lizotsim fermentlari, yopishqoq modda glukopolisaxarid-mutsin, shuningdek, almashinuv mahsulotlari mochevina, amniak, karbonat angidrid va boshqalar uchraydi.

So'lakda amilolitik fermentlar juda kam, uning tarkibida uchraydigan amilaza kraxmalni maltozagacha, maltaza esa maltozan glukozagacha parchalaydi. Lizotsim bakteriotsidlik xususiyatiga ega bo'lib, xiima-xil mikroorganizmlarni halok qiladi va etxot hayvonlar so'lagida ko'proq bo'ladi.

Mutsin shilimshiq modda bo'lib, so'lakni yopishqoq qiladi va shu tufayli oziqa luqmasi tegishli shakga kirib, oson yutiladigan bo'lishida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Har xil hayvonlar so'lagining solishtirma og'irligi turlicha bo'llib, o'rtacha 1,002–1,012 ga teng, pH esa 7,32–8,1 atrofida, osmotik va onkotik bosimlari past bo'ladi.

Har xil turdag'i hayvonlarning so'lak ajratishida barcha hayvonlar uchun xos bo'igan umumiy qonuniyatlar bilan binga, bir turdag'i hayvonlar uchun o'ziga xos xususiy qonuniyatlar ham bor. Jun ladan, so'lak ajralishi itlarda cho'chqalardagidan, qoramollarda otlardagidan ozmi-ko'pmi farq qiladi.

Otlar vaqt-vaqt bilan, og'ziga oziqa tushgan payda so'lak ajratadi. So'lakni oziqa chaynayotgan tomonagi so'lak bezlari ajaratadi. Bir kun davomida otlar 40 / atrofida so'lak ajratadi. Cho'chqalarda so'lak ajratish jarayoni otlardan ko'p farq qilmaydi. Voyaga yetgan cho'chqa bir kun davomida 15 / atrofida so'lak ajratadi. Kavsh qaytaruvchi hayvonlarda katta qorinda doimo oziqa bo'lib, u yerda hazm jarayoni uzuksiz davom etishiga yarasha qulqoq oldi so'lak bezlari timmay so'lak ajratib turadi. Boshqa so'lak bezlari vaqt-vaqt bilan faqat og'ziga oziqa tushgandagina so'lak ajratadi.

Voyaga yetgan qoramollar kuniga 90–190 l, qo'yilar esa 6–10 / so'lak ajratadi. Sut bilan oziqlanib yurgan, hali me'da oldi bo'lmalari taraqqiy qilmagan buzoqlarning til osti va jag' osti so'lak bezlari quoq oldi so'lak bezlari qaraganda ko'proq so'lak ajratadi. Hayvon battamom dag'al oziga bilan oziqlana boshlagandan keyin ikkita qorinda achish-bijg'ish jarayonlarning kuchayishi turayli quoq oldi so'lak bezlari uzlusiz so'lak ajratadigan bo'lib qoladi.

### 1-ish. So'lakning kraxmalni parchalash qobiliyatini aniqlash

Ikkita probirkka olib, ularga 2 ml dan kraxmal eritmasi quyiladi. Kraxmal solingen birinchi probirkaga 2 ml so'lak, ikkinchi probirkaga esa 2 ml distillangan suv quyiladi. So'ngra ikkala probirkani ham 10 daqiqa 38–40°C li suv hammomida ushlab uvladi. Natijada so'lak solingen probirkadagi kraxmal so'lak fermentlari ta'sirida parchalanib glukoza hosil qiladi. Glukoza hosil bo'lganini isbotlash uchun Trommer reaksiyasi qo'yildi, ya'ni o'sha ikkala probirkadagi aralashmalar ustiga 2 ml dan 10% li NaOH eritmasi quyiladi va uning ustiga 1 ml dan 2 % li mis sulfat suzining eritmasi quyiladi. Ikkala probirkada ko'k rangli eritma hosil bo'ladi. Ikkala probirkani spirit chirog'ida qizdirilsa, so'lak solingen probirkada suyuqlik qizil rangga kirib, glukoza hosil bo'lganini bildiradi.

### 2-ish. So'lak tarkibidagi fermentlar faoliygiga haroratning ta'sirini o'rganish

So'lak tarkibidagi fermentlar ma'lum haroratdagina faol ta'sir ko'sratishi mumkin. So'lak tana haroratida yokiunga yaqin haroratda hol bo'lib, yuqori va past haroratda faolligi sustlashadi. Bu holatni kuzatish uchun ikkita probirkka olib ularga 2 ml dan so'lak solinadi. Birinchi probirkadagi so'lakni qaynaganigacha qizdiriladi, ikkinchisi esa qizdirilmaydi. Keyin har ikkala probirkaga ham 2 ml dan kraxmal solib, ustiga 1–2 tomchi Lyugol eritmasidan tomini. Hossil bo'igan aralashmani spirit chirog'i ustida asta-sekin qizdiriladi, natijada qaynatilmagan probirkadagi so'lak tarkibidagi fermentlar faollashadi va kraxmalni glukozagacha parchalaydi. Qaynatilmagan probirkadagi eritmaning rangsizlanishi glukoza hosil bo'ganini isbotlaydi.

?

## Nazorat savolları

1. So'lak nima va u qayerda hosil bo'ladı?
2. So'lak qanday tarkibga ega?
3. So'lakning vazifasi va ahamiyatini tushuntiring.
4. So'lakning turli hayvonlarda ajralish miqdorini aytинг.
5. Tajribada so'lak ta'sirida kaxmal parchalanishini tushuntiring.


### 26-dars. KATTA QORINDAGI MIKROORGANIZMLAR MIQDORINI ANIQOLASH

**Darsning maqsadi:** katta qorindagi mikroorganizmlarning turlari, vazifalari, ahamiyatini bilish va ularning miqdorini aniqlashni o'rganish.

**Dars uchun kerakli hayvonlar va jihozlar:** qoramol, qo'y paxta, spirit chirog'i, iliq suv (38—42°C), vazelin.

Kavsh qaytaruvchi hayvonlarning og'zida nari-beri chaynalib, yutilgan oziga katta qoringa tushadi. U yerda oziga so'lak bilan yumshatiladi, bo'rtiriladi, bu jarayonlarda xilma-xil mikroorganizmlar ishtirok etadi. Katta qorinda oziganing hazm bo'lishiha mikroorganizmlar asosiy o'rinni egallaydi. Ularning ishtirokida oziga tarkibidagi bir qancha organik moddalar tegishlichcha parchalanadi, ba'zilari esa sintezlanadi. Ma'lumki, faqat sut yoki uning o'rinni bosadigan boshqa suyuq ozigalar bilan oziqlanayotgan yosh kuch qaytaruvchi hayvonlarning katta qormida oziga hazm bo'lmaydi. Buning boisi ular katta qorinda mikroorganizmlarning yo'qligidir. Chunki mikroorganizmlar katta qoringa faqat dag'al oziga bilan kiradi. Katta qorinda tushgan mikroorganizmlar tez ko'payadi va katta qorindagi hazm jarayonlari darajasini belgilaydigan omilga aylanadi. Shundan keyin katta qorinda oziganing hazm bo'lishi umr bo'yini bevosita mikroorganizmlar ishtirokida boradi va ularning faoliyati tufayli ro'yobga chiqadi. Infuzoriyalar, bakteriyalardan streptokokklar, ruminokoklar, suksinogen bakteriyalar, sellulozani parchalovchi bakteriyalar va boshqalar katta qorindining emulsiyamikrofloralar bo'lib hisoblanadi. Katta qorindagi mikroorganizmlarning xili va miqdori iste'mol qilinadigan oziga xillari, boshqalarga bog'liq. Odatda, katta qorindagi 1 g oziqada 20 turli mansub bo'lgan 10 mln gacha bakteriya va 1 mln gacha infuzoriyalar bo'lishi mumkin. Infuzoriyalar (65-rasm) ham niyoyatli ko'p. Har xil turdag'i hayvonlarning katta qorinda ularning 120 turi jehashi mumkin. Mikroorganizmlar ozigalarga mexanik ta'sir ko'retib, ularni parchalaydi, ayni paytda oziga tarkibidagi ozislar, arotli birikmalar, qisman kletchatka, kaxmal parchalanishini tushuntiring.

niyolar bo'lishi mumkin. Infuzoriyalar (65-rasm) ham niyoyatli ko'p. Har xil turdag'i hayvonlarning katta qorinda ularning 120 turi jehashi mumkin. Mikroorganizmlar ozigalarga mexanik ta'sir ko'retib, ularni parchalaydi, ayni paytda oziga tarkibidagi ozislar, arotli birikmalar, qisman kletchatka, kaxmal va boshqa uglevodlarning oqsillari va polisaxarid (alkogen)larini sintezlaydi. Keyin shu mikroorganizmlar, bimohorin, ularning tarkibidagi oqsil va uglevodlar hayvon organizmini tomonidan o'zlashtiriladi. Demak, mikroorganizmlarning tanasi hayvon organizmi uchun to'yimli moddalarning manbayi bo'lib hisoblanadi. Oziga oqsiliga qaraganda mikroorganizmlar oqsili hayvon organizmi uchun qiymatliroqdir. Chunki mikroorganizm oqsillari o'zining aminokislota tarkibiga ko'ra organizm oqsiliga yaqinroq turadi. Mikroorganizmlar faoliyati tuyli katta qorinda bijg'ish jarayonlari sodir bo'lib, oqibatda turli infuzoriyalar va xilma-xil uchuvchi yog' kislotalari va boshqalar hosil bo'ladi (7-rangli rasm). Yog' kislotalari shu yerdavoq qonga so'riladi va organizm tomonidan o'zlashtiriladi. Katta qorinda oziga bo'lishing to'g'ri kechishini ta'minlash uchun u yerda mikroorganizmlarning faoliigi, xillarining eng foydali proporsiyasini ta'minlaydigan sharoit vujudga kelmog'i lozim. Hayvon to'g'ri boqib borilsa, odatda, shunday sharoit vujudga keladi. Me'yorda katta qorindagi harorat 38—41°C, pH ko'rsatkichi esa 6,5—7,4 atrofida bo'ladi, bular mikroorganizmlarning yashashi uchun optimal muhitdir. Bu muhit ancha barqaror bo'lib, osonlikcha o'zgartarmaydi. Katta qorinda pHning o'zgartamasdan doim birdek turishida, o'zgarsa ham juda kichik doirada o'zgarishida quloi oldi so'lak bezidan uzluskiz ajralib turadigan so'lakning ahamiyati katta.



65-rasm. Infuzoriya:

1—haloplasm; 2—oziga qo'shilimalari; 3—endoplazma; 4—anal teshig'i; 5, 6—qisqaruvchan vakuola; 7, 8—makro- va mikronukleus; 9—tayanch plastinkasi.

Hayvon belgili oziga bilan uzoq boqilgan bo'lsa, bu vaqda katta qorinda ham mikroorganizmlarning faqat belgili turlari, ya'ni shu

oziqaning hazmida ishtirot etishi zarur bo'lgan xillari yashaydigan bo'ladi. Agar shu hayvonni to'satdan boshqa oziqa bilan boqishiga o'tkazilsa, bu paytda ovqat hazmi ma'lum darajada izdan chiqishi mumkin. Chunki hayvoning katta qornida bu vaqida hali yangi iste'mol qilinayotgan oziqaning hazmida ishtirot etishi zarur mikroorganizmlar bo'lmaydi. Shu sababli kavsh qaytaruvchi hayvonlarni bir ratsiondan boshqa bir ratsionga o'tkazish zarur bo'lsa, buni to'satdan qilmay, balki asta-sekin o'tkazish maqsadga muvofiqidir.

### Katta qorinya zond yuborish texnikasi va undagi mikroflora miqdorini aniqlash

Zondning tashqi qismiga vazelin surkaladi, chap qo'l bilan hayvonnинг tili biroz tortilib o'ng qo'l bilan zond yuboriladi. Zondning qizlo'ngach yoki traxeyaga ketganligini hidab yoki bir stakan suvga zondning ikkinchi uchini botirib aniqlasa bo'ladi, agar ketgan suvda pufakchalar paydo bo'lsa u holda zond traxeyaga yuboriladi. Katta qorin suyuqligi kolbaga olinib darhol 38—40°C li suv hammomiga qo'yildi. Toza buyum oynachasi biroz spirt chirog'i alangasida qizdirilib, keyin usiga katta qorindan olingan suyuqlikidan pipetka yordamida bir tomchi tomiziladi va usti qoplagich shishu bilan yopilib mikroskopning kichik obyekтивida kuzatiladi. Mikroorganizmlarning necha turi borligi va soni aniqlanadi. Olingan natijaga qarab xulosa qilinadi.

### NAZORAT SAVOLLARI

- Katta qorin mikroflorasini va uning ahamiyatini tushuntiring.
- Katta qorindagi 1 g oziqa tarkibidagi bakteriya va infuzoriyalarning turini hamda miqdorini aytинг.
- Mikroorganizmlar faoliyat tufayli katta qorinda qanday jarayonlar sodir bo'ladi?
- Mikroorganizmlarning yashashi uchun katta qorindagi harorat va undagi muhit qanday bo'lishi kerak?
- Katta qorindagi mikroflora miqdori tajribada qanday aniqlanadi?

### 27-dars. ME'DA SHIRASINING AHAMIYATI VA UNING

#### KISLOTALILIK DARAJASINI ANIQLASH

**Darsning maqsadi:** me'da shirasining tarkibi, ahamiyati haqida tushunchaga ega bo'lish; me'da shirasidagi erkin va umumiyl kislotalilikni aniqlashni o'rGANISH.

**Dars uchun kerakli hayvonlar, jihozlar va reaktivlar:** me'dasiga maycha o'matilgan it, qo'y, qoramol yoki me'da shirasini va hokazo moslamalar, shitativ, stakan, amidoazobenzolning 0,5% li spiritli eritmasi, 0,1 n NaOH, fenolftaleinning 1 % li spiritli eritmasi.

Me'da devori to'rt qavatdan: tashqi seroz, o'rtangi muskul, shilliq, pardal osti va shilliq qavatlardan tashkil topgan bo'lib, qizlo'ngachdan kirish joyiga kardial, tubi, ya'ni fundal va o'n ikki barmoq ichakka chiqish joyiga pilorus qismlari deviladi. Me'da shirasini me'da devorida joylashgan qo'shimcha, asosiy va qoplama bez hujayralaridan ajralgan moddalar aralashmasidir. U timiq, xilma-xil anorganik va organik moddalar mavjud:

a) anorganik moddalarдан: K, Na, Ca, Mg, ammoniy elementlarning xlorli, fosforli, karbonatlari, sulfatlari tuzlari va xlorid kislota bor;

b) organik moddalarдан: sut kislotasi, kreatinin, ATF, mochevina, urat kislota, oqsillar, aminokislotalar, pepsin, ximozin, lipaza, jelatinaza, katepsin kabi fermentlar bor. Xlorid kislota me'dada hazm jarayonlarida ishtirot etib, shiraga kislotali muhit beradi va hazm jarayonlarining to'g'ri borishida achish-bijg'ish jarayonlarini ro'yobga chiqarib xilma-xil mineral moddalarini eritadi, fermentlarning faolligini ta'minlaydi, mikroorganizmlarni o'dirib himoya vazifasini bajaradi.

Me'da shirasida 0,4—0,5% xlorid kislota bo'lib, u erkin va xilma-xil organik moddalar bilan birikkan holatda uchraydi. Bu kislota oqsillarni bo'rttirib hazm bo'lishiغا yordam beradi.

**Pepsin** fermentini me'da shilliq pardasidagi asosiy bez hujayralari inaktiv pepsinogen holatida ajratadi. Pepsinogen xlorid kislota ta'sirida faol pepsinga aylanadi. Pepsin proteolitik ferment bo'lib, oqsillarni albumnoz va peptonlarga parchalaydi. Pepsin o'ta kislotali muhitda pH 0,8—2,0, harorat 38—40°C bo'ganida faoldir.

**Ximozin** — shirron fermenti kuchsiz kislotali va kuchsiz ishqoriv, ya'ni neytral muhitda kalsiy ionlari ishtirotida faollashadi, bu ferment yosh hayvonlarda katta ahamiyatga ega. Chunki ximozin sutni ivitadi, yosh hayvonlar me'da shirasida ximozin boshqa fermentlarga qaraganda ko'p, ammo hayvon ulg'aya borgan sari ximozin kamayib, pepsin, xlorid kislota ko'payadi. Katepsin muhiti zaif kislotali, yosh hayvonlarda faol bo'lib, oqsillarni peptidlarga parchalaydi.

**Jelatinaza** juda kam bo'lib, proteolitik fermentdir, uming va' biriktiruvchi to'qima oqsili, ya'ni jelatinni parchalashdir.

**Lipaza** miqdori kam bo'lib, yosh hayvonlar uchun aham katta. Lipaza neytral yog'lamni glitserin va yog' kislotalatiga parçali.

Toza me'da shirasida amilolitik fermentlar bo'lmaydi, amma me'dada uglevodlar qisman parchalanadi, chunki me'daga tush oziqa luqmasiga me'da shirasi shimilguniga qadar so'lak va o fermentlari ishtirokida uglevodlar parchalansa me'da shirasi shimaligan joylarda muhit o'zgarib, kistotali bo'ladı. Natolik amilolitik fermentlarning faoliigi so'nadi va me'da shirasi fermentlari ishtirokida uglevodlar parchalansa me'da shirasi shimaligan joylarda muhit o'zgarib, kistotali bo'ladı.

O'z ta'sirini ko'rsata boshlaydi.

Me da shifrasning ajfallishi iki lazada kechadi:

**I. kejendər Jukkaa** aylagai sima ko p, nazlı kuelm, nva kislotalilik qobiliyati vuqori bo'ldi.

2. *Kimyoviy fazada*, ya'ni gumoral fazada ajralayotgan shiran.

tarkibi oziqaning xiiiga va tarkibiga bog'iq. Hazm qiliish kuchi va fermentativ. kislotalijlik obijivati ham past bo'lib midori ham

Me'da shirasi kislotaliligining oshishi **giperatsidoz**, pasay

*gipoatsidoz*, yo‘qolishi anatsidoz deyiladi.

Oshqozon yoki me'da shirasining kislotaliligini laboratoriya

sharotida aniqlash uchun oshqozonga fistula o'rnat  
ezrogatomiva qilinca voki [ P. Pavlov haj'richa kishrik waz'

*szoragatónya qumıǵan ýoki r.r.: İ avlev oo ýelha kelmik ile d*

umumiy kislotalilik aniqlanadi.

*I-ish. Me'da shirasining erkin kislotaliligini aniqlash*

Me'da shirasida erkin xlorid kislotasini aniqlash uchun stakanchalarga 5 ml filtrlangan me'da shirasi olinadi va uning dimentilamidoazobenzolning 0,5% li spirli eritmasidan 2–3 ton hajm tomiziladi. So'ngra stakanadagi eritma rangi to'q sariq aylangunigacha uni 0,1 n NaOH bilan titrlanadi va sarf qilinadi. Ishqor, ya'ni 0,1 n NaOH miqdoriga qarab 100 ml me'da shirox qancha erkin xlorid kisiotasi borligi aniqlanadi:

5-2  
100-x

$$x = \frac{100 \cdot 2}{5} = 40 \text{ ml}$$

*2-ish.* Me'da shirasining umumiy kislotaliligini aniqlash

Me'da shirasining umumiy kislotaligini aniqlash uchun erkin morid kislotasi aniqlangan stakandagi eritma ustiga 2—3 tomchi fenoltaleinning 1 % li spirtli eritmasi to'miziladi, so'ngra 0,1 n NaOH bilan titrlanadi. Agar suyuqlik rangi och qizl rangga aylansa, bu me'da shirasidagi barcha kislotalar neytrallashganligidan darak beradi. Sarf bo'lgan 0,1 n NaOH miqdoriga qarab 100 ml me'da shirasining umumiy kislotaliligi aniqlanadi:

$$x = \frac{100 \cdot 3}{5} = 60 \text{ ml}$$

NAZORAT SAVOLLAR

1. Me'da qanday tuzilgan?
  2. Me'da shirasining tarkibi va ahamiyatini tushuntiring.
  3. Me'da shirasagi qayerda va qanday hujayralar faoliyati tufayli hosil bo'лади?
  4. Me'da shirasidagi xlorid kislotosining ahamiyati nimada?
  5. Me'da shirasidagi erkin va umumiy kislotaliik qanday aniqlanadi?

28-dars. ICHAK AUTOMATIYASI VA HARAKATI

**Darsning maqsadi:** ingichka va yo‘g‘on ichaklar avtomatiyasini, hirakat turlarini, ahamiyatini bilish va ularni tajribada o‘rganish.

**Dars uchun kerakli hayvonlar, jichoza va fealiyat:** qiyoni,urohlik taxtachasi, shisha naycha, skalpel, qaychi, pinset, paxta kinoskop, yod eritmasi, Ringer-Lokk eritmasi, adrenalin, asetil-kolin.

**Ingichka ichak motorikasi.** Ingichka ichakning devori uzuksiz ravishda harakat qilib turadi. Uning harakati ichak ichida oziqalarning tegishlichcha hazm bo'lishida benihoya katta ahamiyatga ega. Chunki ana shu harakatlar tufayli oziqalar shiralar bilan urlashadi, ichakning bir qismidan ikkinchi qismi tomon o'tadi. Ingichka ichak devorida kuzatiladigan harakat jarayonlarini uch guruhga: mayatniksimon, peristaltik va ritmik harakatlarga bo'lish mumkin. Bu harakatlar ichak devorida uzunasiga va aylamasiga toylashgan muskullarning qisqarishi natijasida yuzaga keladi.

Jumladan, mayatniksimon harakatning ro'yobga chiqishida bo'lashgan muskullar qisqarishi natijasida ichak devorini aylanasiga, ham uzunasiya yo'nalgan muskullar ishtirot etadi. Bo'lashgan muskullar qisqarishi natijasida ichak devori tonusini pasaytirib, ichak sig'imini kengaytiradi.

**Ichakda kuzatiladigan harakat jarayonlari markaziy nerv sistemasi** tomonidan idora qilinadi. Jumladan, adashgan nerv qisqarishga qo'shish uchun ichak devorini quradigan nerv qo'zg'alganda ichakning harakatlari ancha jadallahadi, simpatik nerv qo'zg'alganda esa ichak harakatlari sekinlashib, paysallashib oldi. Biroq, ichakning devori markaziy nerv sistemasiidan impulslar kelmagan paytda ham mustaqil (avtomatik) ravishda qisqarib harakat qila olish qobiliyatiga ega. Bu vaqtida ichakning harakati uning devoridagi nerv (Auerbach) tuzilmalarining va muskulli elementlarning qo'zg'alishi tufayli ro'yobga chiqadi. Ichak harakati shartli reflektor yo'l bilan boshqariladi. Xilma-xil fizik, o'mik, mexanik va emotsiyal ta'sirlar nerv sistemasi orqali ichak harakatining o'zgarishiga sabab bo'лади.

**Yo'g'on ichak motorikasi.** Yo'g'on ichaklarning harakati

ingichka ichaklar harakatiga o'xshash. Ko'r va chambar ichaklarda

peristaltik harakat bilan bigalikda uning aksiantiperistaltik harakati

ham kuzatiladi. Shu tufayli ichakning bu qismida oziqalar juda yuksi aralashtiriladi. Qishloq xo'jalik hayvonlari yo'g'on ichagining

otrg'i qismida ritmik harakatlari ancha kuchli ravisinda kuzatiladi.

Bunday harakatlari yo'g'on ichakning go'ng — tezak shakllanadigan qis-

harakatlari yo'g'on ichakning qisqarishiga suradi. Natijada ximus shira bilan

shu harakat to'iqinlarining takroriy yuzaga chiqishiga nazар тасдиқланади, аymiqsa, ko'zga yaqqol tashlanadi. Yo'g'on ichak motorika-

nining ro'yobga chiqishida ichak shilliq pardasining mexanik ta'sirotlari bilan ta'sirlanishi katta ahamiyatga ega. Yo'g'on ichak avto-

matiyasi ingichka ichak avtomatiyasidan ancha zaif.

### Ajratib olingan ingichka ichakning o'z-o'zidan qisqarishi.

#### Magnus tajribasi

**Ichakning ritmik harakatlari** uning devorida aylanasiga joylashgan muskullar qisqarishidan paydo bo'lib, ichakni bir qancha bo'g'im larga bo'лади. Bu bo'g'imlar harakatlanmay yakka-yakka yoki bli nechiasi bir joyga to'p-to'p bo'lib joylashadi. Bu bo'g'imlar bli ikkiga bo'linishi bilan bir vaqtida yonna-yon joylashgan ikkita bo'g'im qo'shilib, katta segment hosil bo'lishi uzuksiz davom etaveradi. Shunday qilib, ritmik harakatlari evaziga ximus alohida alohida bo'laklarga bo'linib, yetarlicha aralashib, ichak devorini taqalib boradi. Ichakning ichki siq'imi oziqa midoriga bog'liq holda kengayib, torayib turadi. Shuning uchun ximus ko'pmi-kamni doimo ichakni to'ldirib, ichak devoriga taqalib turadi. Bu ichak devorining tonusda bo'lishi bilan bog'liq bo'lib, u markaziy nerv sistemasini tomonidan boshqarilib turiladi. Markaziy nerv sistemasini adashgan nerv tolalari orqali kelayotgan impulslar ichak

Quyon so'yilib, qorni yorildi va ichakning turli qismalaridan bir necha santimetr uzunlikdagi bo'lakchalar kesib olinib, ularni 37—38°C li Ringer-Lokk eritmasiga solinadi. Bu eritmadan ichak bo'lakchalarini toza eritmagaga o'tkazilib, bir necha kun saqlash mumkin. Tajriba uchun ichakning bir bolakchasi olinadi va bir uchi shisha ilmoqqa, ikkinchi uchi pishangga biriktiladi. Pishangning bir tomoniga yuk osiladi va bu yuk ichakni biroz cho'ziltiradi. Yozuvchi uchi kimograf barabaniga to'g'rilanadi. Stakandagi Ringer-Lokk eritmasining harorati 37—38°C saqlanishi uchun u doimo suv hammomida turishi lozim. Bunday tartibda

?


## NAZORAT SAVOLLARI

1. Ichaklarning turlari va nomlarini aytинг.
2. Ichaklar avtomatiyasi va motorikasi deganda nimani tushunasiz?
3. Ingichka ichak harakat turlarini tushuntirинг.
4. Yo'g'on ichak harakat turlarini tushuntirинг.
5. Ichaklar avtomatiyasi tajribada qanday namoyish qilinadi?

### 29-dars. ICHA KLARNING BIR TOMONLAMA OTKAZUVCHANLIK XUSUSIYATI

o'rnatalilgan ichak 10–20 daqiqadan keyin ishlab ketadi. Ichak harakati yozilgandan so'ng eritmaga 2–3 tomchi asetitxolin (1:10000) tomizilganida ichak harakatining kuchayganligi kuzatildi. Stakandagi eritma Ringer-Lokk eritmasi bilan almashtirilganida normal qisqarishlar tiklanadi, uning usiga 0,5 sm<sup>3</sup> 1:1000 konsertratsiyadagi adrenalin qo'shilganida ichak harakatlari zaiflashadi. Tajriba pirovardida har ikkala kimyoiy moddaning ichak harakatu ta'siri haqidagi ma'lumot daftarga yozib olinadi va xulosa qilinadi hushidan ketkiziladi (og'riqsizlantiriladi).

2. Qorin devori 8–10 sm uzunlikda kesilib, qorin bo'shilig'i ochiladi. Ingichka ichak topilib, uning tutqichlari va qon tomirlari bog'lanadi.
3. Ingichka ichakdan 4–5 sm uzunlikda kesib olinadi va 38°C li iliq Ringer-Lokk suyuqligiga solinadi (66-rasm).



66-rasm. Kesib olangan ichak bo'lakchasi qisqarishini yozish.

4. Ichakning bir uchi shu Ringer-Lokk suyuqligiga tushirilgan egri shisha naychaming uchiga bog'lanadi. Ikkinchchi uchi esa Engelmann uzatkichiga bog'lanadi. Ta'siri o'rganiyotgan suyuqlik rezina buloncha bilan egri shisha naycha orqali 0,2 ml dan yuborilib turiladi.
5. Ichak harakati elektrokimografa yozilib boriladi. Shundan keyin esa, to'mizgich yordamida Ringer-Lokk eritmasiga adrenalin, asetilxolin va pilokarpin eritmalaridan alohida-alohida tomizilib, ichak harakatlari yozib olinadi. Har bir eritma solingan Ringer-Lokk eritmasi yangilanib turiladi, chunki har bir ta'siri o'rganigan eritma bir-biri bilan aralashib ketmasligi kerak. Tajriba oxirida qaydnomadagi ichak harakatining egri chiziq kesilib, daftarga yopishitiriladi va xulosa qilinadi.


**So'riliш deb**, turli moddalarning teri, teri osti kletchatkasi, hazm sistemasining shiliq pardalari, o't pufagi, o'pka alveolalari va boshqalardagi bir yoki bir necha qavat huijayralar orqali qon va limfaga o'tishiga aytiladi.

Bularning ichida hazm sistemasi devorlari orqali ro'yobga chiqadigan so'riliш hayotiy muhim jarayon bo'lib hisoblanadi. Chunki hazm sistemasi devori orqali yuz beradigan so'riliш tufayli organizm uchun zarur bo'lgan energiya va plastik moddalarning usosiy qismi olinadi. Hazm sistemasining turli qismalarida so'riliшning tezligi turlichcha bo'jadi.

**Og'izda** oziga kam, juda qisqa vaqt davomida sadlanib turadi. Shu sababi u yerda moddalalar aytarli darajada so'rilmaydi. Lekin erigan moddalarning juda kam miqdori ta'm bilish piyozhalaridan o'ta oladi. Natijada hayvon oziqaning ta'mini sezishga tuyassar bo'jadi.

**Me'dada** biroz suv, glukoza, aminokislotalar va ayrim mineral moddalari so'rildi. Me'da shirasining me'damning ichiga tomon ujalishi moddalarning bu yerda so'riliшini u yoki bu darajada qiyinlashtiradi. Kavsh qaytaruvchi hayvonlarning me'da oldi bo'imalarida so'riliш jarayoni ancha jadal kechadi. Me'da oldi bo'imalarida ammiak, mochevina, suvda eruvinchi vitaminlar, uchuvchi yog' kislotalari, glukoza, aminokislotalar, gazlar, kaliy, kalsiy, xlor, fosfatlar va suv so'rilsa-da, shunday bo'rishi dan qat'iy

nazar hazm sistemasida so'rilishning emajdal kechadigan joyi ingichka ichak hisoblanadi.



**Ingichka ichaklar** o'n ikki barmoq ichak, och va yonbosh ichaklardan iborat bo'lib, o'n ikki barmoq ichak ancha katta, so'rilish yuzasi kichik bo'gani uchun oziga modde larning tarkibiy qismlari, asosan, och va yonbosh ichaklardan so'riadi.

Ingichka ichaklar devoridagi shilliq po'alar so'rilishni amalgalashga mukammal moslashgan: turli yo'nalishlarga ega bo'lgan burmalarda moddalarini so'ruvchi maxsus vorsinkalar — so'rg'ichlar joylashgan. Ichakning 1 mm yuzasida 30 tagacha so'rg'ichlar joylashgan bo'lib, ichak yuzasini 20—25% ga kattallashtiradi (67-rasm). Ichak so'rg'ichlari mikrovorsinkalar, nerv tołasi, arteriola, venula, limfa tomlirlari, siliq muskul tolachalaridan tuzilgandir. Xilma-xil ta'sirlar tulishi nerv tuguchasasi va nerv tołasi qisqaradi va uni harakatlantiradi.

Vorsinkalar ichakdag'i ximusga bo'turadi. So'rilish vaqtida ularning kapillarlarini turli oziga moddalar vorsinkalarning kapillarlariga shimiilib o'tadi. qisqarganda esa, bu moddalar qon va limfaga o'tadi. Oqsillar ichak devori orqali, asosan, aminokislotalarga parchalungan dan so'ng so'riladi. Uglevodlar monosaxaridlar, ya'ni glukoza, fruktoza, mannoza, galaktoza holatida so'riladi. *Yog'lar* yog' kislotalari va glitseringa parchalananib so'riladi.

**Yog' on ichakda** hazm bo'lish jarayonlari tugallanadi, bu yenduv suv jadal so'rib, axlat shakllanadi.

So'rilish neyrogumoral yo'1 bilan boshqariladi. Simpatik nerv sistemasi so'rilishni susaytiradi. Parasimpatik nerv sistemasi so'rilishni kuchaytiradi. Masalan, buyrak usi bezlarini olib tashlansa, uglevodlar va lipidlarning so'rilishi izdan chiqadi. B guruh vitaminlari uglevodlaring, D vitaminini Ca va P ning, C vitaminini esa temirning so'rilishi ta'sir qiladi.

## Joni biologik membranadan moddalarining bir tomonloma o'tkazilishini organish

Baqqa harakatsizlantiriladi. Tos suyagidan yuqoriroqdan ikki uqangi oyoqlari kesilib olimadi. So'negra har ikkala orqangi oyoqlarning terisi shiliab olimadi. Bir oyoqdan ajratib olingan teri o'nikariladi yoki ag'darilip ichki tomoni tashqariga chiqariлади, ikkinchisi esa shu holda saqlanadi. Ikkalasini ham shtatiyiga o'matilib, chiga bo'yoyq solindi, preparat stakanagini suvga tushirilib 1,0—1,5 saat o'tgach terisi ag'darilgan preparatdagi bo'yoyq suvning mangini o'zgartirdi — ko'kartiradi.

Buning uchun baqa ikki oyog'ning terisidan ikkita «teri xalta» hyorlanadi. Bu xaltalardan bittasining ich tomoni tashqariga dariladi, ikkinchisi ag'darilmaydi. Ikkala «xalta» ham fizioligik eritma bilan yuviladi.

1. Ikkalasiga ham 10 mm diametriga ega bo'lgan shisha naycha kiritilib, ip bilan bog'lanadi.

2. Ikkalasiga fizioligik eritma to'dirilib, ularning germetikligiga hlonch hosil qilinadi.

3. Bundan keyin eritmalar to'kilib, ularning o'mi bir xil ustunga bo'lgan 0,5% li metilen ko'ki yoki neyral qizil rangli eritma bilan to'diriladi.

4. Keyin esa bu «xalta»lar alohida-alohida bir xil fizioligik eritma quyligan stakanlarga tushiriladi va shitativga qisqichlar bilan mahkumlanadi.

5. Tajriba 20—22°C haroratda 1—1,5 saat kuzatiladi.

6. Ana shuvadidan so'ng, «xalta»larni stakanlardan olib, stakanlarning rangi bir-biriga taqqoslanadi va FEKda kalorimetriyanadi.

7. Olingan na'tijalarini qayd etib, xulosa qilinadi.

### NAZORAT SAVOLLARI

1. So'rilish deb nima aytiladi?

2. Hazm sistemasining turli qismalari so'rilish qanday kechadi?

3. Ichak devori qag'i so'rg'ichlarning tuzilishi va ahamiyatini tushuniring.

4. Oqsillar, yog'lar, uglevodlar, mineral moddalar qayerda va qanday holatda so'riladi?

5. So'rilish jaay-onining neyrogumoral yo'1 bilan boshqarilishini tushuntiring.

## V bob. MODDALAR VA ENERGIYA ALMASHINUVI

### FIZIOLOGIVASI

Moddalar almashinuvni organizmning hayot faoliyatini, ya'ni tirkiligidini belgilovchi asosiy omildir. Organizmda kechadigan barcha biologik jarayonlarning muttasil ta'minlanishi hamda uning hayoty barqarorligi undagi moddalar hamda energiya almashinuviga asoslanadi. Modda va energiya almashinuvni bir-biriga uzyiy bog'liq bo'lgan ikki xil murakkab jarayon — assimilatsiya va dissimilatsiya natijasida ta'minlanadi.

Assimilatsiya jarayonida organizm uchun **zarur** bo'lgan moddalar organizm xususiyatiga muvofiq ravishda moslashtirilib, murakkab organik moddalar, ya'ni oqsillar, yog'lar, uglevodlarni organ, to qima va hujayralarga mos qilib o'zlashtirilsa, dissimilatsiya jarayonida esa, mazkur moddalar parchalanib, energiya hosil qilish va organizmning hayotiy xususiyatlarini ta'minlash uchun sarf lanadi.

Moddalar almashinuvining xususiyati va darajasiga bog'liq ravishda, organizmning sog'iomligi va mahsulorligi ta'minlanadi. Moddalar almashinuvining pirovardida parchalangan mahsulotlarni ajratish jarayoni yotib, bu jarayon buyrak va boshqa ayiruv organizari orqali amalga oshiriladi. Dars davomida talabalar kalori metriya, termometriya hamda uning boshqarilish jarayonlari bilan tanishadi.

### 30-dars. HAYVONLARDA TANA HARORATINI

#### O'LICHASH

**Darsning maqsadi:** qishloq xo'jalik va laboratoriya hayvonlarining tana harorati hamda unga ta'sir etuvchi omillarini bilsiz. Hayvon larning tana haroratini aniqlashni o'rganish.

**Dars uchun kerakli hayvonlar va jihozlar:** qishloq xo'jalik va laboratoriya hayvonlari, termometr (simobil), vazelin, paxta, soot,

Moddalar almashinuvni oqibatida hosil bo'ladigan issiqlik organizmga harorat bag'ishlaydi. Yuqori darajada tarraqqiy etgan bo'lgan qonli hayvonlar va odamlarning tana harorati, ular yashab lugan tashqi muhit haroratining o'zgarishlaridan qat'iy nazar, doimo ma'lum darajada o'zgarmay turadi. Tana haroratinining ana shunday doimiyligi **izotermiya** deviladi, izotermiya faqt issiq qonli hayvonlarga xosdir.

Tana harorati doimiyligining ta'minlanishida qishloq xo'jalik hayvonlarida moddalar almashinuvini boshqarib turadigan sistemalarining qaydarajada rivojlanganligi asosiy o'rinni egallaydi. Gomoyoterm (issiq qonli) hayvonlarda bu sistemalar yuksak surajada rivojlanib, mukammallashgan. Shu sababli ularning tana harorati doimo bir xilda bo'lib, niroyatda kam doirada o'zgarib turadi. Bu sutkанин davri, qishloq xo'jalik hayvonlarining yoshi, insi, oziqlanishi, organizmning holati, moddalar almashinuvining jadalligi kabi omillarga bog'liq.

Poykioterm (sovuq qonli) hayvonlar organizmlarida tana harorati boshqaradigan sistemalar gomoyoterm hayvonlarinikidek yuqori darajada takomil topmagan. Shuning uchun ularning tana harorati tashqi muhit haroratiga qarab birmuncha sezilarli darajada o'zgarib turadi. Ammo, ular tanasining harorati ham o'zi yashab urgan tashqi muhit haroratiga hamisha teng bo'lib qolavermasdan, bulki ma'lum darajada boshqarilib turiladi.

Har xil tunga mansub bo'lgan qishloq xo'jalik hayvonlarda tana harorati o'rtacha 37–43°C oralig'ida bo'ladi. Bu hayvonlarda tana haroratinining 24°C dan pastga tushib ketishi hayot uchun xavfli bo'lib hisoblanadi.

16-jadval

#### Uy hayvonlari va parrandalar tana harorati

|          | Hayvon turi | Tana harorati | Hayvon turi | Tana harorati |
|----------|-------------|---------------|-------------|---------------|
| Ot       | 37,5–38,5   | Mushuk        |             | 38,0–39,5     |
| Qoramol  | 37,5–39,5   | Quyon         |             | 38,5–39,5     |
| Qo'y     | 38,8–40,0   | G'oz          |             | 40,0–41,0     |
| Echki    | 38,5–40,0   | Tovuq         |             | 40,5–42,0     |
| Cho'chqa | 38,0–40,0   | O'rdaq        |             | 41,0–43,0     |
| It       | 37,5–39,0   | Kaptar        |             | 41,0–43,0     |

Organizmada issiqlik hosil bo'lishi bilan uning tashqariga uzatilishi o'tasida mutanosiblik yuzaga kelgan taqdirdagina tana harorati doimiy bo'lishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, organizm hosil bo'ladiqan issiqlik bilan yo'qotilayotgan issiqlikning miqdori o'zaro teng bo'lgandagina tana harorati doimo bir xil darajida turishi mumkin.

## Qishloq xo'jalik hayvonlarida tana haroratini aniqlash.

### Termometriya

Qishloq xo'jalik hayvonlarining tana harorati simobi termometr bilan o'chanadi va aniqlanadi. Tana haroratini o'chash uchun eng quay joy qishloq xo'jalik hayvonlarining to'g'ri ichagi bilan Termometri to'g'ri ichakka qo'yish oldidan silkitilib, haromko'rsatkichlari pasaytiriladi va ustiga vazelin moyi surtiladi. To'g'ri ichakka kiritilgan termometr tutgich ip bilan qishloq xo'jalik hayvonlarining dumiga bog'lanadi yoki qo'l bilan 5—10 daqiqalab turiladi. So'ngra to'g'ri ichakdan termometr chiqariladi va shkalasiga qarab tana harorati aniqlanadi. Keyin ishlataligiga termometr paxta bilan artilib silkitiladi va yaxshlab dezinfektsiya qilinadi.

### Nazorat savolları

1. Qishloq xo'jalik hayvonlarida moddalar almashinuvining mohiyatini tushun-tiring.
2. Izotermiya nima va u qaysi hayvonlarga xos?
3. Gromoyoterm va poykiloterm hayvontari haqidagi tushuncha bering.
4. Tana haroratinning qanday ozgarishi hayot uchun xavfi?
5. Qishloq xo'jalik hayvonlarida tana harorati qanday aniqlanadi?

## VI bob. AVIRUV ORGANLARI FIZIOLOGIYASI

Moddalar almashinishi natijasida organizmda organizm qimalardan asta-sekin atrof-muhitiga chiqariladigan turli xil holkular hosil bo'ladi. Ularning organizmidan chiqarilishi organlarning normal hayot faoliyatini ta'minlovchi asosiy omillardan beri lib hisoblanadi.

Parchalanish natijasida hosil bo'lgan zararli moddalarining yosiy qismi buyraklar orqali ajralib, bu ularning filtrlash qobiylutini va turli xil moddalar almashinuvidagi faoliyatini o'rganish imkonini beradi.

Buyrakdan tashqari ayiruv jarayonida boshqa organlarning ham hisasi kattadir. Jumladan, nafas organlari orqali suv bug'larini urbonat angidrid gazi, teri orqali ter suyuqligi ajraladi. Ovgat qilish organlari ayrim tuzlar, bo'yogqlar, dorivor moddalarning ajralishida ishtirok etadi. Ayiruv organlari faoliyatları tufayli organizmdagi ichki muhit bir xil me'yorda saqlanib, kislotasiyozanati va boshqalar ta'minlanadi.

Hayvonlar buyragi juft organ, u organizmning bel sohasida bo'lashib, ikki qavatdan: po'stloq va mag'iz qavatidan iborat. Po'stloq qavatida nefronlar bo'lib, ularda siyidik filtrlanadi. Siyidik hosil bo'lishining filtratsiya va reabsorbsiya fazalari farq qilinadi. Filtratsiya jarayoni nefronda yuzaga kelib, bu jarayon qon plazmasi tarkibida erган moddalarining Shumlyanskii-Boumen kapsulasiga so'riliishi, filtratsiyasi bilan xarakterlansa, reabsorbsiya — qayta so'rillish buyrak kinalchalarida ro'y berib, unda haqiqiy siyidik hosil bo'ladi. Kinalchalar moddalarini tanlab o'kazganligi uchun, bu moddalar pog'onali va pog'onasiz moddalarga bo'linadi. Pog'onasiz moddalarga nochevina, kreatinin, sulfatlar kiriib, ular plazmadagi konsertrasiyasi qancha bo'lishidan qat'iy nazar reabsorbsiyadan may siyidik bilan ajraladi. Pog'onali moddalarga kiruvchi gluksa, aminokislotalar, turli ionlar to'la reabsorbsiyadan may siyidik bilan ajralmaydi.

Hayvonlar ko'p uglevodli oziqalar bilan oziqlanganida qonda qand miqdori ko'payib, siydk bilan ajralishi **glukozuriya** deb ataladi. Glukozuriyalar simpatik nerv sistemasi kuchli qo'zg'alganda, adrenalin ko'p ajralganda kuzatiladi. Siydk yo'llari shikastlanganda, siydk tarkibida qon ajralishi **gemoturiya** deviladi. Og'ir jismonyish bajarganda qonda oqsillar paydo bo'lishi **albumenuriya** deviladi.

Bir yo'la ajraladgan siydk miqdori diurez deyilib, u turli hayvonlarda turlicha bo'ladi. Otda 2,5 l, qoramolda 6–12 l, qo'ydu 1–1,5 l, itda 0,5–1 litrn tashkil etadi. Siydkning miqdori iste'mol qilinayotgan oziqa tarkibi, organizm holati, iqlim, sutkaming davri, hayvon turi va boshqalarga bog'liq. Organizmda moddalar almashinishi qancha tez kechsa siydk shuncha ko'p hosil bo'ladi. Hayvon oziqasining shirali bo'lishi va ko'p suv iste'mol qilishi oqibatida ham siydk ko'p ajraladi.

Siydkning xossalari hayvon turi, jinsi, oziqlanish xarakteri, jismonty ish bajarishi, organizmning umumiy holatiga bog'liq bo'lub, ko'pchilik hayvonlar siydkini tiniq sarg'ish rangdadir. Siydkning rangi uning tarkibidagi uroxrom, urobilin pigmentlari va iste'mol qilinayotgan oziqa pigmentlari, ajralayotgan siydk miqdori, konsentratsiyasiga bog'liq. Siydk ko'p va tez ajralganida och sariq rangda bo'lub, hayvon terlaganida ajralayotgan siydk kamayib, konsentratsiyasi oshib, to'q sariq rangga kiradi. Lekin toq tuyuoqli hayvonlar siydkida kalsiy karbonat kristallari ko'p uchragani uchun ularning siydiqi loyqaroq bo'ladi.


Siydkning solishtirma og'irligi otta 1,040, qoramolda 1,032, qo'yarda 1,042, cho'chqalarda 1,018, ittarda 1,025, mushuklarda 1,035, quyonlarda 1,015 ga teng bo'lub, muhit o'txo'rлarda pH 8,7–7,1, etxo'rлarda pH 5,7–7,0 ga, sut bilan oziqlanuvchi buzoqlarda pH 5,7 ga teng.

### 31-dars. SIVDIKNING TARKIBI BA XUSUSIVATLARINI ORGANISHI

**Darsning maqsadi:** siydkning tarkibi va fizik-kimyoviy xossalari bilish hamda o'rganish (68-rasm).

**Dars uchun kerakli hayvonlar, jibozlar va reaktivlar:** tajriba hayvoni, jarrohlilik stoli, jarrohlilik asboblari, akkumulator, induksion g'altak, og'riqsizlantiruvchi mudda, kanyulalar, shprislari, tikuvcchi material, igna, probirkalar, rezina shlang, paxta, dokki, urometr, silindrler, kolbalar, probirkalar, lakmus qog'ozasi.

Indikator, spirt chirog'i, bromtimolblyau, neytralrot bo'yog'inинг 1% li eritmasi, 20% li siydkchil eritmasi, 40% li urotropin eritmasi, pituitrin, spirt, Geynes reaktiv.



68-rasm. Laboratoriya hayvonlari peshobini yig'ish uchun qafaslar (A, B) va voronkalar (D).

### 1-ish. Siydkning solishtirma og'irligini aniqlash

*Ishni bajarish taribi.* Silindr idishga siydk olib, urometri silindr devoriga tegizmasdan unga tushiriladi. Siydk harorati 15°C bo'lganida uning aylana yuzasida urometr shkalasi qaysi raqamga to'g'ri kelsa shu ko'rsatkich siydkning solishtirma og'irligi hisoblanadi. Agar siydk harorati 15°C dan past bo'lsa, har 3 gradus uchun urometr shkalasi ko'rsatkichidan 0,001 ayrıлади. Agar 15°C dan yuqori bo'lsa, urometr shkalasi ko'rsatkichining har 3 darajasi uchun 0,001 qo'shiladi.

### 2-ish. Siydk muhitini aniqlash

*Ishni bajarish taribi.* Siydk muhitini qog'oz indikator yordamida aniqlanadi. Agar siydk kislotali muhitga ega bo'lsa, ko'k lakmus qog'ozasi qizaradi, agar ishqoriy muhitga ega bo'lsa, qizil lakmus qog'ozasi ko'k rangga kiradi. Siydk muhitini boshqa usullar yordamida ham aniqlash mumkin. Buning uchun probirkaga 2–3 ml tekshiriladigan siydk solinib, unga 1–2 tomchi bromtimolblyauning spirtli eritmasi qo'shiladi. Agar siydk sariq rangga bo'yalsa u kislotali, yashil rangga bo'yalsa ishqoriy reaksiyaga ega ekanligi aniqlanadi.

### 3-ish. Siyidikda qand miqdorini aniqlash

*Ishni bajarish taribi.* Ishni bajarish uchun Geynes reaktiv kerak bo'lib, u uch xil eritma aralashmasidir: 13,3 g kimyoiy to'mis sulfat tuzini 400 ml distillangan suvda, 2,50 g kaliy ishqomini 400 ml distillangan suvda, 3,15 g toza giltserinni 200 ml distillangan suvda suyultiriladi.

Awaliga birinchi va ikkinchi eritmalar qo'shilib, unga uchinchilik eritma qo'shiladi. Probirkaga 3—4 ml tayyorlangan reaktiv soliniq qaynagunigacha qizdiriladi. Keyin shu qaynatilgan suyuqlikka 8—10 tomchi siyidik tomiziladi va u yana qizdirilib, qaynatiladi. Agar siyidikda qand bo'lsa, suyuqlik sariq rangga kirib, qizil-qo'nq'li rangli cho'kma hosil qiladi.



### NAZORAT SAVOLLARI

1. Ayiruv organlarining ahamiyatini tushuntiring.
2. Buyrak, o'pka, teri va hazn sistemasi orqali almashinishing qanday mahsulotlari ajraladi?
3. Siyidikning fiziologik xususiyatlarini tushuntiring.
4. Buyrak ish faoliyatiga qanday omillar ta'sir etadi?
5. Siyidikning fiziologik xususiyatlari tajribalarda qanday o'rganiladi?

*VII bob. NERV VA MUSKUL FIZIOLOGIVASI*


Organizm hujayralari tashqi va ichki muhitidan kelayotgan istalgan sirotchi ta'siriga qo'zg'alib, moddalar almashinish jarayonini n'gartiradi. Ta'sirlanish hayvonot va o'simliklar olamining yashashi, iwojlanishiда muhim ahamiyat kasb etadi. Bu xususiyatlar to'qimalar, umladan, nerv va muskul to'qimalar uchun xos bo'lib, evolutsion iwojlanish davrida nerv va muskul to'qimasi ta'sirlanish bilan bir uqida qo'zg'aluvchanlik xususiyatiga ham egadir.

Nerv, muskul va bez to'qimalarini ta'sirlanganida unga nisbatan hissli bo'ladigan reaksiyani o'zi bo'ylab tarqatadi va qo'zg'alib javob beradi. Qo'zg'aluvchan to'qima qo'zg'alishi uchun unga ta'sirotchi (qitiqlagich) ta'sir etishi kerak. Qo'zg'aluvchan to'qimani qo'zg'ata n'ladigan har bir narsa yoki istalgan materiya harakati ta'sirotchi yoki qitiqlagich bo'la oladi. Tashqi ta'sirotga tevarak muhitda yuz beradigan turli-tuman yorug'lik, lovush, kimyoiy va mexanik o'zgarishlar kiradi.

Ichki ta'sirotarga tana ichida kuzatiladigan kimyoiy, fizikaviy, biologik o'zgarishlar: qondagi karbonat angidrid, gormonlar konsensintsiyasining o'zgarishi, nerv impulslarini va boshqalarini kiradi.

Nerv to'qimasi ta'sirotga impulslarini tarratish, muskul to'qimasi qisqarish va bez to'qimalari sekret iishlab chiqarish bilan javob beradi.

Laboratoriya sharoitida qo'zg'a-iuvchanlik jarayonlarini baqa quymuch nervi va boldir muskulidan tayyorlangan nerv-muskul preparatini o'rganiladi (69-rasm).



69-rasm. Nerv-muskul preparatini tayyorlash texnikasi.

**Darsning maqsadi:** qo'zg'aluvchan to'qimalar va ularning xususiyatlari haqida tushunchaga ega bo'lish va nerv-muskul preparatini tayyorlash texnikasini o'rganish.

**Dars uchun kerakli hayvonlar va jihozlar:** baqalar, po'kalar taxtacha, buyrak shakkidagi tog'oracha, ignalar, stakanchalar, shishalar, tayoqchalar, ip, paxta, qaychi, skalpel, pinsetlar, Ringer eritrositlari.

Evolutsion taraqqiyot jarayonida hayvon organizmida ayrim qimalarda qo'zg'aluvchanlik xususiyatlari paydo bo'lgan. Nerv muskul va bez to'qimalariga birorta ichki yoki tashqi ta'sirot tufayli etsa ular qo'zg'alish bilan javob qaytaradi.

**Qo'zg'alish** – qo'zg'aluvchan to'qimaning fizиologik tinchlik holatidan faol holatiga o'tishidir. To'qimalariga ta'sir ko'rsatilganda ular quyidagicha javob reaksiyasi qaytaradi:

1. Moddalar almashtinuvi kuchayadi.
2. Kislorod iste'mol qilish va karbonat angidrid ajratadi.
3. Issiqlik hosil bo'ishi kuchayadi.
4. Biopotensiallar ayirmasi hosil bo'jadi.

To'qimalariga ta'sir ko'rsatilgan ta'sirotlar ikkiga bo'lindilade dekvat va noadekvat ta'sirotlar.

*Adekvat ta'sirotlar* deb, organizm moslashgan va o'rgangan ta'sirolarga aytildi. Masalan, ko'z uchun yorug'likning ta'siri yoki muskullarning nerv impulslariga moslashganligi. Bir orgango bil vaqtida bir yoki bir necha dekvat ta'sirotlar ta'sir etib turishi mumkin.

Ba'zi bir qo'zg'attuvchilarga organizm moslashmagan bo'libda, ular ta'sirida to'qima yoki organ qo'zg'alib, javob reaksiyalarni ishlab chiqaradi va ular *noadekvat ta'sirotlar* deylidi. Bu ta'sirotlar organizm hayot faoliyati davrida doimo ta'sir etib turmasdan tasodifiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, ularga elektr toki, kislorod ishqor, mexanik ta'silar kiramdi. Shunday qilib, hayvonlarning organizmiga ta'sir qiladigan qo'zg'attuvchi tashqi muhitidan organizmning o'zida hosil bo'lib ta'sir etishi mumkin ekan.

Nerv-muskul to'qimalarini qo'zg'aluvchan to'qimalar hisoblanadi, ularning faoliyoti xususiyatlari shu to'qimaning qo'zg'alishi bilan ifodalanadi. Qo'zg'alish hosil bo'lganida hujayra membranalarida bioelektrik, kimyoviy, funksional va morfoligik o'resti.

ishlar hosil bo'ladi. Shu xususiyatlardan bioelektrik xususiyatlar munhim o'rinni egallab, qo'zg'alishning nerv to'qimalarini orqali tarqalishi silliq va ko'ndalang targ'il muskullarning qo'zg'alishi bilan kechadi.

### Nerv-muskul preparatini tayyorlash

*Ishni bajarish taribi.* Baqa qorni bilan kaftga qaratib chap qo'lgaga olindi. Katta barmoq bilan baqanining boshi oldinga egiladi. Ensa myogidan orqaroqda joylashgan kichkina chuqurcha topiladi va unga 1-2 mm chuqurlikka ajratuvchi ignanining uchi sanchiladi. Ignanining bir necha ko'ndalang harakatlari bilan bosh miya orqa mlyadan ajratiladi. Bundan keyin igna tanaga nisbatan 90° buriladi va umurtqa kanali bo'ylab orqa miya shikastlanadi, ya'ni baqa harakatsizlaniriladi. Igna umurtqa kanalidan chiqarilib keyin baqanining orqa oyoqlaridan ushlab umurtqa pog'onasi chanoqdan 10 mm yuqoriroqdan kesiladi (70-rasm). Tananing oldingi qismi olib tashlanadi. Qo'lda baqanining orqa oyoqlari chanoq va umurtqa pog'onasining ozroq qismi qolishi kerak. Orqa oyoqlar terisi paypoq shuklida shilinadi, ajratiladi (71-rasm).



70-rasm. Harakatsizlanirilgan baqanining bel qismidan kesish.



71-rasm. Baqa terisini shilish.

Ichki a'zolar va ularning qoldiqlari olib tashlanadi. Keyin umurtqa pog'onasi o'rta chiziqdandan kesiladi. Dum suyagi kesib olib tashlanadi. Chanoq-son birlashmasi kesilib, oyoqlar ajratiladi. Bitta oyoq Ringer eritmasiga solinadi, boshqasini pereparovka qilish davom etadi. Qaychi uchi bilan bel-dumg'aza chigali sohasida chanoq suyagi umurtqa pog'onasidan ajratiladi. Chigal umurtqa pog'onasi bilan birlashgan holda qolishi lozim. Bel-dumg'aza chigali chanoq-son bo'g'imigacha ajratiladi (72-rasm).


Son sohasida ikki boshli va yarim pardali muskullar orasida quymuch nervi topiladi. Umurtqa pog'onasidan tizza bo'g'imigacha nerv shoxlari eltiyotkorlik bilan kesilib ajratib olinadi.

Organizmdagi barcha muskullar ikki guruhga bo'libat

a) ko'ndalang targ'il muskullar – skelet muskullari


b) ichki organ devorlarida joylashgan siliq muskullari. Muskullarning asosiy vazifasi qisqarish bo'lib, ulanmida organizmdagi barcha harakatlar vujudga keladi. Ichki organlarda bo'lg'ri ichak sfinktrarida va boshqa qismrlarda joylashgan muskullari xil sirotlar ta'sir etib, ular kuchiga qarab uchga bo'libat

Organizminning turli qismrlarda joylashgan muskullari xil sirotlar ta'sir etib, ular kuchiga qarab uchga bo'libat



72-rasm. Nerv va muskulni ajratish:

- 1—o'tirgich nerv;
- 2—son suyagi;
- 3—boldir muskul;
- 4—panjalar;
- 5—umurqa suyagi qoldigi.



73-rasm. Nerv-muskul preparati:

- 1—umurqa pog'onasining qoldigi;
- 2—nerv;
- 3—son suyagi;
- 4—muskul.

Tizza bo'g'imidan yuqorida joylashgan quymuch nervidoni boshqa hamma to'qima olib tashlanadi. Son suyagi tizza bo'g'imidan 1,5–2,0 sm yuqoriroqdan kesiladi. Boldir muskulining pay bilan bog'lanadi va pastroqdan kesiladi. Shunday qilib, boldir muskul va quymuch nervidan iborat nerv-muskul preparati tayyor lanadi (73-rasm). Shu narsani esda tutish kerakki preparatning qisilishi, tortilishi, qurib qolishi uni zararlaydi va u qo'zg'aluv chaligini yo'qotishi mumkin.


### NAZORAT SAVOLLARI

1. Qanday qo'zg'aluvchan to'qimalarini bilasiz?
2. To'qimalarga ta'sir ko'satilganda ular qanday javob reaksiyasi qaytaradi?
3. Ta'sirot xillarini ayting.
4. Nerv va muskul qanday xususiyatlarga ega?
5. Nerv-muskul preparati qanday maqsadda taylorlanadi?

### 33-dars. MUSKULLARNING YAKKA VA TETANIK QISQARISHLARI

**Darsning maqsadi:** muskullarning yakka va tetanik qisqarishi labillik, pog'ona kuchi haqida tushunchaga ega bo'lish va ulami nerv-muskul preparatida o'reganish.

**Dars uchun kerakli hayon va jihozlar:** baqalar, nerv-muskul preparati, elektr toki, qaychi, shisha tayoqcha, po'kak taxtachi, miograf, Ringer eritmasi.



74-rasm. Muskullarning yakka qisqarish chiq'i:  
a—yakka qisqarish; b—vaqt chizig'; d—ta'sirot berish bejisi; e—shirim davri; f—qisqarish davri; g—bo'shashish davri. Pastdag'i chiq'i

Agar yakka qisqarishni kimografga yozib olinsa uni ifoda etdiladi:  
egri chiziqa uchta davr hosil bo'jadi:

**1. Yashirin davr** – muskulga ta'sirot berilganidan to uning qisqarishning paydo bo'lishigacha o'tgan vaqt.


### 2. Qisqarish davri.

### 3. Bo'shashish davri.

Yakka qisqarishning umumiy davri turli qishloq xo'jalik vunlarida, shuningdek, bir turdag'i qishloq xo'jalik hayvonlarining har xil muskullarida bir xil emas va bu davr issiq qonli hayvonti muskullarida sovuq qonli hayvonlar muskullarimikidan kam. Musklon issiq qonli hayvon muskullarida yakka qisqarish davri 0,04–0,1 soniyaga, sovuq qonllarda 0,1 – 1 soniyaga teng. Yakka qisqarish davri muskul qo'zg'aluvchanligiga, tashqi muhit haroratiga bog'liq ya'ni baqa boldir muskulining qisqarish davri 0,1 soniyaga teng va shu vaqtning: 0,01 soniyasi qisqarishning yashirin davri, 0,04 soniyasi qisqarish davri, 0,05 soniyasi bo'shashish davriga sarf bo'jadi.

Qisqarishning yashirin davrida energiya ajralib chiqib, ana shu energiya hisobiga muskul qisqaradi. Muskulning qisqarish darajasi ya'mi kuchi ta'sirotchining kuchiga bog'liq. Muskullarning baroqalarini bir xil qo'zg'aluvchanlikka ega bo'lmagan uchun kuchi ta'sirotdan eng qo'zg'aluvchan tola qo'zg'alib, ta'sirot kuchi oshib borganda kam qo'zg'alishiga, qisqarishga sabab bo'lib, ta'sirot kuchining ma'lum darajagacha oshishi muskulni kuchi qisqartiradi. Yakka qisqarishda qo'zg'alish tabiat o'r ganiliadi.

**Tetanik qisqarish**, ya'ni tabiiy sharoitda odam va hayvonlarning muskul tolalari yakka-yakka qisqarmasdan, boshqa tetanik holda qisqarib turadi, chunki muskullarga nervlari orqali bir emas bir necha impulslar navbatma-navbat, muayyan zalp bilan kelib turadi. Tanadan ajratib olingen muskulni navbatma-navbat soniyasiga 10 marta tezlik bilan ta'sir beriladi, muskul yakka qisqaradi, chunki ta'sirot bunday ritmda berilganda, har qaysi navbaitagi ta'sirot muskul oldingi ta'sirotdan qisqarib bo'shashgandan so'ng muskulga yetib keladi va uni yana qaytdi qisqartiradi. Agar muskulga berilayotgan ta'sirot biroz tezlashtiriladi tayyorlanadi va pog'ona kuchi aniqlanadi. Muskulli preparat miografga bog'lanib, unga induksion g'altakning kaliti yakka tartibda ulanganida to'sir etiriladi. Indukcion g'altakning kaliti yakka tartibda ulanganida muskullar qisqarib kengayish bilan javob beradi. Muskullar birinchi marta ulanganda ikki marta qo'zg'aladi: bir marta tok ulanganda, ikkinchi marta tok uzilgan paytda. Agar ta'sirot ketma-ket berilsa muskullar tetanik qisqarish bilan javob beradi.



75-rasm. Turli xil ta'sirotlar ta'sirida muskullarning qisqarishi:  
1—yakka qisqarish; 2, 3, 4—tishchali tetanus; 5—silliq tetanus.

### Muskullarning qisqarish va qo'zg'alish pog'onasini aniqlash

Muskul qisqarishini o'r ganish uchun nerv-muskul preparati tayyorlanadi va pog'ona kuchi aniqlanadi. Muskulli preparat miografga bog'lanib, unga induksion g'altak yordamida elektr toki to'sir etiriladi. Indukcion g'altakning kaliti yakka tartibda ulanganida muskullar qisqarib kengayish bilan javob beradi. Muskullar birinchi marta ulanganda ikki marta qo'zg'aladi: bir marta tok ulanganda, ikkinchi marta tok uzilgan paytda. Agar ta'sirot ketma-ket berilsa muskullar tetanik qisqarish bilan javob beradi.

?

**NAZORAT SAVOLLARI**

1. Muskullarning qanday turlari mavjud?
2. Pog'ona, pog'ona osti, pog'ona usti ta'sirotlar haqida tushuncha bering.
3. Yakka qisqarish qanday yuzaga keladi?
4. Tetanik qisqarishni tushuntiring. Labilik deb nimaga aytildi?
5. Muskullarning qisqarish mexanizmi va qo'zg'alish pog'onasini aniqlashni tajribada ko'rsating.

## BIOTOKLARNI ANIQOLASH

**Darsning maqsadi:** muskullarda hosil bo'ladigan bioelektro hodiisalar to'g'risida tushuncha hosil qilish va ularni tajribuda o'rganish.

**Dars uchun kerakli hayvonlar, jihozlar va reaktivlar:** badu shisha tayoqcha va pinset, skalpel, qaychi, ikkita shisha idish, fizioligik eritma, galvonometr, 5% li mis sulfat kristallidir etib masi, 2 ta mis plastinkasi.

Qo'zg'aluvchan to'qimalardagi qo'zg'aluvchanlikning o'ziga xos belgilardan biri elektr potensiallarining hosil bo'lishiadir.

Qo'zg'aluvchan to'qimada elektr potensiallari hosil bo'lishiham birinchi bo'lib italiyalik olim Galvani 1791-yili aniqlagan. U baqaning nerv-muskul preparatidagi boldir muskulini kesib, uning kesilgan joyiga quymuch shisha tayoqcha yordamida olib kelib tegizganda muskulning qisqarganmini kuzatgan. Ya'ni, hayvon to'qimasida elektr hodiisi yuz beradi degan xilosaga kelgan. XX asrda sezgir asboblarning kashf etilishi to'qimalarda hosil bo'ladi. Elektr hodiisalarini atroficha o'rganishga sharoit yaratdi. Ya'ni, muskul, nerv, miya, bezlarda elektr hodiisaları borligi o'rnanilgan. Keyingi paytlarda tirk to'qimalarda ikki xildagi tok borligi aniqlangan:

### 1. Tinchlik (shikastlanish) toki.

To'qimani shikastlab — kesib, uning kesilgan va kesilmagan qismiga elektrod o'matilib galvonometriga ulansa bu qismalar orasidan potensiallar ayirmasi hosil bo'ladi, buni galvonometr ko'rsatdi. Gichining harakatga kelishidan bilish mumkin va bu tok **tinchlik** yoki **shikastlanish** toki deyiladi. Muskulldagi kesilgan joy kesilmagan joyga nisbatan elektromanifiv bo'lib, bir fazalidir. Ko'pchilik olimlarning tekshirishlarida aniqlanishicha hujayra tinch turganda uning ichi va sirtida doim potensiallar farqi bo'ladi. To'qim shikastlanmay qo'zg'alsa unda qo'zg'algan qism qo'zg'almaqdan qismiga nisbatan manfiy zaryadli bo'ladi. Bunga **harakat toki** deyiladi. Harakat toki muskul qisqarganda, nerv tolalaridan impuls o'tayotganda va bezlar shira ishlab chiqarganda hosil bo'ladi.

Qo'zg'alishning bir belgisi harakat tokining hosil bo'lishi hisoblanadi. Bu tok turli to'qimalarda turli qo'zg'alish va tezlik bilan tarqaladi. Nerv, muskul va boshqa to'qimalarda hosil bo'ladi. Bu tokning hosil

vaqt davom etadigan ikki fazali tebranish kuzatiladi. To'qima qo'zg'alishidan hosil bo'ladi elektr hodiisalariga qarab to'qima va organlarning funksional holati, masalan, miya, yurak, ko'z, muskullarda kuzatiladigan elektr hodiisaları asosida shu organlarda paydo bo'ladi turli-tuman kasalliklarning tabiatini o'rganish mumkin.

### 1-ish. Tinchlik (shikastlanish) tokini aniqlash

Baqani olib nerv-muskul preparati taylorlanadi va shishacha ustiga qo'yilib shu preparatda Axillov payi oldidan ko'ndalangiga ozroq kesilladi. Keyin shisha tayoqcha yordamida nerv biroz ko'tarilib kesilgan joyga tegiziladi. Bu vaqtda nervning biotok bilan ta'sirlanishi natijasida muskul qisqaradi. Bu tok muskulning jarohatlangan va jarohattannagan qismlari orasidagi elektr potensiallarining har killigi natijasida hosil bo'ladi.

### 2-ish. Harakat (faoliyat) tokini aniqlash

Ikkita nerv-muskul preparati taylorlanadi. Ikkinchisi preparat nervi birinchi preparat muskulning ustiga ko'ndalangiga tasylanadi va birinchi preparat nerviga elektrod yordamida induksion tok bilan ta'sir qilinadi. Bu vaqtda har ikkala preparat muskullari qisqaradi.

### 3-ish. Odam qo'llining faoliyat tokini aniqlash

Ikkita shisha idish olib, ularning ichiga 5% li mis sulfat kristallidir eritmasidan solinib, uning ustiga sim uzatkich yordamida galvonometriga ulangan mis plastinkalar tushiriladi. Qo'l panjalari eritmaga tushirilib, barnoqlar navbatma-navbat qisiladi, ikkinchisi qo'l panjalari erkin holatda tutiladi. Qo'l panjalarning harakati tufayli galvonometr ko'rsatkichi goh u tomonga, goh bu tomonga o'zgarib, faoliyat toki hosil bo'lganini ko'rsatadi. Bu tokning hosil bo'lishi qo'l barmoqlari muskullarining qisqarishi bilan bog'iil.



## Nazorat savollarari

- Muskullarda elektr hodisasi qanday yuz beradi?
- Tinchlik (shikastlanish) va harakat (faoliyat) toki deb nimaga aytiladi? Udenil va fosfat kislotalarga parchalanadi. Shu reaksiya natijasida
- To'qimalarda ro'y beradigan elektr hodisalari qaysi asboblar yordamida aniqlanadi va o'rganiladi?
- Qo'zg'aluvchan to'qimalarda elektr hodisalarining wujudga kelishi qachon va kim tomonidan aniqlangan?
- Tinchlik va harakat toklari qachon hosil bo'lishini tajribada qanday aniqlanadi?

### 35-dars. MUSKULLARNING ISHLI, CHARCHASHI VA QISQARISH XIMIZZMI

#### Darsning maqsadi:

muskullar ishi, charchashi va qisqarish ximizmi haqida tushunchaga ega bo'lish, miografiya va ergografiyani o'tkazish.

**Dars uchun kerakli hayvonlar va jihozlar:** baqa, nerv-muskul preparati, miograf, ergograf, 1, 2, 3, 4 kg li toshlar, metronom, kimograf.

**Muskul ishi.** Organizmdagi muskullar har gal qisqargandi ma'lum ish bajaradi. Muskullarning bajaigan ishi kilogrammometr bilan ifodalanadi. Masalan, muskul 1 kg yukni 1 m balandlikka ko'tansa bir kilogrammometr (1 kg/m) ish bajarjan bo'ladi. Muskul kuchini aniqlash uchun u ko'tara oladigan maksimal yuk aniqlanadi. Sharotib birday bo'lganda muskul kuchi uning uzunligiga emas, balki ko'n-dalang kesimiga bog'iq; muskulning fiziologik ko'ndalang kesimi, ya'ni muskuldag'i hamma tolalar ko'ndalang kesimlarining yig'indisi qancha katta bo'lsa, u ko'tara oladigan yuk shuncha katta bo'ladi. Tolalari parallel holda o'rnatishgan muskullarning fiziologik ko'ndalang kesimi geometrik ko'ndalang kesmiga mos keladi; tolalari qiyishiq yotgan (masalan, patsimon tolali) muskullarda tolalar kesimlarining yig'indisi muskulning geometrik ko'ndalang kesmidan ancha ortiq bo'ladi. Shu sababli tolalari qiyishiq yotgan muskulning kuchi tolalari parallel yotgan xuddi shunday qalinlikdagi muskulning kuchidan ancha yuqori bo'ladi.

**Muskul qisqarish ximizni.** Muskul qisqarganda sodir bo'ladigan kimyoviy jarayonlar, asosan, ikki fazada o'tadi:

- Kislorodsiz — anaerob faza.
- Kislorodi — aerob faza.

Bu ikkala fazada bir qancha kimyoviy o'zgarishlar yuz berib, energiya ajralib chiqadi, ana shu energiya hisobiga muskul qisqaradi va ish bajaradi.

Muskulning qisqarishi uchun zarur energiya *anaerob fazada* hosil bo'ladi. Dastlab adenozinuchfosfat kislota adenozinikkifosfat, udenil va fosfat kislotalarga parchalanadi. Shu reaksiya natijasida energiya ajralib chiqadi va bu energiya muskulning qisqarishi uchun sarf bo'ladi. Adenozinuchfosfat kislotaning parchalamishidan hosil bo'lgan fosfat kislota glikogen bilan birikib, geksozafosfat hosil qilish uchun sarf bo'ladi.

Anaerob fazaning ikkinchi bosqichida kreatinfosfat kislota kislotalari bilan birikib yana adenozinuchfosfat kislotani hosil qiladi. Anaerob fazaning uchinchchi bosqichida geksozafosfat sut va fosfat kislotalarga parchalanadi, oqbatda belgili miqdorda energiya ajralib chiqadi. Ajralib chiqqan energiya hisobiga hosil bo'lgan fosfat kislota kreatin bilan birikib, kreatinfosfat sintezlanadi.

Shunday qilib, bu fazada birin-ketin sodir bo'ladigan reaksiya natijasida adenozinuchfosfat va kreatinfosfat kislotalari qayta hosil bo'ladi va ma'lum miqdorda sut kislota ajralib chiqadi. **Aerob faza.** Anaerob fazaning oxirida hosil bo'lgan surʼut kislota kislorod ishtirokida karbonat angidrid va suvgacha parchalanadi. Lekin surʼut kislotasining hammasi suv va karbonat angidridgacha parchalanmay, faqat beshdan bir qismigina, ya'ni 20% parchalanadi. Bu reaksiya natijasida ham energiya hosil bo'ladi. Ana shu hosil bo'lgan energiya hisobiga parchalanmay qolgan beshdan to'rt qism yoki 80% surʼut kislota yana glikogenga aylanadi.

Muskulda sodir bo'ladigan kimyoviy jarayonlar to'g'ri kech-ganda unda ATPning miqdori kamaymaydi. Faqat belgili miqdorda glikogen sarf bo'lib boradi, xolos. Muskulla glikogen tanqisligi yuz berganda yog'lar va oqsillar ham parchalana boshlaydi va energetik manba sifatida sarf bo'lib borishi mumkin. Yuqorida qayd qilinganlardan ko'rinishdi, muskulning qisqarishi uchun kislorod bo'lishi shart emas, kislorod bo'lmaganda ham muskul qisqara oladi. Lekin muskul kislorodsiz uzoq vaqt davomida qisqara olmaydi. ATP kreatinfosfat va geksozafosfatlarning tanqisligi va sut kislotasining to'planib qolishi tufayli muskul tezda charchab qoladi.

**Muskulning charchashi.** Bir butun organizm ishlashi natijasida hujayra, to'qima va organlar ish qobiliyatining vaqtinchcha pasayishiga va dam olgandan keyin tiklanishiga ularning charchashi deyiladi. Organ yo'ki to'qima dan olgandan keyin charchog'i yozilib, ish qobiliyatii tiklanadi. Agar tanadan ajratib olingan muskul uzoq vaqt


ketma-ket, tez-tez ta'sirlanib turilsa, muayyan vaqt o'tgach muskulning qisqarish kuchi tobora kamayib boradi va bora-bora muskul butunlay qisqarmay qoladi. Bu vaqtida muskulning qo'zg'aluv chanligi pasayradi, muttaq kuchi kamayadi.

Muskul qanchalik tez qisqarsa u shunchalik tez charchaydi. Ishlab turgan muskulda chindan ham moddalar almashinuvning turl mahsulotlari, jumladan, sut kislota hosl bo'lub, muskulning ish qobiliyatini pasaytiradi. Shuningdek, muskul ishlaganda energiya zaxiralari ham kamayadi. Ammo, bu jarayonlarning hech biri charashni tushuntirish uchun to'la asos bo'la olmaydi.

### *I-ish. Miografya*

1. Nerv-muskul preparati tayyorlanadi.
2. Boldir muskul miografga ulanadi.
3. Nerva elektrodlar qo'yilib, muskul qisqarishdan to'xta gunigacha ta'sirot beriladi. Shu vaqtida muskulga bevosita ta'sirot berilsa, muskul qisqaradi. Demak muskul charchamagan.


*Ishi bajarish taribi.* Muskul preparati miografga o'matiladi va ta'sirot berilib tetanik qisqarish hosil qilinadi va yozib olinadi (76-rasm). Keyin kimograf barabani aylantirilib, muskul miograf pishangiga birlashtirilan joyga yuk (tosh) osilib, tetanik ta'sir beriladi, muskulning ishi yozib olinadi.



76-rasm. Miografya.

### *2-ish. Ergografiya*

*Ishi bajarish tartibi.* Ergograf, ya'ni muskul harakatlarini yozadigan asbobni stolga qo'zg'almas qilib o'mattiladi. Gorizontall qilib qo'yilgan kimografni ergograf yozgichiga tegizib qo'yiladi.



77-rasm. Ergografiya.

Tekshiriladigan kishi bilagi ergograf tasmasi yordamida stanokka mahkam bog'lanadi. Ergograf ipiga 3 kg li yuk bog'lanadi. Metronomni bir daqiqada 100 marta tebranadigan qilib to'g'rilib, ishga solinadi va kimograf harakatga keltiriladi. Tekshiriladigan odamga metronomning tebranish ritmiga qarab, barmoqni bukish va yukni ko'tarish taklif etiladi. Barmoq qisqarishlarining balandligi astasekin pasaya boshib nolga qadar tushib qoladi, ya'ni «charchash» yuzaga keladi. Agar shu vaqtida elektrod yordamida qo'lning harakat nuqtasiga doimiy tok yuborilsa, charchab qolgan barmoq yana ishlay boshibaydi.

Bundan ma'lumki, bukuvchi muskullar ixtiyoriy sur'atda qisqorganida charchash hodisasi nerv-muskul apparatida emas, balki markaziy nerv sistemasida yuzaga kelar ekan.



### **Nazorat savollari**

1. Muskul qisqarishi, ishi va charchashi qanday sodir bo'ladi?
2. Muskularning qisqarish ximizmini tushuntiriting.
3. An aerob fazada qanday kimyoiy jarayonlar yuz beradi?
4. Aerob fazada kechadigan kimyoiy jarayonlarni tushuntiriting.
5. Miografya va ergografiya qanday o'tkaziladi?

**Kimograf** sekin aylanadigan qilib to'g'rilanadi. Ergografining qo'lni siqib turadigan qismi toshga bog'langan ipni barmoq bilan ushlaganda tarang bo'ladigan qilib suriladi. Ip tarangligi nervning mikrometrik vinti yordamida qo'shimcha to'g'rilanadi (77-rasm).

Yurak ishiga ma'lum ta'sirot ta'sir etsa, o'sha ta'sirotga nisbatan u javob beradi yoki endogen ta'sirotlarga nisbatan reflektorlar ro'yobga chiqadi. Barcha misollarda hamda muayyan reseptorlarga ta'sirot berilib, markazga intiluvchi nerv orqali MNSiga uzatiladi va markaziy nerv sistemasining muayyan qismida analiz va sintez qilinib javob reaksiyasi tegishli nervlar orqali ishchi organa keladi: igna sanchilganda qo'l muuskullariga, kislota ta'sir qilganida oyoq muskullariga, yurakka ta'sir berilganda yurak muskullariga yetib borib bu ishchi organlari faoliyatini ozgaradi. Demak, misollar asosida reflekslarning hossil bo'lishi lehun MNSsi faoliyati zatur. Refleksning yoyi, vaqt va maydoni bo'ladi.

**Refleks yoyi** deb, ta'sirotning retseptorlarda qabul qilinib differen nervlar orqali MNSsiga boradigan va unda qayta ishlani, javob reaksiyalarining efferent nerv tolalari orqali qaytib ishchi organa keladigan yo'lliga aytildi.

**Refleks vaqt** deb, ta'sirotning retseptorlarda qabul qilinib differen nervlar orqali MNSsiga boradigan va unda qayta ishlani, javob reaksiyalarining efferent nerv tolalari orqali qaytib ishchi organa keladigan yo'ini o'tish uchun ketgan vaqtga aytildi.

**Refleks maydoni** deb, refleks hosil bo'ishi uchun ta'sirlanishi kerak bo'lgan retseptorlar joylashgan joyga aytildi.

Refleks yoyi besh qismdan iborat:

1. Retseptorlar.
2. Markazga intiluvchi (afferent) nerv.
3. Nerv markazi.
4. Markazzdan qochuvchi (efferent) nerv.
5. Ishchi organlar.

Agarda refleks yoyidagi besh qismdan birortasi faoliyat ko'r-satmasa refleks hosil bo'lmaydi.

Organizmdagi barcha organlar ishi, organ sistemalarning bir-biri bilan aloqasi, faoliyatlarining o'zaro moslashuvi, uyghunlashishi, organizmdagi barcha vazifalarning bir butunligi reflekslar asosida yuzaga keladi.

Refleks to'g'risidagi ta'limot fransuz olimi Rene Dekart tomonidan asoslangan bo'lib, u fanga aks etish, inikos degan iborani kiritadi. U ta'sirot sezgi organlari orqali qabul qilinib tegishli nervlar orqali miyaga borib aks etib, nervlarga qaytariladi deydi. Refleks

## VIII bob. MARKAZIY NERV SISTEMASINING FIZIOLOGIVASI

Markaziy nerv sistemasi (MNS) bosh va orqa miyadan tashhil topgan bo'lib, ikkita muhit vazifani bajaradi, ya'ni hujayrla organizmning tashqi muhit bilan aloqadorligini ta'minlaydi. Markaziy nerv sistemasi organizmning turli organ va to'qimalaridan markazga intiluvchi nerv tolalari orqali axborotlar olib, uni tegishli qismlarida tahvil qilib, hosil bo'lgan javob reaksiyasini markazzdan qochuvchi nerv orqali tegishli ishchi organa yuboradi. Oqibatta organ faol holatga kelib, belgili faoliyat ro'yobga chiqadi, ya'ni muayyan hayotiy hodisa sodir bo'ladi. Nerv sistemasi faoliyatining mazmunini refleks tashkil qiladi.

### 36-dars. REFLEKS YOYI, VAQTI VA MAYDONININI ANIQOLASH

**Darsning maqsadi:** refleks, refleks yoyi, refleks vaqt, reflekstushunchalarga ega bo'lishi va tajribada o'rganish.

**Dars uchun kerakli hayvonlar, jihozlar va reaktivlar:** baqlar, stakan, qaychi, pinset, shtativ, suv, sulfat kislotosining turli eritimalari (0,1%, 0,3%, 0,5% va 1,0% li).

**Refleks** deb, organizmning ichki va tashqi muhit ta'sirotlariga markaziy nerv sistemasi ishtirokida javob berish reaksiyasiga aytildi.

Inson qo'liga igna sanchilganida qo'sini darrov tortib olishi, ignadan yiroqlashtirishi yoki baqa oyog'ini kislota eritmasiiga botirganda, oyog'ini tezlik bilan tortib olishi, bukishi organizmdagi reflektor jarayonlar bo'lib, bu organizmning tashqi muhit ta'sirotlariga hosil qilgan javob reaksiyalaridir, ya'ni ekzogen ta'sirotlarga javob reaksiyasidir.


to'g'risidagi ta'lomotni chez olimi Proxasko rivojiantirdi. Bosh miya katta yarimsharlar po'slog'ining reflektor faoliyatini rus olimlari I. M. Sechenova va I. P. Pavlovlar kuzatishlar asosida to'liq va atroficha ochib bergenlar.

### I-ish. Reflektor maydonini aniqlash

Reflektor maydonini aniqlash uchun baqa bosh miyasi kesib olib tashlab shtativga osiladi. Pinset yordamida keyingi oyoq barmoqlari qisilganida baqa oyog'ini bukadi, ya'ni mexanik qo'zg'atuvchi ta'siriga nisbatan bukish javob reaksiya hosil bo'ladı.

### 2-ish. Refleks yoyini aniqlash

Refleks yoyini (78-rasm) aniqlash uchun baqa bosh miyasi qismini ko'z soqqlari orqasidan kesib shtativga osiladi. Baqa tinchinlanganidan keyin bir oyog'ini 0,5% li sulfat kislotosi eritmasiga botirliganda, oyoqlarini bukib, himoyalanish refleksi hosil bo'ldi. Agar son sohasidan o'tirgich nervni ko'tarib, ip bilan bog'lab, shu bog'langan joyning pastrog'idan nervni kesib, stakandagi 0,5% li sulfat kislotasiga baqa oyog'i botirilsa, bukish refleksi hosil bo'lmaydi, ya'ni markazga intiluvchi nerv uzilganligi uchun reflektor jarayon ro'yobga chiqmaydi, ya'ni refleks yoyi elementlari shikastlanib, butunligi buzilib refleks yoyi hosil bo'l-maydi. Yoki son sohasidagi terisini aylantirib kesilsa reflektor, ya'ni qabul qiluvchi qism bo'limgani uchun ta'sirotni sezmay bukish refleksi hosil bo'lmaydi. Xuddi shunday orqa miya jarohatlansai yana ta'sirotga javob ishlab chiqarilmay reflektor akt ro'yobga chiqmaydi. Demak, refleks yoyining bирорта qismi yoki element shikastlansa ham reflektor jarayonlar yuzaga chiqmas ekan.




78-rasm. Somatik (A) va vegetativ (B) refleksarning refleks yoyi:

1—receptor; 2—afferent neyron; 3—kontakt neyron; 4—efferent neyron; 5—ishchi organ.

### 3-ish. Refleks vaqtini aniqlash

Refleks vaqtı ta'sirotchi kuchiga bog'liq bo'lib, uni aniqlash uchun sulfat kislotosining 0,1; 0,3; 0,5 va 1,0% li eritmasi tayorlanadi. Bosh miyasi ko'z soqlarining orqa qismi bilan olib tashlangan baqani shtativga osib, tinchlanganidan keyin stakandagi 0,1% li sulfat kislotosi eritmasiga oyog'ini tu'shib, uni bukish vaqtı paydo bo'lishini sekundomeraga qarab aniqlanadi. So'ngra suv bilan baqa oyog'i yuviladi va 2—3 daqiqa o'tgandan keyin sulfat kislotosining 0,3% li eritmasiga botirib refleks vaqtı aniqlanadi. Xuddi shu tartibda sulfat kislotosining 0,5 va 1,0% li eritmasiga bir xil chuqurlikka baqa oyog'ini botirib bukish refleksini hosil qilish vaqtı aniqlanadi. Kuzatishlar oqibatida kuchli va kuchsiz kislota eritmalari ta'siri o'rjasidagi bog'lanish aniqlanadi (79-rasm).



79-rasm. Refleks vaqtini aniqlash.

### NAZORAT SAVOLLARI

1. Refleks to'g'risidagi ta'lomot kimlar tomonidan yaratilgan?
2. Refleks, refleks yoyi, refleks vaqtı va refleks maydoni nima?
3. Refleks yoyi necha qismdan iborat?
4. Refleks vaqtı qanday aniqlanadi?
5. Reflektor jarayonlarni ro'yobga chiqaruvchi tajribalarni namoyish qiling.

ning qo'zg'aluvcchanlik xususiyati e'tiborga olimishi lozim (80-rasm).  
Masalan, to'q haywonda ovqatga shartli refleks juda qiyinchilik bilan  
hosil bo'ladi yoki mutlaq hosil bo'lmaydi.


### 37-dars. SHARTLI REFLEKSLARNI HOSIL QILISH QOIDALARI VA USULLARI

#### IX bob. OLY NERV FAOLIYATI

Oly nerv faoliyatining fiziologiyasi haqidagi ta'llimot I.P. Pavlov  
tomonidan bosh miya yarimsharlar po'stlog'i va po'stloq osti  
tuzilmalarining faoliyatini o'rganish asosida yaratilgan.

Oly nerv faoliyati haywonlar xulq-atvorida shartli va shartsiz  
reflekslarni hosil qilish bilan namoyon bo'ladi. Tashqi muhitning  
uzluksiz o'zgarishlariga organizmning mutlaqo yangicha moslashuv-  
chanligi shartli reflekslar yordamida ta'minlanadi. Shartli refleks  
tufayli hayvon hidni bilish orqali ovqatni izlab topadi, o'z  
dushmaniga duch kelishdan o'zini saqlashga harakat qiladi va hokazo.  
Shartli reflekslarni hosil qilish usulidan foydalanib, bosh miya  
yarimsharlar po'stlog'ining faoliyatini o'rganish mumkin. Hay-  
vonlarda shartli reflekslarni hosil qilishda ikkita asosiy qoidaga amal  
qilinishi lozim:

1. Indifrent qo'zg'atuvchi (tovush, yorug'lik, hid) shartsiz  
qo'zg'atuvchilar (oziqa iste'mol qilish, og'riqli ta'sirot va boshq.)  
ta'siri bilan bir vaqtning o'zida bir  
necha marta berilishi shart.
2. Indifrent qo'zg'atuvchi shart-  
siz qo'zg'atuvchi ta'siri bilan bir  
vaqtda ta'sir etib qolmasdan, balki  
bir necha soniya oldin ta'sir etishi  
kerak.



Bir necha marta shartli va shart-  
siz qo'zg'atuvchilar birgalikda  
berilganidan keyin shartli refleks  
hosil bo'ladi: chiroq yoqilishi bilan  
so'lak ajralishi, qo'ng'iroq chal-  
nishi bilan hayvonning ovqatga  
qarab borishi va boshqalar.

Shartli reflekslarni hosil qili-  
shda, hayvonning fiziologik holati,  
eng awvalo, nerv markazlari

qilish qoidalari, usullari va turlarini o'rganish.  
**Dars uchun kerakli hayvonlar va jihozlar:** so'lak beziga naycha  
o'matilgan it, balqli akvarium, shartli refleks hosil qilish xonasi  
yoki kamera, probirkalar.

Bosh miya yarimsharlar po'stlog'i faoliyati mazmunini shartli  
refleks tashkil etadi. Hayotiy jarayonlar davrida bosh miya  
yarimsharlar po'stlog'i ishtirokida hosil bo'ladigan reflekslar **shartli**  
**reflekslar** deb atalib, ular zaruriyati qolmaganda yo'qolib, nasl-  
dan nasnga berilmaydi. Shartli reflekslar shartsiz refleks asosida  
hosil qilinadi.

**Shartsiz refleks** organizmning tug'ma, nasldan nasnga beriladi,  
dig'an, hayot davromida o'zgarmaydigan bosh miya yarimsharlar  
po'stlog'i ishtirokisiz hosil bo'ladigan refleksdir.  
I.P. Pavlov shartli reflekslar usuli yordamida bosh miya  
yarimsharlar faoliyatini o'rgangan. Shartli reflekslarning ikki turi:  
tabiy va sun'iy shartli reflekslar farq qilinadi. Shartli reflekslarni  
hosil qilayotganda quyidagi qoidalarga rioya qilinishi lozim:  
1. Shartli ta'sirot shartsiz ta'sirotdan sagina (taxminan 10—20  
soniya) oldin ta'sir qilishi lozim.  
2. Shartli va shartsiz ta'sirotlar ikkalasi birgalikda bir necha  
marta ta'sir qilishi lozim.

3. Shartli va shartsiz ta'sirotlarning kuchi o'rtacha bo'llishi kerak.  
4. Hayvonlar bosh miya yarimsharlar po'stlog'ining faoliigli  
normal holatda bo'lmog'i, organizmda patologik jarayonlar  
bo'lmasi, tajribada qo'llanilayotgan shartli va shartsiz ta'sirotlardan  
boshqaga yot ta'sirotlar organizmga ta'sir qilmasligi zarur.  
Shartli reflekslar turli ta'sirotlar tufayli o'zgarib qolishi mun-  
kin. Shu munosabat bilan shartli refleks hosil qilayotganda hayvon  
tajriba o'tkazuvchi va tajribaga aloqasi yo'q ta'sirotlardan mutlaq  
ajratib qo'yiladi. Buning uchun tajriba hayvonini begona shovqin,  
hid, harorat, yorug'lik va boshqaga yot ta'sirotlar kira olmaydigan

maxsus kamerasiga joylashtiriladi. Sharhlis refleks hosil qilish uchun kerak bo'lgan asbob va moslamalarga kamera ichida turadi.

Sharli refleks hosil qilishning bir necha usullari mayjud

*So'lak ajratish metodi* dastlab I.P. Pavlov tomonidan yaratilgan. I.P. Pavlov bosh miya yarimsharlarining faoliyatini shu metod asosida o'rgangan. Bu metodni qo'llashdan oldin hayvon so'lak bezlarining yo'shi lunijidan tashqariga chiqarib tikib qo'yildi (8-taengli rasm). So'ngra so'lak ajralishiga shartli refleks hosil qilinadi. Har mi turdag'i qishloq xo'jalik hayvonlarida so'lak ajralishi bir xil bo'lib magani uchun bu metod qishloq xo'jalik hayvonlarining oly nera faoliyatini o'rGANISHDA kamroq qo'llaniladi.

Qishloq xo'jalik hayvonlarida sharti reflexlarni hosil qilish uchun himoyalanimish-harakat, harakat-ovqatlanish metodlari keng qo'llaniladi.

*Himoyalanish-harakat metodi* qo'llaniganda, odatda, oyoqni



bukish shartsiz refleksi negizida shartli refleks hosil qilinadi. Buning uchun tajriba hayvoni oldingi oyog'i bilaguzuk bo'g'inining atrofi dagi jumidan tozalamb, fiziologik eritma bilan ho'llanadi. So'ngda shu joyga induksion g'altakka ulangan elektrodlar bog'lab qo'yiladi. Induksion g'altakdan berilayotgan tok shartsiz ta'sirot, hushshak, qo'ng'iroq chalish, terini isitish yoki sovitish yoxud boshqa signallardan shartli ta'sirot sifatida foydalananib oldingi oyoqni bukish shartli refleksi hosil qilinadi. Ayni vaqtida shartli ta'sirot berilgandan so'ng (1-5 soniya o'tishi bilan) oyoq elektr toki bilan ta'sirlanadi. Tajriba shu tariqa bir necha marta takrorlangandan keyin, shartli refleks hosil bo'ladi. Oyoq harakati tegishli pnevmatik moslama yordamida kimografdagi yozib boriladi.

*Harakat-ovqatish metodi* yordamida shartli refleks hosil qilib joylashtiriladi. So'ogra oziqani shartsiz, qo'ng'iroq, yorug'lik va boshqalarni shartli ta'sirot sifatida qo'llab, hayvoni kamera yoki xonachaning tegishli joyiga harakat qilib borib ovqatlanishiga shartli refleks hosil qilinadi. Shartli refleks hosil bo'lgandan so'ng birgina shartli ta'sirot ta'sirida hayvon kamera yoki xonaning ilgaridan oziqlanadigan joyiga yurib boradigan bo'лади.

*I-ish. Hayvonlarda shartli refleks hosil qiluvchi moslama bilan tanishish*

Talaba kafedrada mayjud bo'igan shartli refleks kamerasi bilan tanishadi (81–83-tasmlar).

*81-rasm. Kalamuslida yorug'iikka shartli refleks hosil qilish moslamasi: I-bo'sh katakcha; 2, 3-chiroq; 4-elektr toki ularadigan bo'lim.*



**83-rasm.** Ittarda shartli refleks hosil qilish moslamasi:  
1—oziqqa uchun idish; 2—chiroq; 3—fiksatsiya qilish uchun stanok.

## 2-ish. Himoyalanish-harakat reflekslari

### hosil qilish va uni kuzatish

Sichqonda shartli – himoyalanish refleksi hosil qilinadi. Shartli ta'sirot sifatida qizil chiroq, shartsiz ta'sirot sifatida elektr to'lib foydalaniladi. Mayda laboratoriya hayvoni uchun shartli refleks kamerasi to'siq bilan ajratilib, ikki qismga bo'linadi. Kamenni to'sig'ida yorug'lik signali bo'lib, ushu qismda elektr tarmog'i ulangan metall plastinka montaj qilinadi. Shartli refleks hosil bo'lgan hayvon elektr chiroq'i yonishi bilan poli elektr tarmog'iga ulangan sekisiyadan qo'shni seksiyaga ko'chib o'tadi.

### 3-ish. Harakat-ovqatlanish refleksini hosil qilish

Bu tajriba baliqlar yoki boshqa hayvonlarda o'tkaziladi. Bاليqlar uchun elektr chiroq'ning yoqilishini shartli ta'sirot va oziqani shartsiz ta'sirot qilib olinadi.

Baliqqa 15–25 marta shartsiz va shartli ta'sirot orqali ta'sirot qilib shartli refleks hosil qilinadi.

### 4-ish. Itlarda so'lak ajralishi shartli refleksini hosil qilish

So'lak ajralishini shartli reflektor yo'i bilan hosil qilish uchun quloq oldi so'lak beziga naycha o'rnatilgan it kerak bo'ladi. Bu itdan oziga hidi, qo'ng'iroq chalinishi va boshqalarga shartli refleksini hosil qilishda foydalaniladi.

*Ishni bajish tartibi.* Hayvon stanokka fiksatsiya qilinadi, lun terisiga naycha yetimlanadi. Keyinchalik itda so'lak ajralishi shartli refleksini hosil qilish uchun unga ovqat solinadigan idish cheqga olinib, 20–25 g qoq non va bir bo'lak kolbasa solinadi. Keyin shartli ta'sirot – qo'ng'iroq chalinib, 5 soniyadan keyin shartsiz ta'sirot, ya'ni idishdagi ovqat beriladi. Hayvon ovqatni yeyayotganda, qo'ng'iroq 20–25–30 soniya chalinib turiladi va keyin to'xtatiladi hamda ovqat qo'yigan idish ham olinadi. Bu holat bir necha marta 2–3 daqiqlida takrorlanib turilaveradi. Natijada itda faqat shartli ta'sirot ta'siriga, ya'ni uni qo'ng'iroq chalinishiga ovqat berilmaganida ham so'lak ajralishi kuzatilaveradi. Shartli ta'sirotchi ta'siri oziqaga nisbatan oldin berilishi kerak. Bir nechma shu tarza hayvoni ta'sirlab, so'lak ajralishining shartli refleksini hosil qilish mumkin.



### NAZORAT SAVOLLARI

- Shartli refleks deb nimaga aytildi?
- Shartli refleks hosil qilishning shart-sharoitlarini tushuntiring.
- Shartli reflekslarni hosil qilishda qanday qoidalarga rioya qilish kerak?
- Shartli reflekslarning qanday turlarini bilasiz?
- Turi hayvontarda shartli refleks hosil bo'lishini tajribalar asosida tushuntiring.

### 38-dars. BOSH MIYA YARIMSHARLARI PO'STLOQ QISMIDAGI TORMOZLANISHLAR

**Darsning maqsadi:** bosh miya yarimsharlar po'stlog'ida kuzatiladigan tormozlanishlarning turlari va ahamiyatini bilish.

**I.M. Sechenov tajribasida tormozlanishlarni o'rganish.**

**Dars uchun kerakli hayvonlar, jihozlar va reaktivlar:** baqalar, shtativ, qaychi, skalpel, pinset, paxta, filtr qog'ozi, osh tuzining kristallari, xlorid kislotosining 0,1% li eritmasi.

Nerv sistemasining boshqa qismlari singari, bosh miya yarimsharlar po'stlog'ida ham qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlari sodir bo'lib turadi. Po'stloqning qo'zg'alishi shartli reflekslar hosil bo'lishiga, tormozlanishi esa ularning yo'qolishiga olib keladi. Po'stloqda ikki xil tormozlanish farq qilinadi:

- Shartsiz (tashqi) tormozlanish.

Shartsiz tormozlanishning o'zi ikkiga bo'linadi: tashqi va chegaradan chiqqan tormozlanish.

**Tashqi tormozlanish** miya po'stlog'ida shartli refleks markazi bilan bir qatorda boshqa markaz kuchli qo'zg'alganida kuzatiladi. Chunki kuchli qo'zg'algan markaz o'ziga nisbatan kuchsizroq qo'zg'algan markazlarni tormozlaydi. Shartli refleksni tormozlaysidan markaz, shu shartli refleksning markazidan tashqarida bo'lganligi uchun ham, tormozlanishning bu xili tashqi tormozlanish deyiladi.

Sigirlar sog'ilayotganida odadagi sharoitining o'zgarishi, shovqin-suron ko'tarilishi, begona odamlar paydo bo'lishi surberish refleksining tormozlanishiga sabab bo'ladi. Ichki organlardan kelayotgan ta'sirotlar ham shartli refleksni tormozlab qo'yadi. Masalan, qovuqning haddan tashqari to'lib ketishi, quisish va boshqalar shartli reflekslarni tormozlay oladi.

Chegaradan chiqqan tormozlanish tashqi tormozlanishni  
bir ko'rinishi bo'sib, shartli ta'sirot kuchi yoki ta'sir qilish muddati  
odatdagisidan haddan tashqari oshib ketganida kuzatiladi. Masalda,  
qo'ng'iroq chalimishiga so'lak ajiratish shartli refleksi hosil qilingan  
itga qo'ng'iroq odatdagidan ancha kuchli yoki uzoq vaqt davomida  
chalinsa, so'lak ajiratilishi kuzatilmay qoladi. Chunki nerv hujay  
ralarining qo'zg' alish me'yori, chegarasi bor. Agarda qo'zg' alish  
shu me'yordan, chegaradan chiqib ketsa tormozlanish paydo  
bo'ladi.

**2. Shartli ta'sirotni differensatsiyalash.** Haywonga biror shartli ta'sirot berilganida uni farqlaydi. Lekin shu ta'siroga shartli reaksiya kuzatiladi (shartli refleks generilizatsiyasi). Keyinchalik esa unga ta'sir ettiligian shartli ta'sirotni boshqa shunga yaqin ta'sirotdan farqlaydi. Masalan, itda metronom 100 marta tebranishiga so'lak ajralishining shartli refleksi hosil qilingan bo'lsa, u metronomning 100 marta tebranishi bilan 90—80—85 tebranishiga so'lak ajratib, shartli refleks generilizatsiyaga uchraydi. Ayni paytda itda metronomning 100 marta tebranishi mustahkamlanib, boshqa ta'sirotlar mustahkamlanmasa unda it bu ta'sirotni ajratib, differensatsiyalab, unga so'lak ajratmaydi. Demak, itning differensatsiyalaydigan tormozlanishining asosida miya po'stlog'ining tahli faoliyati yotar ekan.

Shartsiz tormozlanish tug'ma bo'lib, po'sloq bilan bir qatorda markaziy nerv sistemasining quyi qismlari uchun ham xos. Shartli tormozlanish faqtgina po'sloqda kuzatiladi, sekinlik bilan paydo bo'lib, uzoq vaqt davom etadi. Shartli refleks shartli ta'sirot bilan doim bir zaylda mustahkamlanib turilmasa shartli tormozlanish paydo bo'ladi. Bu vaqtida tormozlanish mustahkamlanmay qolgan shartli refleks markazining o'zida paydo bo'ladi. Tormozlanish shartli refleksning o'z markazida paydo bo'lganligi tufayli, u ichki tormozlanish ham deyiladi.

Shartli tormozlanishning to‘rt xili bor:

keyin, shartli ta'sirotning o'zgarishi va o'zgargan ta'sirotning shartsiz ta'sirot bilan mustahkamlanmasligidan shartli refleks so'nadi. Masalan, itda so'lak ajralishiga qo'ng'iroy chalnishi oziga refleks hosil qilinganidan keyin, shu qo'ng'iroy chalnishi oziga berish bilan mustahkamlanib turilsa so'lak ajralaveradi, ya'nini shartli refleks yo'qolmaydi. Agar qo'ng'iroy awvalgiga nisbatan o'zgartirilib (kuchaytirilsa yoki uzib-uzib yoki surunkasiga yoki kuchsiz chalinsa va oziga bilan mustahkamlanmasa so'lak ajralishi kamayadi) turilsa, refleks markazi tormozlamib, so'lak ajralishi kamaya borib, keyin mutlaqo ajralmay shartli refleks so'nadi. Bu boshqacha chalilgan qo'ng'iroy shartsiz ta'sirot bilan mustahkamlanmagani uchun awval qo'zg'algan shartli refleks markazi tormozlanib, bir qancha vaqt dan keyin shartli ta'sirot so'ngan refleks miya qo'zg'aluvcchanligi ortishi evaziga paydo bo'лади.

**4. Shartli refleksning kechikishi.** Shartli va shartsiz ta'sirochilar ta'siri o'rtasida ozmi-ko'pmi vaqt o'tishi shartli refleksning kechikishiiga olib keladi. Masalan, hayvonda chiroq yoqilishiga shartlii refleks hosil qiliшиб, keyin chiroq yoqilishi bilan oziqa berishiga oralig'ida juda kam vaqt o'tganida (1—5 soniya) chiroq yoqilishiga so'lak ajraladi. Agar chiroq yoqilishi bilan oziqa berish o'rtasidagi vaqt cho'zilib ketsa (2—3 daqiqaga), endi chiroq yoqilishi bilan so'lak ajralishi o'rtasida ham shuncha vaqt o'tadi. Bunda shartlii refleks markazini awvaliga tormozlasa, keyinchalikka qo'zg'attadi.

Ba'zan shardii ta'sirot begona ta'sirot bilan birga berilsa yok sharli ta'sirot begona ta'sirot bilan berilganida refleks tor-mozlanishidan chiqadi. Masalan, qo'ng'iroq ovoziga so'lak ajral-maganida qo'ng'iroq chalib, olov yoqilsa, it yana so'lak ajratboshlaydi.

bilan javob beraverar edi. Tormozlanish tuffayli organizm faqatgina shartsiz ta'sirot bilan mustahkamlangan, o'zi uchun zaror reaksiyalarni vujudga keltiradi va shunday qilib, tashqi muhitiga mukammalroq moslashadi.

## Orqa miya reflekslarining markaziy tormozlanishi.

### I. M. Sechenov tajribasi

Ish olib borish uchun baqa boshining terisi va suyagi ikkala burun teshigi orqasidan «П» harfi shakliida qirqiladi. Keyin termining o'ng va chap tomonlari 1,5—2,0 sm uzunlikda kesib olib tashlandi. Ingichka uchli qaychi yordamida kalla suyagi xудди shu tartibda qirqiladi. Suyakni qirqqan vaqtida miyani zararlantirmaslik kerak. Qon oqayotgan bo'lsa, u tampon bilan to'xtatiladi.

Miya ko'rish bo'rtigidan yuqoriroqdan ko'ndalangiga kesiladi va baqa shtatiyga osib qo'yiladi. Oradan 1—2 daqiqqa o'tgach refleks vaqtি bir necha marta aniqlanadi. So'ngra ko'rish bo'rtigining usi filtr qog'oz bilan quritilib, unga osh tuzining bir dona kristall qo'yiladi. Shundan keyin baqa oyog'iga xlorid kislottasining 0,1% ni eritmasi bilan ta'sir etilib, refleks vaqtining uzayganligini biretcha marta tekshirib ko'rildi. Bundan so'ng baqa oyog'i fiziologik eritma bilan yuviladi va refleks vaqtি yana bir necha marta aniqlanadi. Bu gal refleks vaqtি asta-sekin asliga kela boshaydi. Shundan keyin uzunchoq miyaning pastidan qirqib, oradan bir necha daqiqo o'tgach, reflekslar kuchayib ketganligi yoki refleks vaqtি kamayganligi kuzatiladi.

### NAZORAT SAVOLLARI

- Bosh miya yarimsharlari po'stlog'ida qanday tormozlanishlar kuzatiladi?
- Shartsiz (tashqi) tormozlanish nima? Uning qanday turlari bor?
- Shartli (ichki) tormozlanish nima? Uning qanday turlari bor?
- Shartli va shartsiz tormozlanishning organizm uchun ahamiyati tushuntirilgani.
- I.M. Sechenov tajribasining ahamiyati nimada?

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- K.A. Алексееви, К.Л. Александрова. Клиническая гематология животных. М., «Колос», 1974.
- R.X. Xaitov, A.D. Dushanov. Hayvonlar fiziologiyasi. Т., «О'qituvchi», 1975.
- D.E. Eshimov, R.F. Ro'ziqulov. «Hayvonlar fiziologiyasi» fanidan amaliy laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha o'quv qo'llanma. Т., «O'zbekiston», 2006.
- D.E. Eshimov, R.F. Ro'ziqulov. Hayvonlar fiziologiyasi va patofiziologiyasi fanidan amaliy laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha o'quv qo'llanma. Т., «Taffakur bo'stoni» nashriyoti, 2011.
- H.U. Базанова, А.Н. Голиков. Физиология сельскохозяйственных животных. М., «Колос», 1980.
- A.P. Костин, Ф.А. Минчиряков, А.А. Сысоев. Физиология сельскохозяйственных животных. М., «Колос», 1983.
- И.П. Кондратин и др. Клиническая лабораторная диагностика в ветеринарии. М., «Агропромиздат», 1985.
- А.Б. Битюков. Практикум по физиологии сельскохозяйственных животных. М., «Колос», 1985.
- И.Б. Георгиевский. Физиология сельскохозяйственных животных. М., «Агропромиздат», 1990.
- V. Husainova, Z. Toshro'latov. Qishloq xo'sjalik hayvonlari fiziologiyasi. Т., «O'zbekiston», 1994.

### **III bob. Nafas fiziologiyasi**

|          |  |     |
|----------|--|-----|
| 21-dars. | O'pka faoliyatini o'rganish usullari     | 95  |
| 22-dars. | Nafas olish va nafas chiqarish mexanizmi | 98  |
| 23-dars. | O'pkaning tirkilik sig'imiini aniqlash   | 102 |

### **MUNDARIJA**

|  |    |
|--|----|
| Kirish .....   | 1  |
| <b>Amaliy-laboratoriya darslarini o'tkazish bo'yicha umumiy ko'rsatmalar</b>                             |    |
| Darsni o'tkazish tartibi va uning ma'lumotlarini rasmiylashtirish .....                                  | 6  |
| Tajriba o'tkazilayotganda foydalanimadigan hayvonlar, qo'llaniladigan asbob-uskunalar va eritnalar ..... | 7  |
| Tajriba hayvonlari .....   | 7  |
| Otar fiksatsiyasi .....  | 7  |
| Yirik shoxli hayvonlar fiksatsiyasi .....  | 8  |
| Cho'chqalar fiksatsiyasi .....   | 8  |
| Laboratoriya hayvonlarini fiksatsiya qilish .....  | 10 |
| Asbob-uskunalar .....  | 11 |
| Tajribani o'tkazishda foydalanimadigan eritmalar .....   | 19 |
| <b>I-dars.</b> Fiziologiya fanining tajibalari .....   | 21 |

### **IV bob. Hazm sistemasining fiziologiyasi**

|          |   |     |
|----------|---|-----|
| 24-dars. | Hazm sistemasi faoliyatini o'rganish usullari .....                         | 104 |
| 25-dars. | So'lik fermentari ta'sida kraxmalning gidrolizlanishi .....                 | 109 |
| 26-dars. | Katta qorindagi mikroorganizmlar miqdorini aniqlash .....                   | 112 |
| 27-dars. | Me'da shirasining ahamiyati va uning kislotalilik darajasini aniqlash ..... | 114 |
| 28-dars. | Ichak avtomatiyasi va harakati .....  | 117 |
| 29-dars. | Ichaktarning bir tomonloma o'tkazuvchanlik xususiyati .....                 | 121 |

### **V bob. Moddalar va energiya almashinuvi fiziologiyasi**

|          |   |     |
|----------|---|-----|
| 30-dars. | Hayvonlarda tana haroratini o'chras ..... | 124 |
|----------|---|-----|

### **VI bob. Ayiruv organlari fiziologiyasi**

|          |   |     |
|----------|---|-----|
| 31-dars. | Siydikning tarkibi va xususiyatlari o'rganish ..... | 128 |
|----------|---|-----|

### **VII bob. Nerv va muskul fiziologiyasi**

|          |  |    |
|----------|--|----|
| 2-dars.  | Qon plazmasi va qon zardobini ajratib olish .....                                  | 29 |
| 3-dars.  | Qomming shakllli elementlarini sanash uslubi .....                                 | 32 |
| 4-dars.  | Eritrotsitlar sonmini sanash .....   | 35 |
| 5-dars.  | Leykotsitlar sonini sanash .....   | 38 |
| 6-dars.  | Qon surtmasini tayyorlash .....  | 40 |
| 7-dars.  | Leykotsitlar formulani aniqlash .....  | 43 |
| 8-dars.  | Gemoglobin miqdorini aniqlash .....  | 46 |
| 9-dars.  | Eritrotsitarning cho'kish tezligini aniqlash .....                                 | 52 |
| 10-dars. | Gemoliz. Eritrotsitarning osmotik rezistentligini (chidamilibagini) aniqlash ..... | 55 |
| 11-dars. | Qomning ivish tezligini aniqlash .....   | 57 |
| 12-dars. | Qon guruhlarini aniqlash .....   | 60 |

### **VIII bob. Markaziy nerv sistemasining fiziologiyasi**

|          |  |     |
|----------|--|-----|
| 36-dars. | Refleks yovi, vaqt va maydonini aniqlash ..... | 144 |
|----------|--|-----|

### **IX bob. Oliy nerv faoliyati**

|          |   |     |
|----------|---|-----|
| 37-dars. | Shartli reflekslarni hosil qilish qoidalari va usullari ..... | 149 |
| 38-dars. | Bosh miya yarimsharları po'stloq qismidagi tormozlanishlar .. | 153 |
|          | Foydalanimagan adabiyotlar .....                              | 157 |

### **II bob. Qon aylanish fiziologiyasi**

|          |  |    |
|----------|--|----|
| 13-dars. | Yurak va tomirlar faoliyatini tekshirish usullari .....  | 66 |
| 14-dars. | Ekstrasistol va kompensator pauza hosil qilish .....     | 68 |
| 15-dars. | Yurak awtomatiyasi .....                                 | 72 |
| 16-dars. | Yurak faoliyatining reflektor boshqarilishi .....        | 75 |
| 17-dars. | Yurak faoliyatining gumoral boshqarilishi .....          | 80 |
| 18-dars. | Qon bosimi va uni aniqlash usullari .....                | 84 |
| 19-dars. | Qon tomirlar faoliyatining reflektor boshqarilishi ..... | 87 |
| 20-dars. | Qomning tomirlarda harakatini kuzatish .....             | 89 |

10.000

E99 Eshimov D.E., Ro'ziqulov R.F. «Hayvonlar fiziologiyasi» fanidan amaliy-laboratoriya mashg'ulotlari  
(O'quv qo'llamma.) T.: «ILM ZIYO», 2012. — 160 s.

УДК 591.1(075)  
КБК 28.673

ISBN 978—9943—16—063—7

D.E. ESHIMOV, R.F. RO'ZIQULOV

**«HAYVONLAR FIZIOLOGIYASI» FANIDAN  
AMALIY-LABORATORIYA MASHG'ULOTLARI**

*Veterinariya ta 'ilm yo'nalishlari talabalari uchun  
o'quv qo'llamma*

Toshkent — «ILM ZIYO» — 2012

Muharrir *B. Xudoyorova*  
Badiy muharrir *Sh. Odilov*  
Texnik muharrir *F. Samadov*  
Musahhit *M. Ibrohimova*

Noshirlik litsenziyasi AI № 166, 23.12.2009-yil.  
2012-yil 16-mayda chop etisiga ruxsat berildi. Bichimi 60x90<sup>1/16</sup>. «Tayma»  
harfida terilib, ofset usulida chop etildi. Bosma tabog'i 10,0+0,5.  
Nashr tabog'i 10,0. 1500 nusxa. Bahosi shartnomma asosida. Buyurtma № 4

«ILM ZIYO» nashriyot uyi, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Shartnomma № 16 — 2012.

«PAPER MAX» xususiy korxonasida chop etildi.  
Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30-uy.